

A B C D E

F G H I J

K L M N

O P Q R S

T U V W

X Y Z

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

MIRSARDOR ALIMOV

ZAMIN ZAMON TARBIYA

Monografiya

Toshkent- 2025

Monografiya Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (Bayonnoma №.....)

Mas'ul muharrir:

R.X.Djuraev – pedagogika fanlari doktori, akademik

Taqrizchilar:

R.G.Safarova – pedagogika fanlari doktori, professor

A.Q.Lutfullaev – professor

Mazkur monografiya zamonaviy globallashuv sharoitida alohida ahamiyat kasb etayotgan milliy tarbiya muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda tarbiyaning rivojlanish jarayonlari, barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyat va an'analar, o'quvchi yoshlar tarbiyasida kitobxonlik, musiqa, san'at, sport, mahallaning o'rne, oila tarbiyasi, tarbiya beruvchining mas'uliyati va mahorati kabi masalalar yoritilgan.

Monografiyadan ta'lim muassasalari professor-o'qituvchi va talabalari, tadqiqotchilar ilmiy manba sifatida foydalanishlari mumkin.



*Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm,
eng katta meros yaxshi tarbiya, eng katta
qashshoqlik bu ilmsizlikdir.* *SH. Mirziyoyev*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori
(ko'chirma)

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy
institutini tashkil etish to'g'risida

Yoshlar tarbiyasi sohasining ilmiy-metodik ta'minotini amalga oshirish, buyuk allomalarimiz va jadidlarning ushbu yo'nalishdagi qarashlarini ilmiy tadqiq etish asosida zamonaviy metodikalarni ishlab chiqish, o'quvchilar tarbiyasi masalasida mahalla va ota onalar o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlash, ota onalar va o'qituvchilar uchun ushbu mavzuga oid o'quv va ommabop adabiyotlar yaratishni tizimli yo'lga qo'yish maqsadida:

1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti negizida Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini (keyingi o'rinlarda – Institut) tashkil etish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2024-yil 21-iyun,
PQ-232-son.

TARBIYA

Tarbiya insoniyatning rivojlanish ehtiyoji tufayli vujudga kelgan. Shuning uchun ham tarbiya shaxsning madaniyati, ma'naviyati, ahloqiy-estetik qarashlarini rivojlantirish qonuniyatlari, prinsiplari, shart-sharoitlari va dinamikasini o'zida mujassamlashtiradi. U barcha davrlarda davlat va jamiyatning diqqat markazida turgan umummilliy masala hisoblanadi. shuning uchun ham o'quvchi va talaba yoshlarni ahloqiy tarbiyalash masalasi bugungi globalashuv sharoitida o'ta dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Ayniqsa, o'smir yoshidagi o'quvchilarni ommaviy va marginal madaniyatning salbiy xurujlaridan asrash kundalik ehtiyojga aylanmoqda.

O'zbekistondagi ijtimoiy madaniy muhit, birinchi navbatda, tarbiyani davlat siyosati darajasidagi ustuvor masalaga aylantirdi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-232- son "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida" Qarori qabul qilinib, unda quydagi masalalarga ustuvor e'tibor qaratildi:

1) pedagogika va psixologiya sohalarida tarbiya metodikasiga oid fundamental, amaliy va innovat-



sion tadqiqotlarni olib borish, sohada ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash;

2) tarbiya mazmunini tahlil qilish, uni rivojlantirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish;

3) ajdodlarimiz va jadidlarning komil insonni shakllantirish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid yondashuvlarini tadqiq qilish hamda zamon talablariga mos ravishda ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan ishlanmalar va metodikalarni yaratish;

4) ota onalar va o'qituvchilar uchun tarbiyaviy metodikalar bo'yicha qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish, ularni ommalashtirish;

5) farzand tarbiyasida “maktab – ota-ona – mahalla” hamkorligining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish bo‘yicha metodik tavsiyanomalar yaratish;

6) tarbiya metodikalariga oid raqamli kontentlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

7) alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning tarbiyasiga oid ilmiy-metodik ta’minotni yaratish.

Ko‘rinib turibdiki tarbiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu, o‘z navbatida, tarbiyaning barcha turlarini o‘zida mujassamlashtirgan ahloqiy tarbiya metodikasini yanada rivojlantirishni taqazo etadi.



Shu narsa ayonki, qadriyatlar insonning ma'naviy ahloqiy sifatlarini shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Aynan xuddi shu qadriyatlar yosh avlodning xulq-atvori, xatti-harakatlarini shakllantirishda ishtirok etmaganligi tufayli ularning ijtimoiy madaniy dunyoqarashi, munosabatlar tizimining barqaror emasligi ayon bo'lmoqda. Vaziyatdan kelib chiqqan holda yoshlar "yoqadi" yoki "yoqmaydi", foydali yoki foydasizligidan qat'i nazar manipulyatsiya holatlarini osongina fosh qiladilar. Bunday holatlar, ayniqsa, ijtimoiy ziddiyatlarga moyil bo'lgan guruhlar va mazhablar orasida tez-tez uchraydi. Natijada, yoshlarning ijtimoiy madaniy muhitga kirishish jarayonida me'yorlar deformatsiyasiga duch kelishi kuzatiladi.

Ushbu muammoning yechimi bilan, birinchi navbatda, pedagogika fani va ta'lim muassasalari muntazam tarzda shug'ullanishi talab etiladi. Chunki tarbiya jarayonida jamiyatning asosiy funksiyasi: yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda amalga oshadi. Buning uchun o'quvchi-yoshlarga millatning butun tarixiy tajribasini soda va qulay shakllarda yekkazish muhim.

Ahloqiy tarbiya shaxsni kamol toptirishning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, bunda o'quvchilarning rivojlanishi, nuqtai nazarlarining shakllanishi, qa-

ni o'zlashtirishi, ideallari va maqsadlari tarkib topadi, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiylashtirish jarayoni amalga oshadi. Ushbu tushunchalarning o'zaro munosabatidan kelib chiqqan holda ahloqiy tarbiyaga o'quvchilarni ijtimoiylashtirish nuqtai nazardan yondashiladi.

O'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda, birinchi navbatda, ularni ijtimoiy madaniy jihatdan rivojlantirish, mikrosotsiumga muvaffaqiyatli moslashtirish maqsadidan kelib chiqqan holda zarur pedagogik chora-tadbirlar qo'llanadi. Shu bilan birga o'quvchilar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan omillar va vositalar ham aniqlab olinadi.

Ahloqiylik insonning ichki ma'naviy sifati hisoblanadi. Shunga ko'ra, ahloqiylik, birinchidan, umumijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan qadriyatlar: boshqalarning huquqlarini tan olish, adolat, halollik, ishonch, sadoqat, muloyimlik, kelishuvchanlik, umumiy til topishish, vatanparvarlik, fidoyilik, mas'uliyatlilik, fuqarolik hissi, o'zi va jamiyat a'zolarini anglash va undan o'rinli foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, axloq insonga xos bo'lgan sifatlarini ifodalaydi. Kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishi davomida ahloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan.

.. ————— ❦ ————— ..

Axloq murakkab tuzilmaga ega bo'lgan yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, ahloqiy ong, ahloqiy xatti-harakatlar, ahloqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Uning tarkibiga ahloqiy his-tuyg'u, kechinmalar, iroda, aql-zakovat, intuitsiya, xayol, xotira kabilar ham kiradi.

Axloqning subyekti inson, uning mezoni, bahosi – vijdondir. Axloqqa doir xatti-harakatlar, munosabatlar alohida olingan inson, jamoa, ijtimoiy guruhga xos.

Ahloqiy tarbiya jarayonida o'quvchilar orasida ahloqiy munosabatlar shakllanadi. Ushbu munosabatlar rivojlanib, har bir shaxs jamiyatning barcha a'zolari bilan amalga oshiradigan munosabatlarni tarkib toptiradi. Mazkur munosabatlarni takomillashtirish va uni jamiyat munosabatlari asosida tashkil etish layoqati hamda mustahkam tizimning me'yorlari kundalik, ma'naviy-ahloqiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim muassasalarida ahloqiy tarbiyani quyidagi yo'nalishlarda tashkil qilish ehtiyoji mavjud:

1. Estetik tarbiyaning asosiy ko'rsatkichi sifatida o'quvchi yoshlarning ahloqiy nuqtai nazarini shakllantirish. Bu jarayonda ahloqiylik narsa, buyum va hayotiy hodisalarning ichki mohiyatini his etish,

shaxsning madaniyatni anglashga oid xulq-atvorini boshqarish vositasi hisoblanadi. O'z navbatida, shaxsning fikrlash sohasi uning atrof-olam va jamiyat a'zolari bilan kechadigan muloqotida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda muloqot o'zaro axborot almashish va bir birining hissiy holatini anglash usuli sifatida xizmat qiladi.

2. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlaridan biri ma'naviyatlilikning tashqi olam va jamiyat a'zolari bilan munosabatini amalga oshiruvchi mexanizmi hisoblanadi.

3. Insonni milliy hamda umuminsoniy madaniyatga jalb etish ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning muhim qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda inson madaniy ta'sir obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonda u ahloqiy xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtiradi, chunki insonning o'zi madaniy me'yorlarning egasi, ifodalovchisi va ijodkoridir.

4. Tarbiya o'quvchilarga qadriyatlarni taqdim etishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning uchun ham o'quvchilarni ma'naviy-madaniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladigan qadriyatlar guruhlariga ajratilgan. Asosiy qadriyatlarga Vatan, mehnat, bilish jarayonlari, insoniyat va ijtimoiy manfaatlar kiradi. Ahloqiy tarbiya sohasida turlicha yondashuv-

larning mavjudligiga qaramasdan ularda ilgari surilgan asosiy g'oyalarni integratsiyalash ahloqiy tarbiya atrof-olam, borliq va jamiyat a'zolari bilan kechadigan munosabatlarni uyg'unlashtirgan holda madaniyatshunoslik kontekstida o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Ushbu qadriyatlar milliy-hududiy an'analarda mujassamlashgan bo'ladi. Shuning uchun ham ahloqiy tarbiya o'quvchilarni ijtimoiylashtirish asosida O'zbekiston jamiyatining ma'naviy intellektual jihatdan rivojlangan a'zosi sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan.



KITOBXONLIK ORQALI TARBIYA

*Insonni ulug'laydigan, komillik
sari yo'naltiradigan kuch - kitobdir.*

Bu yil Alisher Navoiy taval-ludining 584 yilligi nishonlandi. Demak, Navoiy 584 yoshga to'ldi. U hamon tirik, yashayapti. Jismonan oramizda bo'lmasa ham, ruhan tirik. U qoldirgan adabiy meros uni abadiyatga yetaklamoqda. U ruhan biz bilan. Nega shunday? Ushbu savolga har kim har xil javob berishi tabiiydir. Menimcha, Navoiy siymosining abadiyati u qoldirgan adabiy meros, u haqida yozil-gan xotiralarda.

Navoiy juda ko'plab asar yozgan. Ular kitob qilingan. Bugun ham qilinmoqda. Aynan shu yozil-gan asarlar Navoiy umriga umr qo'shmoqda. Demak, kitob buyuk qudratli kuchga ega. U insonni, uning umrini abadiyatga muhrlaydi.

O'ylab qolaman, o'zinga savol beraman: Ahmad Farg'oniy, Muso Xorazmiy, Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Mansur Moturudiy, Abu Rayhon





Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf xos Hojib, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimizning ham Alisher Navoiydek umrboqiyliklari boisi ularning doimo ilm va ijod bilan mashg'ul bo'lib, yozib qoldirgan ilmiy va badiiy asarlari – kitoblari tufayli emasmikan?

Albatta, shunday! Ularning barchasi ham o'z ilmiy kashfiyot va badiiy ijod mahsullarini kitob holida yozib qoldirdilar. Ushbu bebaho ilmiy meros xazinasidan ilmsevar insonlar hanuz bahramand bo'lib kelmoqdalar.

Kitob inson dahosi yaratgan buyuk kashfiyotlardan biridir. Har qaysi millat kitobining paydo bo'lish tarixi ayni shu millat madaniyatining rivojlanish tarixi



boshlanganini anglatadi. Demak, kitob har qanday millatning madaniyat darajasini ko'rsatuvchi asosiy mezonlardan biri. U ajdodlar o'tmishini aks ettirib, uni avloddan avlodga yetkazib beruvchi ko'priklar vazifasini o'taydigan muhim manbadir. Kitobsiz biz o'tmishimizni aniq bila olmaymiz, bugunimizni kelajakka yetkaza olmaymiz. Kitob jamiyat taraqqiyotida o'ta muhim omillardan biri, bebaho boylikdir. Uning tilini o'rganish orqali tariximizni bilib boraveramiz.

Kitob. Biz uni oftobga o'xshatamiz va "Kitob – oftob" deymiz. Hech o'ylab ko'rganmisiz: nega kitobni oftobga, quyoshga mengzatamiz? Oftob, quyosh o'zi nima? Tabiat uchun, hayot uchun uning qanday ahamiyati bor? Savollarni yana davom ettirish mumkin.

O'zbek tilining izohli lug'atiga murojaat qilamiz:

"Quyosh (astronomiyaga oid termin sifatida bosh harf bilan). Quyosh sistemasiga oid markaziy

jism – o'zidagi termoyadroviy reaksiyalar hisobiga yorug'lik va issiqlik tarqatuvchi (chiqaruvchi) ulkan gazsimon shar shaklidagi yoritqich.

Shu jismdan taraluvchi nur, issiqlik.

Ko'chma. Nimaningdir hayot, yashash manbai, asosi hisoblanadigan, shunday deb qaraladigan narsa haqida”.

Ushbu ta'riflarning har biri ilmiy asosga ega. Bizga uning uchinchi ma'nosi hayotiyligi bilan yana ham ma'qul bo'ldi. Demak, quyosh hayot va yashash manbai, asosi sifatida butun mavjudot, borliqning doimiyligini ta'minlaydi.



O'zingiz tasavvur qilib ko'ring: agar quyosh yo'q bo'lib qolsa, nima bo'ladi? Bizningcha, borliq yo'qlikka mahkum bo'ladi, yer yuzida hayot to'xtaydi, mavjudotlar qirilib ketadi.

Kitob-chi, uni nega quyoshdek ko'ryapmiz? Kitobga berilgan ta'rifni keltiramiz: shakllantirish vositasi; bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot.

YUNESKO tavsiasigako'ra, xalqaro statistikada hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashrni shartli ravishda "kitob" deyish qabul qilingan. Albatta, kitob borasida keltirilgan ushbu ifoda kitobga berilgan ilmiy ta'rifdir. Ikkinchi ta'rifni keltiramiz:

"KITOB – 1) bilim, ma'naviyat va ma'rifat manbai; 2) insonni ulug'laydigan, unda ma'naviyat va ma'rifat asoslarini shakllantiradigan, uni komil qilib tarbiyalaydigan kuch, u dunyo va bu dunyoni tanitish manbai. Biz o'zligimizni, dunyoni, olam va odam munosabatini kitob orqali bilib olamiz". Kitobga berilgan ushbu ta'riflar har bir manbada maqsadga ko'ra qo'llangan va o'z o'рни uchun ma'quldir. Biz aytmoqchi bo'lgan fikrlarga ko'proq ikkinchi izoh uyg'un keladi. Ya'ni biz bu dunyoni, o'zligimizni, olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, aytilganidek, kitob orqali tasavvur qilamiz. Kitobsiz hayot johillikka yetaklaydi. Insonni ulug'laydigan, komillik sari yo'llantiradigan, uni





Quyosh hayot uchun, mavjudot uchun qanchalik zarur bo'lsa, kitob inson hayoti uchun, o'z maqsadlariga erishishi, yuksalishi, hayotni tanishi uchun shunchalik zarurdir. Kitobsiz hayot zulmatdir.

Kitob insonning doimiy hamrohi bo'lib kelgan. Kitob o'qisangiz, u bilan birga yashaysiz, hayotni o'rganasiz, muallif yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni qaytarmaslik

choralarini ko'rasiz. Odamlarni u orqali yana ham yaxshi taniysiz. Aslida, kitobga hammamiz muhtojmiz. Kitob bilan bog'liq hikmatli so'zlarni keltirsam:

Kitobi yo'q olim – mevasiz daraxt.

Kitobdan emas, kitobsizlikdan qo'rqing.

Kitob – boylik. Lekin sotib olingani emas, o'qilgani.

Kitob – yolg'izlik ummonida cho'kib ketayotgan odam uchun qutqaruv belbog'i.

Kitob haqidagi bunday ta'riflarni uzoq keltirish mumkin.

So'zimizning boshida bejizga ulug' mutafakkir bobolarimiz haqida fikr yuritmadik. Ularning har biri juda katta ilmiy va badiiy meros qoldirgan. Ular

o‘z kitoblarini yozish uchun ko‘plab kitoblarni mutolaa qilgani tarixdan yaxshi ma’lum. Birgina Ibn Sino haqidagi hikoyani yodga olaylik.

Ibn Sinoning o‘zi bu haqda shunday eslaydi:

“Bir kuni Amir qattiq betob bo‘lib qoldi va shifokorlar uning kasalini aniqlay olishmadi. Mening ismim ularga tanish edi va ular Amirga men haqimda gapirib, meni chaqirishlarini iltimos qilishdi. Men chaqirilgan joyga borib, ular bilan birga xizmat qildim”.



Buxoro amirining kasali va Ibn Sino uni nima bilan davolagani haqida ma’lumot yo‘q, biroq muolaja shunchalik yordam berganki, Buxoro amiri Nuh ibn Mansur yana bir yil taxtni boshqargan.

Minnatdorchilik evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish ruxsatiga ega bo'lgan. Buxoro kutubxonasi o'z davrining eng yirik va eng mashhur kitoblar ombori hisoblangan.



Ibn Sinoning o'zi Buxoro kutubxonasida ishlagan davrini ijodiy rivojining eng muhim bosqichi deb hisoblaydi. Shu vaqtdan e'tiboran, uning ta'limi yakunlanib, mustaqil hayot yo'li bosqichi boshlanadi. Ibn Sino mazkur kutubxonadan bir necha yillar davomida foydalangan. Ehtimol, o'z ichiga barcha alomatlari ila kasallik nomlari ko'rsatilgan, shuningdek, kasallikning kelib chiqish sabablari va davosi kabilarni o'zida jamlagan umumlashma tibbiyot asarini yaratish g'oyasi unda Buxoro kutubxonasida ishlagan yillari uyg'ongan.

Aynan shu maqsad uchun Ibn Sino turli qo'lyozmalardan parchalar ko'chirib olgan va ularni umumlashtirgan. Shunday qilib, Ibn Sino eng muhim asari "Tib qonunlari" uchun materiallar tayyorlangan va bu ish ustida u ko'p yillar davomida ish olib borgan.





Har bir buyuk mutafakkirning hayoti bilan qiziqsangiz, albatta, ularning yetuk bilim sohiblari bo'lib yetishishlarida kitobning o'рни muhim bo'lganligini ko'rasiz.

Ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohatlardan ko'zlangan asosiy maqsad barkamol avlodni ajdodlarimizga munosib voris e'tib voyaga yetkazishdir. Bu borada sharq mutafakirlari tomonidan inson kamolotiga, ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlangan va pand-nasixatlarga boy didaktik asarlar yaratilgan.



«Kalila va Dimna», «Qobusnoma», «Qutadgʻu bilig», «Saodatga eltuvchi bilim» Odoblar xazinasi» «Uchinchi renesans» va boshka mustakillik davrida tarbiya mavzusida chikarilgan kullanmalar shular jumlasidandir.

Ana shu anʼanaga koʻra buyuk bobokalonimiz, soʻzmulking sultoni Mir Alisher Navoiy oʻz zamonasida barkamol avlodni shakllantirish, taʼlim-tarbiyani yuksaltirish uchun bor kuchgʻayratini ishga solgan, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Alisher Navoiyning ilmiy va badiiy merosi juda boy va koʻp qirralidir. Mutafakkir amaliy faoliyatida ham, barcha asarlarida ham Qurʼonda axloq qoidalariga rioya qilgan. Paygʻambarimizning eng muhim 41 ta hadisini nazm rishtasiga osib, «Arbain» asarini yaratgan. Undan insonning barkamolligi masalalari alohida oʻrin olgan. Ulugʻ shoir mamlakatni obodonlashtirish, madrasalar qurishga alohida eʼtibor bergan. U Hirot shahridagi «Injil» anhuri boʻyida nihoyatda chiroyli «Ixlo-siya» madrasasini qurdirgan. Unga nom qoʻyilishi haqida bunday degan: «Bu Madrasa kim

kim ulusi ixlosdin yasaldi, «Ixlosiya» deb nom berildi.



Navoiy chin ixlos bilan qurilgan bu madrasani o'sha zamonning eng namunali o'quv maskaniga aylantirish uchun mablag'ni ayamay, maxsus vaqf mulki belgilagan. O'z madrasasidagi o'quvchilarni moddiy jihatdan ta'minlab turishga harakat qilgan. Madrasadagi o'quv ishlariga bosh mudarris rahbarlik qilgan, xo'jalik ishlarini esa mutavalli olib borgan. O'sha davrda madrasalarda o'qish muddati muayyan bo'lmagan, o'qish xatto 20 yilgacha ham cho'zilgan. Madrasaga biror bir kasb-hunar, o'rta darajadagi ma'lumotga ega

bo'lgan, sha'riyat qoydalari, davlat tartibotlarini yaxshi bilgan, ilmiy qobiliyati jamoalarda e'tirof etilgan, obro'li shaxslar tavsiyalari asosida o'qishga qabul qilingan.



Navoiy zamonida Movoraunnahr va Xurosonda ilm va hunar o'rganish istagi va ishtiyoqi katta bo'lganini Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida alohida ta'kidlagan. Ilmga havas qo'ygan, hunar o'rganishni istagan yoshlar mamla-

katdagi ma'rifatparvar kishilar yordamida ilm olishga kirishardi. Navoiy davrida shogirdlik yo'li bilan ilm, hunar va san'at o'rganish ancha keng tarqalgan edi. O'sha davrda yoshlar fan va san'at mutaxassislaridan tibbiyot, kimyogarlik, san'atkorlik, hunarmandlik, xattotlik, me'morlik va shu kabilardan ilm o'rganardi.

Navoiy maktablardagi o'quv-tarbiya ishlarini yaxshilash masalasini o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy tuzumni o'zgartirish va xalqning iqtisodiy ah-

emas, balki maktablarga bilimlroq, insofliroq domlalar tayinlash yo'li bilan hal qilish mumkin, deb bilardi. Shuning uchun u o'zining amaliy ishlarida ham, badiiy va ilmiy asarlarida ham o'qituvchi qanday bo'lishi kerakligi masalasiga alohida e'tibor bergan. Navoiyning fikricha, bolalarga tarbiya va ta'lim beradigan kishi ma'lumotli va o'qitish yo'llarini biladigan bo'lishi lozim edi. Navoiy yosh avlodni tarbiyalash-o'qitish ishini har qanday tasodifiy kishiga topshirishni qoralagan. U o'qituvchiga eng yuksak talablar qo'ygan. Bolani tarbiyalash va unga ilm berish, uning qobiliyatini o'stirish uchun nihoyatda bilimdon va usta tarbiyachi bo'lishi kerakligi, bolalarga ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchilar yoshlarga ilm, odob o'rgatish mahoratiga ega bulishi, o'qitish yo'llarini yaxshi bilishi lozim va zarurligini uqtirgan.



Navoiy fikrlarining isbotini bugun malakatimizda olib borilayotgan ta'limga oid siyosatda ko'rishimiz mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 30-oktyabrda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

– Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan, dedi davlat rahbari yig'ilish avvalida.


Yig'ilishda davlatimiz rahbari O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiya, har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta'kidlandi.


Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar

tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablagʻlar yoʻnaltirilmoqda. Maktabgacha taʼlim, maktab va oliy taʼlim tizimi, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat oʻzgarishlari roʻy bermoqda.

Bugungi kunda Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin koʻmakchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir.

– Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini oʻqituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari boʻlgan bu moʻtabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom koʻrsatishimiz kerakm dedi prezidentimiz.






Davlatimiz mustaqillikka erishgan hozirgi davrda buyuk bobomiz Navoiy merosini yosh avlodga chuqur o'rgatishimiz zarur. Zero u o'z asarlarida milliy iftixor, halkqa, ona tiliga, Vatanga mehr-muhabbat g'oyalarini targ'ib qilgan. U yoshlarni egallagan ilm va hunarini Vatan uchun, xalqqa naf keltirish uchun hayotga tatbiq eta bilishga da'vat qilgan. Navoiy asarlarida madh etilgan xalqlar do'stligi, tinch-totuv yashash uchun kurash, kamtarlik, mehribonlik, ochiq ko'ngillik, shirinsuxanlik, saxovatpeshalik, beva-bechoralarga yordam qo'lini cho'zish, ustozga izzat kabi fazilatlar hamisha xalqimizga tetik ruh va quvvat bahsh etaveradi.



Adibimiz Pirimqul Qodirov yozadi: “Alisher-bekni besh yoshga to‘lar-to‘lmas maktabga beradilar.

“Lison ut-tayr” asarida u o‘zining maktabda o‘qigan yillarini eslar ekan, shayx Sa‘diyning nasrda

yozgan “Guliston” va “Bo‘ston”ini o‘qiganini, nazmda esa Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga alohida e‘tiqod qilganini ko‘rsatib o‘tadi.





Bir necha ming misrali dostonni o'n yoshida fors tilida yod olgani Alisher Navoiyning zehni naqadar o'tkir, xotirasi qanchalik kuchli bo'lganidan dalolat beradi".

Navoiyning bolaligiga oid bu voqealarni barchamiz yaxshi bilamiz. Aytmoqchimizki, Alisherning

buyuk Navoiy bo'lib yetishishida kitobning o'rne beqiyos bo'lgan. Farididdin Attordan olgan tasavvuf saboqlari bir umr Alisher Navoiyning yodidan chiqmaydi. Farididdin Attordan 120 ming misra she'r va ko'pgina asarlar meros qoladi.

Farididdin Attor 1229-yilda Chingizxon boshlab kelgan mo'g'ul bosqinchilari qo'lida halok bo'ladi. O'sha davrda uning maqbarasi xarobaga aylangan edi. Alisher Navoiy Shayx Attor sag'anasini yangidan tiklab, salobatli bir maqbara qurdiradi. Davlatshoh Samarqandiyning guvohlik berishicha, bu maqbara Nishopurning ulug' ziyoratgohiga aylanadi.



Tarixiy dalillardan ko'rinib turibdiki, yosh Alisherning kelajakda buyuk mutafakkir bo'lib kamol topishining boisi uning bolaligidan kitob bilan oshno bo'lgani, deb xulosa qilish mumkin. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Navoiy butun umri davomida kitobni o'ziga haqiqiy do'st, yo'ldosh tutdi. Natijada, jahon ahli hanuz uni yodida saqlaydi, unga ehtirom ko'rsatadi, e'zozlaydi, ulug'laydi, nomini abadiylashtirishga harakat qiladi, asarlarini qayta-qayta chop etadi, undan namuna oladi, farzandlariga o'rnak qilib ko'rsatadi.

Navoiy bilan bir davrda yashagan, hamnafas bo'lgan ijodkorlar u haqda go'zal asarlar yozib qoldirishgan. Xususan, buyuk tarixchi Mirxondning nevarasi Xondamir umrining asosiy davrlarini Alisher Navoiy hamda boburiylar davrasida o'tkazgan. Demak, Xondamir har ikki buyuk insonning hayoti va ijodining bevosita shohidi bo'lgan. Xondamir yozib qoldirgan meros ulug' ajdodlarimiz tarixini o'rganishda juda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois Alisher Navoiy hayoti va ijodiga befarq bo'lmagan har bir inson "Makorim ul-axloq"ni o'qishi unga katta naf keltirishiga ishonamiz.

Xondamir Alisher Navoiyning shaxsiy ku-



tubxonasida kitobdorlik vazifasida xizmat qilgan. Navoiy unga yaxshigina maosh tayin qilgan. Xondamir Navoiyning butun umrini xalqqa bahshida etganini, o'z xalqi uchun qilgan xizmatlarini o'z ko'zlari bilan ko'rib ulg'aygan. Saxovat-peshalik, insonparvarlik, bag'rikenglik borasida Navoiy olib borgan muborak ishlardan bag'oyat hayratga tushgan va bunday ulug' inson haqida biror asar yozmaslikni o'ziga ayb deb bilgan. Natijada, ushbu "Makorim ul-axloq" yaratilgan.

Bu haqda Xondamir shunday degan: "Bu omadli va saodatli Amirning fazilatlari, olijanob xulqlari va chiroyli odoblaridan bir qisminigina hikoya qiladigan bir necha bob yozilsa va unda uning ajoyib siyratlari, maqtovga sazovor xulq-atvorlari, boshqalarda kam uchraydigan holatlari va kayfiyatlari, qiziq va g'aroyib ishlari, sehrli iste'dodi xususiyatlari va nozik iboralarni qog'ozga tushiradigan qalami hosilalari sharhlansa, [qilingan] yaxshiliklarni bilish, qadrlash va uning haqqini ado etish kabi vojib amallarning bir daqiqasini bo'lsa-da, bajara olgan hamda to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi oliy hazrat tomonidan berilgan ne'matlarga shukr qilishning ozgina bo'lsa-da, uddasidan chiqa olgan bo'lard-ing. Zero bu ish qiyomatga qadar bo'lgan davrda va qiyomat chog'ida ham ul hazratning maqtovga

malar zamona kitoblari hamda davron varaqlarida mangu qolishiga sabab bo'лади.



Yaxshi nomni ikkinchi umr demish ulug'lar.

Shundan kelib chiqqan holda san'at ulug'ligi osmoni quyoshiga sano o'qishdan boshqa hunarim bo'lmagan men banda

Maqtashdan boshqa biror hunarim yo'q,

Duodan boshqa biror yaxshi narsa topolmadim.

Ko'nglimdagilarni yozishga kirishdim va yozganlarimni muqaddima, o'n maqsad va xotima shaklida tartib berib, uni "Makorim ul-axloq" deb nomladim".

Xondamir bevosita Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlab yana "Xulosat ul-axbor" hamda "Habib us-siyar" asarlarini yozib qoldirgan va ular Alisher Navoiy haqida bitilgan haqiqiy tarixiy asar-

lar sifatida bebaho manbalardir.



Demak, Navoiydek insonning buyuk qalb egasi, saxovatpeshalikda benazir, shoirlarning sultoni boʻlishida kitob bosh omillardan biri boʻlgan.

Ushbu satrlarni yozayotib, hayolimdan “Bugun bolalar oʻrtasidagi kitobxonlik masalasi qay ahvolda?

Yoshlarimizning kitob mutolaasiga munosabatlari qanday? Umuman, bugun ham yoshlar tarbiyasida kitobning oʻrni bormi? Bugun biz kitob bilan qanday muomalada boʻlyapmiz degan savollar oʻtdi. Javoblar turlicha. Kimdir bugungi avlodning kitob oʻqimay qoʻyganidan qattiq yozgʻirsa, kimdir zamondan nol iydi. Toʻgʻri, bugun kurrai zaminimizda yoshlarning kitobga boʻlgan oshnoligi, mutolaa darajasi qaysidir maʼnoda pasaygan boʻlishi ham mumkin. Lekin oʻz kelajigiga beparvo boʻlmagan yoshlar hanuz kitob bilan oshnolar. Buning isbotini men Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasiga

borganimda doimo ko'raman: har doim kutubxona kitobxonlar bilan gavjum, o'rindiqlarda joy qolmaganidan yerga o'tirib olib kitob o'qiyotgan yoshlarni ko'p kuzataman. Mazkur kutubxonada har kim uchun zarur bo'lgan kitobning barchasi muhayyo.

Kitobxonlar uchun barcha sharoitlar yaratib berilganini ko'rib, ko'nglingiz yayraydi.



Kitobxonlarga kitob o'qishlari uchun sharoitlar yaratib berish borasida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida olib borilgan tajriba-sinov ishlarini ham yaqqol misol qilib ko'rsatish mumkin. Ushbu muassasada o'sha yillarda ARMning uchta qo'shimcha filiali tashkil etildi. Institut hududidagi ikkita Talabalar turar joyining har birida alohida-alohida ARM filiali faoliyati yo'lga qo'yildi. Kitoblar talabalarning turar joydagi xonalariga yaqin joyga olib kelindi. Talaba endi xoh kechqurun, xoh kunduz kuni bo'lsin, o'z yashash

xonasi yonginasidan o'ziga kerakli kitobni olish imkoniga ega bo'ldi. Bu uning uchun katta imkoniyat edi. Qolaversa, asosiy kutubxonaning o'zida ham kitob o'qish mumkin, kerak bo'lsa, talaba o'z xonasiga olib ketishi uchun ham imkoniyatlar yaratildi. Barcha zaruriy imkoniyatlar yaratildi. TTJdagi kutubxonachilar mazkur yotoqxonada yashovchi Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti talabalari safidan tanlab olindi. Shuningdek, institutning "S" binosida Kutubxona-axborot faoliyati



hamda Xalq ijodiyoti fakultetlari talabalari uchun maxsus o'quv adabiyotlari bilan ta'minlangan filial barpo etildi.

Eng muhimi, ARMning markaziy binosida kitob o'qish uchun kelgan har bir kitobxonga chiroyli finjonlarda bepul kahva siylovi tashkil etildiki, bu ham

kitobxonlar qatnovi keskin oshishiga turtki bo'ldi.

Alisher Navoiy asarlarini o'qiyotgan talabalar uchun institut hovlisida zamonaviy yangi velosipedlarda sayohat qilish imkoniyati ham yaratildi.



Bu yaratilgan imkoniyatlar talabalar kitob bilan yanada yaqinlashishiga olib keldi. Natijada, institutning ayrim ta'lim yo'nalishlarida talabalar o'rtasidagi kitobxonlik darajasi 17 baravarga oshib ketdi. Bu juda katta ko'rsatkich edi.

Qolaversa, universitet hovlisida velosipedda sayr qilayotgan talabalar soni oshib bordi. Demak, talabalar Navoiy asarlarini o'qimoqda ekan. Bu motivatsion tashabbuslardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad talabalar o'rtasida kitobxonlik darajasini

yanada kuchaytirish, ularning sifatli bilim olishlariga imkoniyatlar yaratish, bu bilan esa, yurtimizda davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessansga poydevor qo'yilayotgan bugungi davrga monand bilimli kadrlarni tayyorlash bo'ldi. Zero respublikamizda buning uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo qilinmoqda.



O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA MAHALLANING O'RNI

Kundalik hayotimiz, ayniqsa, O'zbekiston sharoitida ijtimoiy fikrning asosiy barometri, o'lchovi – bu mahallalar. Mahalla ahli har bir oilada ro'y berayotgan hodisalarni biladi, insonlar taqdiriga befarq bo'la olmaydi, faollar orqali ijtimoiy hayotdagi har bir o'zgarish, odamlar ongi va qalbidagi his-tuyg'ularni o'rganadi. Shu ma'noda, O'zbekiston sharoitida mahallaning haqiqiy demokratiya darsxonasi ekani uning ijtimoiy fikrni boshqarish imkoniyatlarida ham o'z tasdig'ini topadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlar dunyoning qator taniqli siyosatchilari, olimlar, iqtisodchilar, oddiy fuqarolar tomonidan ijobiy baholanib, islohotlarning birinchi navbatda



“inson qadri uchun” xizmat qilayotgani e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “ Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammlarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-209-son Farmoni imzolanishi bilan noyob tuzilma “mahalla” institutining jamiyatimizdagi rolini oshirishga qaratilgan yana bir muhim islohot sari qadam tashlandi. Bundan buyon aholi muammolari, masalalari birinchi bo‘g‘in sifatida mahallaning o‘zida hal etilishiga e’tibor qaratilmoqda. Mazkur Farmon bilan “mahalla yettiligi” joriy etilib, ularning asosiy vazifalari belgilab berildi. “Mahalla yettiligi” oldida turgan eng muhim masala Hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, majburiyat va mas’uliyatni his qilgan holda mehnat qilib, tom ma’noda aholi muammolari, masalalarini birinchi bo‘g‘in sifatida mahallaning o‘zida hal etishdan iboratdir.

Inson hayotda o‘z o‘rnini topishi, yurtning taraqqiyotiga hissa qo‘shishi va shu Vatanga munosib bir farzand bo‘lishini ta’lim-tarbiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Buni biz qushning ikki

qanoti bo'lmasa, osmonga ko'tarilib, ko'klarga parvoz qila olmaganiga qiyoslasak bo'ladi.

Ta'lim-tarbiyaning o'rtasida ochiq-oydin farq bor. Ta'lim, tarbiyaning bir juz'i. Tarbiya esa ta'limni o'z ichiga oladi, aksincha, emas. Demak, tarbiya o'z-o'zidan ta'limga nisbatan komil va keng qamrovlidir. Tarbiyaning ma'nosi esa jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo qilish va, albatta, bu tarbiya ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarni o'z ichiga oladi.



Azaliy ma'naviyatimiz va milliy qadriyatlarimiz maskani bo'lgan mahalla bugun kuchli tarbiya o'chog'i sifatida milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini bilan boyib, yangilanib jamiyat taraqqiyotiga tobora samarali, xolisona xizmat qiluvchi hayot dorilfununiga aylanib bormoqda. Mahallada ahli avvalombor yoshlar qalbini, ongini "G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi

faqat ma'rifat bilan bahsga kirisha olish" orqali zabt etish, ezgu-amallarni ro'yoga chiqarishda bahslar o'tgazilsa, mahallalarda farzandlarimiz tarbiyasi, ularning fikrlashi, ongi rivojlanishida, xalq ichida o'z fikrlarini ifoda etishiga yordam beradi va buning tarbiyaviy ahamiyati kattadir.



Mahalla

O'zbekiston hududida ming yillar davomida insonlarning buyuk daholari tomonidan e'tirofetilgan, demokratiyaning asosiy tamoyillariga va jamoa fikriga asoslangan, xalqimizning an'anaviy urf-odatlarini, tarixiy, milliy davlat

boshqaruvi, madaniyati va xalqchil jamiyat tizimini shakllantirishga xizmat qladigan, yuridik maqomga ega bo'lgan, o'zini-o'zi boshqarishni tashkil etishga asoslangan birlamchi hududiy maskan – Vatan ichra vatan vazifasini o'tab kelmoqda.

Xa, mahalla O'zbekistonga xos milliy, tarixiy, an'anaviy, mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutidir. Uning demokratik tuzum sifatida asosiy mohiyati,

avvalo, uzluksiz ekani, bu tuzumda jamiyatni boshqarishning demokratlashib borishi, keng xalq ommasining davlat va jamiyatni boshqarishda erkin, ixtiyoriy ishtrok etishidadir.

Mahalla – aholini jipslashtrish va safarbar etish, jamiyatini taraqqiy ettirish, shuningdek, o'z hududida poklik, to'g'rilik, xolislik, beg'arazlikni qaror toptirish, jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashini kuchaytirishda ham oqil va zabardast kuchdir. Mahalla milliy urf-odat va an'analar, hashar va boshqa tadbirlarni amalga oshirish vositasi hamdur. Shuningdek, mahalla odamlar bir-birining issiq-sovug'idan, g'am-tashvishidan xabar topib turadigan eng tabarruk maskan.



.. ————— ❦ ————— ..

Mahallada istiqomat qilayotgan aholi ixtiyoriylik asosida fuqorolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantiradi va ularning rahbar xodimlarini saylaydi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faolitini tashkil qilish masalalari, ularni davlat boshqaruvi tizmidan ajratilgani, yuridik shaxs maqomiga ega ekani, o'z hududidagi masalalar bo'yicha mustaqil, erkin qarorlar qabul qilish huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida kafolatlangan. Shu boisdan ham mahallalar joylardagi o'zini o'zi boshqarish tizimining tayan-chi sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqoda va yangi mazmun bilan boyib bormoqda. U jamiyatimiz hayotining eng samarali, aynu paytda milliy va xalqchil ko'rinishidir. Prezidendimizning yuqorida zikr etilgan farmonida inson omilini yuksaltirish, erkinligi va aholi turmush tarzini izga solib turish-dan ularning kundalik muammolarini hal etish-da mahallalar faoliyatini kuchaytirish, ularga har tomonlama yordam berishni pastdan yuqorigacha muvofiqlashtiruvchi tizim sifatida shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.

Bugungi kunda mahalla joylarda davlat siyosatini keng xalq ommasiga yetkazuvchi, fuqarolarni istak va manfaatlarini ko'zlovchi, ularning siyosiy

ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy huquqlarini muhofaza qiluvchi, aholi-ni jamoat ishlariga ongli va faol qatnashishini ta'minlovchi kuchli jamoa sifatida shakllanmoqda. Shu maqsad



yo'lida mahallalar xalq ommasi umumiy salohiyatini ongli ravishda birlashtirish orqali o'z havfsizliklari ta'minlaydi, iqtisodiy farovonlikka erishish tadbirlarini ko'radi, oila, xotin-qizlar masalasiga oid muammolarni hal etadi va mahalla yoshlari tarbiyasida katta ahamiyatga egadir.

O'zini o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an'analarga tayangan holda ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Zotan, mahallalarda keksalarning pand-nasihatlari, kattalarning shaxsiy ibрати, jamoaning hamjihatligi misolida odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi.

Mahalla, avvalo, sog'lom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlari-ni adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi.

Mahalla keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy

ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun hamma imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlar kamol topishida mahallaning o'rne beqiyos. Masalan, agar biror mahallada o'sgan qiz haqida boshqa bir odam noo'rinroq gap aytganini o'sha qizning mahalladoshi eshitib qolsa, shu qizning sha'ni uchun kurashadi, uni oqlashga, begona odamni esa tartibga chaqirib qo'yishga harakat qiladi.



Shu ma'noda mahalla hamjihatlik, ornomus, birodarlik kabi fazilatlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mahalla doirasidagi amalga oshiriladigan mafkuraviy targ'ibot ishlari an'anaviy bayram va tadbirlar, ayniqsa, muhtoj oilalarga yordam ko'rsatish, iqtidorli yoshlarni

ragʻbatlantirish, ayollar nufuzini oshirish, har xil adolatsizlikning oldini olish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanish, “oila universiteti”da ota-onalar savodxonligi va turli avlod vakillari oʻrtasidagi munosabatlarni takomillash-tirish orqali oʻziga xos tarzda amalga oshiriladi.

Mahallada taʼsir vositalari sifatida tarbiyaviy, maʼnaviy, mafkuraviy koʻrgazmalar, turli ijtimoiy



kurslar tashkil etish, oilalarda psixologik xizmat-ni yoʻlga qoʻyish, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, otalar choyxonasidan, sport oʻyiningohlari, kutubxonalar, navroʻz, mustaqillik bayramlarini tashkil etish va boshqa bayramlarda qatnashish, yoshlar orasida sport oʻyinlarini tashkil etish, yoshlarni

tarbiyalash ishida keng foydalanish, matbuot orqali berilayotgan ma'lumotlarning psixolingvistik tahlilini amalga oshirish, ijtimoiy fikrning mahallalar bo'yicha monitoringini olib borishga ahamiyat berish lozim. Shunda mahalla, birinchi navbatda, fuqarolarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalashning haqiqiy ta'sirchan o'chog'iga aylanadi. Ikkiichidan, oilaga psixologik yordam ko'rsatish shaxobchalarining tashkil etilishi ham ijtimoiy uslublar vositasida oilalarda ro'y beradigan turli muammolarning yechimini topish imkonini beradi.



Ularning asosiy vazifalaridan biri ota-onalar va farzandlar uchun milliy mafkura ruhidagi tadbirlar va maslahatlar majmuini ishlab chiqishdan iboratdir.

Ma'fkuraviy tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan biri muloqot hisoblanadi. Chunki, inson qalbi va ongida shakllanadigan dunyoqarash, e'tiqod, iymon, vijdon, mas'uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radio, televideniye, gazeta-jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o'rnini e'tirof etgan holda, shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz fikr almashuv, insonning yuzi va ko'ziga qarab turib aytiladigan bama'ni so'z va hissiyotlarning o'rne beqiyos.



Shuning uchun ham ota-ona bolasining yuzini o'ziga qaratib olib, zarur yuz qiyofasi va ko'zidagi samimiyat bilan aytishi lozim bo'lgan fikrni uqtirishi, eng ibratli oila ota-onasi, olimlar, atoqli

.. ————— ❦ ————— ..

kishilar bilan uchrashuvlar, savol-javob kechalari o'tkazish ham lozim. Albatta, bunday muloqotlar samarali bo'ladi. Shu bois uch avlod vakillari o'rtasidagi muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida katta ahamiyatga ega.



Ma'rifiy axborot yozma yoki og'zaki tarzda yetkazilishi mumkin. Agar, birinchidan, gazeta-jurnallar, kitob va darsliklar yozma manbalarda mujassamlashtirilgan ma'lumotlar sifatida mahalla ahli ongiga kirsam, ikkinchisiga ma'ruza eshitish, bayonetish munozarasi va suhbatlar o'tkazish kiradi. Bundan tashqari, mafkuraviy g'oyalarni turli badiiy va hujjatli filmlar, bolalar yoki kattalar uchun multfilmlar orqali ham yetkazish mumkin.

Muhimi, ular xalq ma'naviyati, o'lmas mero-
simizga hurmat, kelajakka ishonch uyg'otuvchi
ma'no-mazmun bilan yo'g'rilgan bo'lishi kerak.

Ma'lumotlarning mazmundorligi va ta'sirchan-
ligi, ularning ommabopligi, ifoda etilgan g'oyalar-



ning sodda, ixcham va ravon bayon qilinishiga ko'p
narsa bog'liq. Tinglovchi har bir so'zni tu-
shunsagina, unda voqelikka teran munosabat
shakllanadi. Masalan, mahalladagi "Saran-
jom-sarishta uy darsxonasi" asosan uy bekalari,
qariyalar, ma'lum sabablar bilan nogiron bo'lib,
asosiy vaqtini uyda o'tkazadiganlar bilan olib bo-
riladigan mashg'ulotlarni ko'zda tutadi. Ular-
ni hayotiy videofilmlar, qiziqarli ko'rsatuv va

lavhalar o'ziga jalb qiladi. Shundan kelib chiqib, bunday insonlar uchun mafkuraviy axborot tayyorlanganda, ularning soddaligi, samimiyatga o'chligi va insoniy e'tiborga muhtojligini inobatga olib ish ko'rilsa, ta'sirli bo'ladi.

Har bir insonni hayotga keltiruvchi, uning ko'nglini munavvar etuvchi, faqatgina oilada emas, balki butun jamiyatga ham ahillik, totuvlik, mehr-oqibat bag'ishlovchi – bu ayol zotidir.

Milliy istiqlol g'oyasining amal qilish tamoyillari shaxs va oila bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston hayotida "shaxs-oila-maktab-mahalla" to'rtligi katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda oila – haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy-tarbiyaviy ishlar omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo, oila muhitida singadi.

Bu jarayon bobolar o'giti, oila ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi. Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon, e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ishga ishtiyoq va madaniyat ko'nikma-



lari shakllanadi. Zero har bir fuqaro oilaning jamiyatdagi o'рни va vazifasini, Vatanining ostonadan boshlanishni tushunmasdan turib, o'zini mukammal inson his qila olmaydi. Ota-onani qadrlash, ularning beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo'lish, duolarini olish bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biridir. Buyuk bobomiz hazrati Alisher Navoiy aytganlaridek, ota-onani hurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir.

“Bu ikkisiga xizimatingni birdek qil, xizimating qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odam roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turgan birini Oy deb bil, ikkinchisini Quyosh, ularning so'zlaridan tash-

qari bir narsa yozma, ular chizgan chizig'idan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatini sen odob bilan bajar".

Kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlari adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turiladi. Demak, insonning oilada shakllangan iymon-e'tiqodi, odob-oriyati va vijdoni, g'urur-if-tixori, aql-zakovati, tafakkuri mahalla muhitida yanada kuchayadi, xalq irodasi, o'zaro totuvlik va hamkorlik rishtalari bilan uyg'unlashib, jamiyatda sog'lom muloqotning shakllanishiga olib keladi.



Ta'lim bilan tarbiyani baravar olib borish, uyg'unlashtirish har doim va hamma davrlarda dolzarb masala bo'lib kelgan. Yuqori ilm egasi bo'la turib, tarbiya bo'lmasa, undan jamiyat naf ko'rmaydi, balki zarar ham ko'rish mumkin. Tarbiyali shaxsda

ilm bo'lmasa, u yaratuvchanlik ishlarini amalga oshirishga qodir bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiya bu insonlarda ijobiy hislatlarning tarkib topishiga xizmat qiluvchi eng taraqqiyparvar omil.



Inson, avvalo, oila bag'rida unib-o'sadi, shaxs sifatida shakllanadi. Oiladagi ta'lim-tarbiya, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar keyinchalik odamlar orasida mahalla-ko'yda, ta'lim muassasalarida sayqaltopadi. Shundayekan, Vatanimizvaxalqimizning ertangi kuni, jahon hamjamiyatidagi obro'e'tiborini belgilovchi barkamol avlodni voyaga yetkazishdek ulug' vazifani oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligisiz hal etib bo'lmaydi desak,

ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Hozir mamlakatimizdagi o'n mingga yaqin fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida «Oila-mahalla-ta'lim muassasasi» jamoatchilik kengashlari tashkil etilib, ular ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini kuchaytirish, o'quvchilarning darslarga qatnashishini o'rganish hamda pedagogik tarbiya bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bundan tashqari, maktabni tamomlagan o'quvchilar ta'limning keyingi bosqichiga to'liq qamrab olinmoqda, kollej bitiruvchilari esa ish bilan ta'minlanmoqda. Hukumatimiz tamonidan ishlab chiqilgan «Oila-mahalla-ta'lim muassasasi» hamkorligi konsepsiyasi bugun navqiron avlodni turli xil huquqbuzarliklar, ekstremizm, giyohvandlik, «ommaviy madaniyat» kabi illatlardan asrab-avaylash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, yoshlarni kasbga yo'naltirishning muhim omili bo'lmoqda.

Yoshlarning ta'lim-tarbiyasi haqida gap ketganda, mahallaning roli va ta'siri to'g'risida to'xtalmay ilojimiz yo'q. Bejiz «Mahalla ham ota, ham ona» deyilmagan. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar aynan mahalla muhitida rivojlangan. Bular esa yosh avlodning ong-u tafakkurini

shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Demak, farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasida mahallaning o'rnini hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Keyingi

paytlarda «om-maviy madaniyat» niqobi ostida butun dunyoga keng tarqalayotgan ma'naviy va axloqiy buzuvlik yoshlarimizning dunyoqarashiga ham jiddiy xavf solmoqda.



Axloqiy buzuvlik, zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm kabi yot va buzgunchi g'oyalar-ni Internet orqali yoshlar ongiga singdirishga urinish kuchayib bormoqda. Yigit-qizlarimizni ularning ta'siridan asrashimiz kerak. Shu bois mahallalarda bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni atroflicha tahlil qila oladigan mutaxassislarni jalb etgan holda yoshlar uchun o'quv soatlari tashkil etishimiz kerak. Toki bunday tadbirlar milliy manfaatlarimiz, hayot tarzimizga zid bo'lgan g'oya va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib bersin. Bu esa fuqarolarimizning qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash



asoslarini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, hozir muntazam ravishda mahalladagi ma'naviy muhit monitoringini yanada takomillashtirishga ehtiyoj sezilmoqda. Shu yo'l bilan notinch oilalardagi muhitni yaxshilash, farzandlar tarbiyasida ko'zga tashlanayotgan noxush holatlarning oldini olish mumkin.

Ko'pincha yigit-qizlarimizning muammo va orzu-istaklariga e'tibor bermaymiz. To'g'rirog'i, ularga faqat talab qo'yamiz-u, qiziqishlari bilan hisoblashmaymiz. Prezidentimiz ta'bi-ri bilan aytganda, har qaysi ota-ona, murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko'rishi zarur. Farzand tarbiyasiga ana shu oddiy talabdan kelib chiqib yondashsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu maqsadda yoshlar muam-molarini o'rganishga qaratilgan ijtimoiy tadqiqotlar, aniqrog'i, so'rovlar o'tkazishimiz kerak.



Mahallalar, ta'lim muassasalarida ibratli xonadon vakillari, urush va mehnat faxriylari, yozuvchi va shoirlar ishtirokidagi uchrashuv va davra suhbatlarini muntazam ravishda o'tkazib borish zarur. Ushbu tadbirlar qanchalik ko'paysa, ko'zlagan maqsadlarga tezroq yetishimiz mumkin.

Pirovard maqsadimiz komil insonni tarbiyalash ekan, oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligini yanada rivojlantirish nafaqat ushbu institutlar, balki jamoatchilik vakillari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligiga ham bog'liqligini aslo unutmasligimiz kerak.

Mahalla yirik jamoadir. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – mahallalarning mavqeini yuksaltirish, davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ushbu sohaga oid

qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun mahalla hayoti bilan bog'liq ko'plab qadriyat va an'analarimiz tiklanib, zamon talablari asosida boyitilmoqda. Mahallalar imkoniyati va vakolatlarining tobora kengayib borayotgani fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ahillik, hamjihatlik, osoyishtalik muhitini asrab-avaylash, oilalarni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasidagi o'рни va ahamiyati ortayotganida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda globallashtirish jarayonlari kechayotgan bugungi davrda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini samarali tashkil etish davr talabiga aylandi.

Mahalla tarbiya o'chog'idir. Farzand oilada dunyoga kelib, avvalo, ota-onasini tanisa, ulg'aygan sayin mahalladagi odamlarni taniy boshlaydi va yurish-turish, odob-axloq, jamiki ijobiy fazilatlarni mahalladan, aniqrog'i, ota-onalari, qo'ni-qo'shnilar, tabarruk otaxonlari, duogo'y onaxonlaridan o'rganadi. Shu nuqtai nazardan tahlil etilganda, "Oila – mahalla" tizimidagi ishlarni takomillashtirish, oila va mahallaga taalluqli boy va sarmazmun milliy an'analarni avaylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan

uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo'li bilan oilaning mustahkamligi, barqarorligini ta'minlash, oila a'zolarining huquqiy savodxonligiga erimuhim omilidir.

Ijtimoiy boshqarishning o'ziga xos shakli bo'lgan mahalla bir qancha madaniy-ma'naviy tadbirlarni amalga oshirish bilan birga, oilaviy urfodatlar, an'analar, oila turmushidagi quvonchli lahzalar hamda oilaviy hayot bilan bog'liq bo'lgan ahamiyatli voqealarni targ'ib qilishning ishonchli markazi sifatida ham namoyon bo'lmoqda.



Mahalla har bir oila, har bir shaxs bilan imkoniyat darajada ish olib borish uchun ma'naviy salohiyatga va huquqiy imkoniyatga ega maskan hisoblanadi. Mahallada kishilarni odob-axloqqa o'rgatish, ularga urfodatlar, turli qadriyatlarni singdirish, ilg'or udumlarni keng yoyish borasida ajo-yib an'analar qaror topgan. Oila kichik vatan bo'lsa, mahalla uning mustahkam tayanchi hisoblanadi. Oilalar farovon, obod bo'lsa,

.. ————— ————— —————
mahalla ko'rkiga ko'rk qo'shadi.

Mahallalar qanchalik obod bo'lsa, yurtimiz ham shunchalik obod bo'ladi. ya'ni bugungi kunning mahallasi, eng avvalo, sog'lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb atash ham mumkin.



Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud, ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarni

.. ————— ❦ ————— ..
kamol toptirishda mahallaning o'rne beqiyos.

Mahalla insonning hayotida, turmush tarzida, takdirida, eng muximi tarbiyasida asosiy rollardan birini o'ynovchi katta kuch. Zero inson hayotining bolalik va o'smirlik, shuningdek, keksalik yillari aynan mahallada o'tadi.



Bugundi kunda mahalla joylarda davlat siyosatini keng xalq ommasiga yetkazuvchi, fukarolarning istak va manfaatlarini ko'zlovchi, ularning siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy huquqlarini muhofaza qilish, aholining jamoat ishlariga ongli va faol qatnashishini ta'minlovchi kuchli jamoa sifatida shakllanmoqda.

Shu maqsad yoʻlida mahallalarda xalq omma-si umumiy salohiyatini ongli ravishda birlashti-rish orqali oʻz xavfsizligini taʼminlaydi, iqtisodiy farovonlikka erishish tadbirlarini koʻradi, yoshlar tarbiyasi, oila, xotin-qizlar masalasiga oid muam-mollarni hal etadi.



Keling! Shu oʻrinda “mahalla” soʻziga ham aniqlik kiritib olaylik. Xoʻsh mahalla oʻzi nima? “Mahalla” arabcha soʻz bulib joy, oʻrin, makon maʼnolarini anglatadi. Mahalla oʻzbek xalqin-ing kundalik ijtimoiy hayoti va turmush tarziini tashkil qilishda shakllangan va asrlar davomida takomillashtirib kelingan hayotiy aʼmoldir.

Oʻzini oʻzi boshqarishning milliy modeli boʻlgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va anʼanalariga tayangan holda ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Zotan, mahallalarda keksalar pand-nasihatlari, kattalarning shaxsiy ibрати, jamoa

hamjihatligi misolida odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi.



Mahalla, avvalo, soglom ijtimoiy muhitdir. Kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib tura-di. Shu ma'noda mahalla haqiqiy demokratiya darsxonasidir.

O'QUVCHI-YOSHLARNI TARBIYALASHDA MUSIQA MADANIYATI VA SA'NAT

Madaniyat murakkab va serqirra hodisa. Jahon xalqlari madaniyati tarixi, o'ziga xos xususiyatlari, milliy madaniyatlarning o'zaro ta'siri jarayonini har tomonlama obyektiv va ilmiy yoritish, ularga xos qonuniyatlarni chuqurroq tushunish, sodir bo'layotgan o'zgarishlarni optimallashtirishga yordam beradi.

Har bir fan o'z tadqiqot metodlariga ega. Mustaqillik sharoitida o'zbek madaniyati erishgan yutuqlar, madaniy hayotimizda sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish, ularning mamlakatimizning buyuk kelajagini ta'minlash va komil insonni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish kishilarda ertangi kunga ishonch tuyg'usini tarbiyalashga mustahkam zamin yaratadi.

Har bir davr oldingi davr yutuqlariga tayanadi. Shunday ekan, rivojlanish manbai yillar osha tobora keng ko'lam kasb etishiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Bu, o'z navbatida, madaniyatning yangidan-yangi qirralari shakllanishiga sharoit yaratishi tabiiy, albatta.



Go'dak hayotga qadam qo'yar ekan, avvalo, o'zini bevosita o'rab turgan kishilar ota-ona, aka-opalari yordamida to'plangan tajribani o'zlashtirib boradi. Keyinchalik bu doira kengayib borib, unga ta'lim tizimi, fan, adabiyot, san'at asarlari qo'shiladi. Inson endi ular yordamida o'tmishda to'plangan tajribani o'zlashtira boradi. Bu tajriba, bilim, unga har bir kuzatilayotgan hodisani his qilish, sinab ko'rish, tekshirish zaruriyatini yo'qqa chiqarib, oldin erishilgan natijalarni faoliyat dasturi sifatida qabul qilishga olib keladi.

Dastlab bilimlar, qadriyatlar og'zaki shaklda uzatilgan bo'lsa, yozuvning kashf qilinishi kitobat ishiga yo'l ochdi. So'ngra gazeta va jurnallar, bir oz keyinroq radio va televideniye paydo bo'ldi.

Bugungi kunda Internet tizimi jadal rivojlanib bormoqda. Shularni inobatga olgan holda farzandlarimizga ulardan to'g'ri foidalanish tartib-qoidalarini o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Farzandlarimiz bo'sh vaqtini unumli va mazmunli o'tkazish maqsadida har turli qiziqarli o'yinlar va foidali majg'ulotlarga o'rgatish lozim.



Madaniy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish usullari, shakllari ham uzluksiz takomillashib, qamrov doirasi kengayib bormoqda. Kundalik hayotda har xil omillar ta'sirida o'zimiz uchun yangi qadriyatlarga duch kelamiz. Ularga o'zimizda shakllangan madaniy qadriyatlardan kelib chiqib, ijobiy yoki salbiy, chiroyli yoki xunuk, adolatli yoki adolatsiz, deb baho beramiz. Bizga manzur yoki nomanzur bo'lgan jarayon, voqea-hodisalar, adabiyot, san'at, kino, musiqa asarlarini yaxshi yoki yomon hodisalar sifatida baholaymiz. Bunday paytda ayniqsa baholana yotgan hodisa o'zga madaniyatga tegishli bo'lsa, o'zimiz mansub bo'lgan madaniyat ruhimizga singdirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo'ladi va butun bo'y-basti bilan o'zligini namoyon qiladi.

O'tmish madaniy merosini millat ma'naviy dunyosining tarkibiy qismiga aylantirish, uni ijodiy o'zlashtirish, unga yangi mazmun va ma'no berish milliy-madaniy taraqqiyotning birtomoni xolos. Ushbu jarayonning ikkinchi, yanada ahamiyatli tomoni, madaniyatning yangilanishi, yangi, betakror va noyob hodisalarining paydo bo'lishi, umuminsoniy madaniyatning yangidan-yangi qatlamlarining o'zlashtirilishidir. Busiz madaniyat rivojlanishini ta'minlab bo'lmaydi.



San'at sohasida yangilanish yangi ifoda usullari, janrlarning kirib kelishi, ayni paytda, u yoki bu muayyan san'at asarlarining kishilar dunyoqarashi, ma'naviy dunyosining boyishiga ta'siri hamda ijodkorlarning ular ta'sirida yangicha mazmun bilan sug'orilgan san'at namunalarini yaratishdek serqirra jarayonlarni qamrab oladi.

„
Musika milliy qiyofani belgilab beradigan, in-
son qalbiga ezgu g'oyalar, beg'ubor tuyg'ular-
ni singdiradigan omillardan biri. Shu nuqtai
nazardan, xalqimiz qadimdan yuksak musiqiy
salohiyatga ega bo'lganini alohida qayd etish lozim.

Cholg'u ijrochiligida milliy musika cholg'ulari-
ning o'ziga xos o'rne bor. Musika cholg'ulari, cholg'u
ijrochiligi har bir davrda musika ilmining amaliy va
nazariy taraqqiyotiga asosiy manba hisoblanib, xalq
cholg'ulari har bir millatning milliy musika ijrochi-
ligiga mos ixtiro qilinadi.



Musika cholg'ulari ijrosida har bir millatning
musika ijrochiligiga xos milliy musiqiy sadolanish
qoidalari, milliy musiqiy ijro tuzilmalari, ijrochilik

maktablari, musiqiy holat, musiqiy asarlar, ijro bezaklari, mahorat va boshqa musiqa ijrochiligiga mansub masalalar namoyon bo'ladi. Chunki milliy musiqa cholg'ularida ko'proq har bir xalqning milliy musiqa merosiga oid musiqiy asarlari ijro etiladi va shu bois xalq cholg'ulari deb ataladi.

Har bir millatning musiqa merosi, milliy musiqa cholg'ularining ijrolaridagi sadolanishi bilan bir-biridan farq qiladi va ijro musiqiy asarlarni qaysi millatga mansubligidan darak beradi. Bizda cholg'u ijrochiligi yildan-yilga boyib, takomillashib, rivojlanib bormoqda. Keyingi yillarda cholg'u ijrochiligiga alohida e'tibor berilib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida kamida 2-3ta milliy musiqa cholg'ulari ijrosi o'rganilmoqda.



O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan yangilash, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur

sharoitlar yaratishga doir muhim masalalar belgilangan.

Shaxs axloqiy madaniyati shakllanishida tizimli va aniq maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaning o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Bunda har bir insonga individul yondashish hamda axloqiy madaniyatni kamol toptirishning muhim yo'nalishi hisoblangan o'z-o'zini tarbiyalashga alohida e'tibor talab qilinadi.

Chet elda paydo bo'lgan opera, balet, kino kabi madaniyat hodisalari ta'sirida o'zimizning betakror va o'ziga xos milliy opera, balet, kino, musiqa san'atimiz shakllandi. Ayni paytda bu sohalarda erishgan yutuqlarimiz, betakror san'at asarlarimiz va yetuk ijodkorlarimiz faoliyati qo'shni xalqlarda ushbu sohalar rivojiga u yoki bu tarzda ta'sir ko'rsatayotgani ham hech kimga sir emas. Demak, bir madaniyat doirasida shakllangan hodisalar boshqa madaniyatlarga singishi, milliy ruh bilan sug'orilgan holda o'z doirasidan tashqariga chiqishi, ya'ni yangidan binalminal mazmun kasb etishi mumkin.

Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonlarini to'g'ri tashkil etish – o'ta muhim ijtimoiy masaladir. To'g'ri va to'laqonli tarbiya topgan hamda kuchli bilim va kasb-hunar sohiblari jamiyatning rivojlatiruvchi kuchi hisoblanadi. Yoshlarning umuminsoniy va milliy qadriyatlar negizidagi dunyoqarashi ilmiy va

dunyoviy bilimlar bilan uyg'unlashtirilganda ko'zlangan maqsadga erishiladi.



Yoshlar iste'dodini har tomonlama kamol top-tirish, musiqa san'ati rivoji asosida tarbiya uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, boshlang'ich musiqa ta'limi, bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini tubdan takomillashtirish ishlari-ni yangi, yanada yuksak pog'onaga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratilmoqda. Keyingi yillarda yurtimiz shahar va qishloqlarida har jihat-dan e'tiborga sazovor ibratli an'ana yuzaga keldi.

Bayramlar, tantanalar, tadbirlarda musiqa va san'at maktablari tarbiyalanuvchilarining ijodiy ishlari ko'rgazmalari, yosh iste'dodlarning chiqish-lari barchaga quvonch ulashmoqda. Bu maktablar xuddi san'at chashmalari kabi, avvalo, o'z hudud-idagi ota-onalar, tengdoshlarining ma'naviy ehtiy-ojlarini qondirishga xizmat qilayotgani yoshlar tar-

biyasiga ta'sirchan vosita sifatida xizmat qilmoqda.



Inson zoti borki, uning har birida o'ziga xos iste'dod va iqtidor bo'ladi. Insonning yaratuvchilik va buzg'unchilikdek qarama-qarshi va ziddiyatli faoliyatini nazorat qilish, tartibga tushirish uchun uzoq yillar davomida ko'plab chora-tadbirlar o'ylab topilishi va amaliyotda sinab ko'rilishi samarali natija berishi muqarrardir. Bugungi kunda yoshlarimiz o'quv dargohlarida radio-televideniye, matbuot, Internet kabi vositalar orqali rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishimiz zarur.

Mustaqillik yillarida ulug' bobolarimizning

an'analarini davom ettirgan holda mamlakatimizda musiqa madaniyati va tarbiyasini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Kelajagi buyuk davlatni qurish uchun, eng avvalo, ma'naviy kamol topgan insonlarni tarbiyalash muhim vazifadir. Buning uchun tarbiyaga ta'sir etuvchi barcha shakl, usul va vositalaridan samarali, unumli foydalanish birlamchi galdagi vazifa bo'lmog'i lozim.

Yoshlar va yosh tomoshabinlarga xizmat ko'rsatuvchi maxsus teatrlarning jamiyatimiz uchun zarur ekanini davrning o'zi ko'rsatib turibdi. O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi, uning ajdodlar qoldirgan ma'naviy qadriyatlar asosida kamol topishi, iymonli-e'tiqodli, jismonan chiniqqan barkamol avlod bo'lishiga alohida g'amho'rlik ko'rsatilayotgan bir sharoitda ushbu teatrning o'rne o'n chandon oshib ketdi. Endi eski qoliplarda ijod qilib bo'lmasligi ayon bo'lib qoldi.

Bugungi o'quv amaliyoti tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, o'qituvchilar tomonidan bolalarning potensial qobiliyatlari, ularning yashirin iste'dodini teatr san'ati orqali aniqlashga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Inson san'atsiz yashay olmaydi. San'atga ilk yoshlik chog'imizdanoq intilamiz. Sababi - insonning

hayotga qo'ya boshlagan ilk qadamlari san'at bilan uzviy bog'liqligidir. Ona allasi. Uning birinchi mu-



loyim so'zlari, tabassumidagi qalb mehri, insoniy muhabbatning kuchi, barchasi birgina allada mujassamlashgandir. Darhaqiqat, alla xalq she'riyati va musiqasi uyg'unlashgan san'at turidir.

Bolalikda yoshlarni sirk, mutfilmlar, ertaklar, sarguzashtlar, yumoristik teatr sahna

asarlari qiziqtiradi. O'smir yoshdagilar esa harbiy sarguzashatlar, detektiv, ya'ni maxfiy agentlar hayotiga oid, ilmiy fantastik, birinchi muhabbat haqidagi asarlarni qiziqib, ishtiyoq bilan o'qiydi. 14-15 yoshga qadam qo'yganda esa yoshlarning san'atga bo'lgan intilishi rang-barang ma'no kasb eta boshlaydi.





Bolalar goʻzallik, oʻyinlar, ertaklar, muzika, rasmlar, hayolot, ijod olamida yashashi kerak. Biz bolaga yozishni oʻrgatishni xohlaganimizda ham u ana shu olam qurshovida boʻlishi kerak. Darhaqiqat, bilim shotisining birinchi pogʻonasiga koʻtarila turib, bola oʻzini qanday sezadi, qanchalik hayajonlandi – bilim sari bundan keyin boriladigan butun yoʻl shunga bogʻliq boʻladi, – degan edi V.Suxomlinskiy.

Yoshlar zamonaviy ritmik musiqalarga boʻlgan ishtiyoqni tark etmagan holda oʻzlari uchun klassik musiqa dunyosini kashf etishga harakat qiladi. Sarguzasht – detektiv asarlarni eʼtibordan chetda qoldirmagan holda oʻsmirlar jahon badiiy adabiyotining bebaho, klassik asarlari, yaʼni Navoiy, Firdavsiy, Shekspir, Balzak, Tagor kabi allomalarining ijodiy olamiga asta-sekin kirib boradi.



Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi

Yoshlar Abdulla Qodiriy qahramonlarining kechinmalari, o'y-fikrlari orqali olis tarixni idrok etadi, vatanparvarlik, adolat, haqiqiat, mardlik, muhabbat, vafo, el-yurtga sadoqat kabi tushunchalar mohiyatini anglagan holda unga yuzma-yuz bo'ldi. O'smirlar ilmiy fantastikaga ishtiyoqlaridan xoli bo'lmagan holda epik romanlar, rang-barang ruhiy kechinmalarga boy kino asarlari, haykaltaroshlik, monumental va amaliy san'atni anglash, uning mohiyatini sharhlashga intiladi.

Bu hayotiy reallikning guvohi bo'lgan holda "Insonning san'atga bu qadar talpinishining sababi nimada?" degan savolga biroz o'ylanib:

voqelikni bilish, uni chuqur falsafiy idrok etishga bo'lgan chanqoqlik, deb aytish mumkin.

Olamni badiiy-estetik bilishga qiziqish bu inson-



ning tantiqligi bo'lmay, balki ayni hayotiy zaruriyatdir. Odamlarning madaniy hayot tub mohiyatini anglamasdan bugungi zamon kishilik jamiyatida yashashining chorasi yo'q. Chunki ilmiy-badiiy mushohadasiz tevarakdagi kishilarning o'ylarini tushunmaymiz, fan-texnika, madaniyat yutuqlarini o'zlashtira olmaymiz, ijtimoiy, tarixiy voqea-hodisalar mazmunini anglashga ojizlik qilamiz. Shu sababli insoniyat san'at xazinasidagi jamiki boyliklarni egallashga talpinishi tabiiydir.



Haqiqatan, badiiy madaniyat jamiyatda katta ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni hal etishga yordam beradi. Badiiy tarbiya bugungi kunda umumjamiyat darajasidagi dolzarb va muhim vazifadandir. Chinakam badiiy tarbiya jamiyat bilan maktabning vazifasi, oila esa bu sohada ikkilamchi o'rinda tura-di, deb o'ylaydigan ota-onalar katta xato qiladilar.

Bolaning ovqatiga, kiyimiga, o'yiniga ko'p e'tibor beradigan va ayni vaqtda, bola maktabga borguncha ko'p e'tibor beradigan va ayni vaqtda, bola maktabga borguncha o'ynab olsin, kuchga to'lsin, sog'lom o'ssin, madaniyatni esa maktabga borganda o'rganar, deb o'ylaydigan oilalar ham bo'ladi.

AQSH olimlari axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirishning asosiy maqsadlaridan biri shaxs va muhitning emotsional ta'sir darajasini boyitish, deb hisoblaydi. Emotsional muvozanat g'oyasining izchil bayon etilishi "san'at orqali terapiya" konsepsiyaga asoslanadi. Jumladan, J.Piaje tadqiqotlarining markaziy obyekti sifatida bola intellektini rivojlantirish alohida o'rin egallaydi. Shu sababli olim tomonidan jamiyatning axloqiy-estetik ongi mazmun-mohiyatini o'zlashtirish me'yori sifatida bolaning axloqiy tasavvurlari genezisi alohida tahlil etilgan.

Ahloqiy-estetik ongning rivojlanish bosqichlari intellektning namoyon bo'lish darajalari bilan uyg'un kechadi. Shuningdek, bolaning axloqiy-estetik shakllanishini izohlashda insonparvarlik psixologiyasi namoyondalarining hissasini alohida e'tirof etish lozim. Mazkur yo'nalish namoyondalari (K. Rodjers, A.Maslou, V.Frankl, R.Mey) ijodiy salohiyotini amalga oshirishga tug'ma qobiliyatiga ega

individd o'zining axloqiy-estetik rivojlanishini mustaqil belgilay olishini alohida e'tirof etgan. Adabiyotlar tahlili va amaliyotdagi mavjud ehtiyojlarni o'rganish asosida qo'g'irchoq teatri vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy-estetik tarbiyasining o'zaro uyg'unligini ta'minlashning metodik shart-sharoitlarini aniqlashtirish va ana shu asosda yaxlit tarbiya jarayonining mazkur jihatlari samaradorligini oshirish mumkin. Axloqiy-estetik tarbiyaning dolzarb muammolariga doir turli fan sohalarida ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot mavzusi bilan bog'liq masalalar o'z yechimini to'liq topmaganini alohida ta'kidlash lozim.



OILA MUQADDAS

Yoshlar – jamiyat va davlat rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omil, hal qiluvchi kuchdir. Shunday ekan, yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizdir.

Ma'lumki, yoshlarimizni barkamol avlod qilib tarbiyalash borasida barcha tarbiya maskanlari ichida oila muhim rol o'ynaydi. Oila bu har qanday jamiyat va davlatni kelajagi, ravnaqi va taraqqiyotini, bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuch bo'lgan yosh avlodni yetishtirib berish va tarbiyalashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib olgan muqaddas makondir.

Alohida ta'kidlash kerakki, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash nafaqat oila, balki barcha ta'lim-tarbiya maskanlari oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.



Insonda bolalikdan boshlab, oilada shakllanadigan insoniy fazilatlar, shaxsga xos ijobiy sifatlar, yuksak ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar, sog'lom e'tiqodlar, dunyoqarashlar tarkib topadi. Bu o'rinda oilada sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirish o'ta muhimdir. Oilada sog'lom muhitning saqlanishi ko'p omillarga bog'liq, bular oila boshliqlari bilan bolalarning o'zaro yaxshi munosabati, xonadon kattalariga hurmat-e'tibor, oiladagi bolalarning o'zaro munosabatlari, to'g'ri tarbiyalangani, ota-onalarning farzandlar tarbiyasiga barobar jonkuyarlighi, oilada o'rnatilgan to'g'ri tartib, yaxshi ota-onaning mehnati, ijtimoiy hayot voqealariga, hodisalariga to'g'ri munosabati, hurfiylikligida aks etadi.



Farzand tarbiyasida sharq oilalarida o'ziga xos an'ana va me'yorlar mavjudki, ular asrdan asrga, avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Asosiy g'oya yoshlarni ota-onaga hurmat va e'zozda bo'lish, yon atrofdagilarga shirinso'zlik va mehr-muhabbat bilan muomala qilish, xushfe'l bo'lish, kasb-hunar o'rganishga undaydi. Bunda ota-onalarga qarata "Farzandga odob, hunar o'rgatmoq meros deb bilgin. Katta bo'lgan sayin jismi va ruhi

quvvat topar va barcha ruhi (fe'l-atvori) rivojlanadi, kamolg'a yetg'ondan so'ng tamomi yaxshilik va yomonlig'ini zohir qilur. Lekin sen adab, hunar va donishni farzandinga o'zingdin meros qilg'il, toki uning haqqin bajo kelturmush bo'lg'aysan", - deydi.

Mutafakkir ota-ona haqqini bilmak zikrida g'oyat muhim bir fikrni bayon etadi: "Nima eksang, shuni o'rasan" degan maqolni ishlatib, oilada bola tarbiyasini ana shu maqol asosida qurilsa, mos ish tutilgan bo'ladi, deb hisoblaydi. Har qanday davrda ham oilada, jamiyatda farzand tarbiyasi alohida dolzarblik kasb etgan.

Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oilaning sog'lom muhiti va unda amalga oshiriladigan bir qancha milliy xususiyatlar-an'analar, urf-odatlar, xalqning ruhiy holati va turmush tarzini anglash muhimdir. Qiz bolani hayotga tayyorlashda uning aql-idroki, xushyorligi, epchilligi, odobliligi, uning hayoli iboligiga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Shuningdek, qizlarning tabiatiga xos bo'lgan pokizalik, muloyimlik, nafislik, sabrtaqat, pazandalik kabi xislatlar qizlar chiroyiga chiroy qo'shadi. Shu o'rinda buyuk mutafakkirimiz Abu Ali ibn Sinoning quyidagi

fikrlarinikeltirish o'rinlidir: "Insonda doim turadigan husn va latofat hayo ila iffatdir, hayosiz yuz jonsiz jasad kabidir".

Oila tarbiyasida ishonch metodi, namuna metodi, rag'batlantirish metodi kabi usullar mavjud bo'lib, ular bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tashkil etiladi. Albatta, oiladagi ma'naviy muhit bola dunyoqarashi, bilimining kengayishi, tafakkurining yuksalishida alohida o'rin tutadigan kitob mutolaasi bilan ham bog'liq. Shuning uchun har bir ota-ona bolada kitobga mehr uyg'otishi, uning bu boradagi qiziqishini rag'batlantirishi lozim.



.. ————— ❦ ————— ..

O‘z sha’ni, g‘ururini himoya qilish, g‘amho‘rlik, katta va kichiklarni hurmat qilish, mehr-muruvvat ko‘rsatish, ahillik va inoqlik, tinchlikni saqlash kabi tarbiya vositalari orqali tarbiyalangan yosh avlodning g‘oyaviy immuniteti mustahkam bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “...yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”.

“Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, – deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Zero o‘z xalqi, uning a‘analari, tili va ma’naviyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o‘z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas. Barkamol shaxs hamisha o‘z Vatanini rivojlantiradi, uning ravnaqi yo‘lida umrini baxshida etishni o‘z burchi deb biladi. Shuning uchun har bir oila, o‘quv muassasasi va mahalla, eng avvalo, sog‘lom barkamol avlodning istiqboli, mamlakat kelajagi bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirishi davr talabi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni belgilash mumkin:

- oilada ijtimoiy-ma'naviy sog'lom muhitni shakllantirish;
- oilaviy qadriyatlarni farzandlar tafakkuriga singdirish uchun bugungi kun talablarini nazarda tutgan holda oilaviy tarbiya dasturini yaratish;



- yosh ota-onalarning farzandlar tarbiyasini olib borishga g'oyaviy va uslubiy jihatdan yordam berishni takomillashtirish;
- oiladagi tarbiyaning milliy va umuminsoniy yutuqlarini umumlashtirish;
- beshinchidan, oila kutubxonasini tashkil etishni keng yo'lga qo'yish;
- oila-mahalla-ta'lim tizimi o'rtasida aloqani yanada mustahkamlash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- oila tarbiyasida bolaga Vatanga mehr

g'oyasini singdirish, unda millat va xalq o'tmishi, uning qadriyatlari, ma'naviy va moddiy me'rosiga hurmat-ehtirom hissini uyg'otish, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish;



- ta'lim tizimlari qoshida "Oila instituti" ni tashkil etib, ota-onalar uchun ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liq suhbatlar, treninglar, seminarlar uyushtirish;
- tarbiya borasidagi ko'rsatmalarni ommabop risolalar, bukletlar, ilmiy ommabop maqolalar orqali targ'ib qilish.

Muxtasar aytganda, hammamizga ayonki, oila sog'lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir.

Azaldan jamiyat va turli diniy ta'limotlarda oila muqaddas sanalib, oilaviy munosabatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Oila qurish Islomdan oldin ham bo'lgan, lekin oilada urning va ayolning huquqlari

va mas'uliyatlarini tom ma'noda Islom dini ko'rsatib berdi. Ayol nomini ulug'lash, uning sha'ni-ni ko'tarish, xotinqizlarning huquqini belgilash-da faqat Islom ummatigagina emas, balki kishilik jamiyatiga ibrat va namuna bo'lishi kerakdir.

Istiqloldan keyin ayol qadri va sha'ni tiklandi. Ayollar jamiyatda o'z o'rne, mavqei va so'ziga ega bo'ldi. Bu asosiy qonun – Konstitutsiyamizda kafolatlab qo'yildi.



Asosiy qonunimizda bunday deyiladi: “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega” (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 14-bob, 63-modda).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 1-iyulda qabul qilingan “2009-2013-yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ish-

larni yanada kuchaytirish choratadbirlari dasturi to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 13-apreldagi "Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori hayot uchun, kelajak avlod uchun nechog'li zarur ekani o'z tasdig'ini topdi.

Muqaddas dinimiz ta'limotida farzand insonga bergan eng ulug' ne'matlardan bo'lishi barobarida, u omonat hamdir. Bu buyuk ne'matga sazovor bo'lgan otaonalar uning qadriga yetishlari, shukrlar aytib, farzand oldidagi otaonalik burchlarini puxta ado etishlari, ya'ni unga chiroyli ism qo'yishlari, yaxshi ta'lim tarbiya berishlari va oxir oqibatda Alloh roziligini topadigan, millati, Vatani, otaonasiga munosib o'g'ilqiz, tengdoshlari hurmati va muhabbatini qozongan yetuk bir inson bo'lishi borasidagi mas'uliyatli vazifalarini chin ixlos va sadoqat bilan ado etishlari lozim bo'ladi.

Islom ta'limoti kishilik jamiyatida o'z o'rnini topib, uning dunyoviy va diniy hayotida amaliy tatbiqini topgan ilk saodat asridan boshlab yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib keladi. Bu ta'limot va uning yo'l yo'riqlari jamiyat asosi, ummat istiqboli sanalgan yoshlarning har to monlama komil inson bo'lib yetishishlarini ta'minlaydi.

“Kishining o‘z farzandini chiroyli odob axloq bilan tarbiyalashi ko‘p miqdordagi nafl sadaqa berishidan yaxshiroqdir” (Hadis. Termiziy rivoyati).

“Ota bolaga go‘zal odobdan yaxshiroq narsani bera olmaydi” (Hadis. Termiziy rivoyati).

Buyuk hamyurtimiz Abu Ali ibn Sino farzand tarbiyasi haqida vasiyat qilib, bunday degan edi: “Yosh bola ta’limtarbiya oladigan joyda odob-axloqli, turishturmushi namunalı bolalar bo‘lishi lozim. Zero yosh bola har bir narsani ularga taqlid qilib o‘rganadi va ular bilan do‘st bo‘ladi”.

Muhtaram Prezidentimiz nutqlaridan birida farzandlar tarbiyasi va ularning barkamol avlod bo‘lib yetishishida odob-axloqning o‘rni katta ekanini ta’kidlab, jumladan, bunday dedilar: “Yoshlarimizga bugunning o‘zida alohida e‘tibor qaratishimiz lozim. Ular nafaqat ishonchimiz va kelajagimiz, yoshlar bugungi va ertangi kuni-mizning hal qiluvchi kuchidir. Ya’ni ertangi kun kutganimizdek bo‘lishi uchun bugunning o‘zida yoshlar tarbiyasiga jiddiy e‘tibor qaratishimiz zarur”.

Mamlakatimiz o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlab, bolalar va o‘smirlarning jismonan sog‘lom-u baquvvat, ruhan va ma‘nan yetuk inson bo‘lib ulg‘ayishlariga katta e‘tibor qaratilayotgani hammamizga ma‘lum.

Mamlakatimizda 2005-yil – Onalar va bolalar yili, 2008-yil – Yoshlar yili, 2010-yil – Barkamol avlod yili deb e’lon qilindi va ularga taalluqan ishlab chiqilgan Davlat dasturlari doirasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi.

2011-yil – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili;



2012-yil – Mustahkam oila yili;



2013 yil – Obod turmush yili;



2014-yil – Sogʻlom bola yili;



2015-yil – Keksalarni
eʼzozlash yili;



2016-yil – Sog'lom ona
va bola yili;



2017-yil – Xalq bilan
muloqot va inson man-
faatlari yili;



2018-yil – Faol tad-
birkorlik, innovatsion
g'oyalar va tehnologi-
yalarni qo'llab-quv-
vatlash yili;



2019-yil – Faol investit-
siyalar va ijtimoiy rivo-
jlanish yili;

2020-yil – Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili;



2021-yil – Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili;



2022-yil – "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili;



2023-yil – Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili;



2024-yil – Yoshlar va biznesni qo'llab-
quvvatlash yili



joriy 2025-yil – Atrof-muhitni asrash
va yashil iqtisodiyot yili deb e'lon
qilindi.



Mamlakatimizning barcha hududlarida bolalarning, ayniqsa, o'smirlarning sog'lom o'sib-ulg'ayishi, ilm olishi, kasbhunar egallashi uchun katta e'tibor qaratilayotgani hammamizga ma'lum. Bu borada jamoat tashkilotlarining ham o'рни kattadir. Oila, mahalla, maktab bolalar tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Farzandlarimizni chiroyli odob axloq, yaxshi ta'limtarbiyali insonlar

qilib voyaga yetkazish davlat miqyosidagi dolzarb masala ekanini har birimiz yaxshi tushunamiz.

Mustaqil davlatimizda 2010-yil – Barkamol avlod yili deb atalishida chuqur ramziy ma’no bor. El-u yurt kelajagi bo’lgan yosh avlod har jihatdan barkamol bo’lishi lozim.



O‘zbekistonda 2011-yilda jahonda sakkizinchi bo’lib mamlakatimizda harakati yo’lga qo’yilgan zamonaviy tezyurar poyezdda dastlab nuroniy otaxonu onaxonlar, keksalar, mehnat faxriylarining dillarini xushnud etish va duolarini olish maqsadida Samarqandga ziyorat safari uyushtirilgan edi, hozir esa Nukus va Urganchga ham xalqimiz shu poyezdlarda sayohat qilmoqda.



103

da ba'zi yoshlarda keksalarni hurmat qilmaslik holatlari uchramoqda. Afsus, ba'zi g'or yoshlar nazarida qariyalar dardisardek, ortiqchadek tuyuladi. Biror davraga kirgan otaxonni yoki avtobusga chiqqan qariyani ko'rgan nodon yoshlar "uff" tortishadi. "Qariganida uyida jimgina o'tirsa bo'lmas-mikana?" deya xato o'ylashadi. Hayotning achchiq va shirin tomonlari bor.



Qariyalar e'tibor, mehrmuruvvat va shafqatga muhtoj bo'lishadi. Bunday insonlarga e'tiborli bo'lmoq lozim. Chunki ularning umri mehnat bilan o'tgan, endi keksalik bois ishga yaramay, xastalanib, kuchquvvatdan qolganlar. Jamiyat va ona Vatan ravnaqi uchun hissa qo'shgan, oilani oyoqqa turg'azgan, o'g'ilqizlar o'stirib, yedirib ichirgan, oilam, bolamchaqam deb, yelib yugurganlar ham shular. Milliy tarbiya – bu yosh avlodni muayyan millatning mentaliteti, turmush tarzi va hayotiy tajribasidan o'tgan g'oyalarga

asosan voyaga yetkazish jarayonidir. Bunda muayyan millatning hayoti davomida amal qilib kelinayotgan milliy qadriyatlar tizimiga asoslaniladi.

Milliy tarbiyaning negizini milliy g'oya tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasida ta'kidlanganidek, milliy g'oya – bu biror millat hayotiga mazmun bahsh etadigan va uni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir; u millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini va maqsadlarini ifodalaydi. Shu jihatdan o'zbek millati o'zining asrlar davomida shakllangan milliy g'oyasi va unga tayangan milliy tarbiya tajribasiga ega.

Milliy tarbiya umumpedagogika qonuniyatlari asoslangan quyidagi omillarga tayanadi:

- tarbiyaning maqbul va samarali metodlari;
- tarbiyaning tajribadan o'tgan va zamonaviy texnologiyalari;
- tarbiyaning individual uslublari.

Bunday yondashuv milliy tarbiyani boshqa tarbiya turlaridan farqlab turadi. Ta'kidlash lozimki, milliy tarbiyada quyidagi tamoyillar ustuvor hisoblanadi:

- imkon qadar pedagogik jazo turlaridan chekinish;

- 
- 
- tarbiyalanganlik darajasini rag'batlantirish;
 - tarbiya jarayonini jamoaviy amalga oshirish;
 - tarbiyaga oid eng so'nggi yutuqlarga tayanish.

Bu tamoyillar milliy tarbiyani kutilgan darajada amalga oshirish imkonini beradi. Bularning barchasi milliy tarbiyaning o'ziga xos mazmun va mohiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'limdagi milliy tarbiya jarayoni umumiy milliy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyani tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlabki bosqichdammilliy tarbiya berish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy ruhi, milliy ongi va milliy axloqini milliy g'oyaning Insonparvarlik, Ezgulik hamda Bunyodkorlik g'oyalari asosida shakllantirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini dastlabki bosqichda milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini keyingi bosqichda amalga oshiriladigan milliy tarbiya jarayoniga tayyorlash.

Mazkur xususiyatlar boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning asoslari negizini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir" kitobida milliy g'oyaga asoslangan milliy tarbiyaning quyidagi asoslarini ta'kidlab ko'rsatadi:

- 1) fikr tarbiyasi;
- 2) milliy qadriyatlar tarbiyasi;
- 3) umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi.

Bu metodologiya boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyani amalga oshirish asoslarini tashkil etadi. Unga ko'ra, milliy tarbiya quyidagi asoslarda amalga oshiriladi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, bunda milliy g'oyamizning Ezgulik g'oyasi va uning ezgu niyat, ezgu fikr hamda ezgu amal tamoyillariga asoslaniladi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida voyaga yetkazish, unda milliy g'oyamizning Insonparvarlik g'oyasi va uning insonni qadrlash, insonni tushunish hamda insonga yordam berish tamoyillariga tayaniladi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida rivojlantirish, bunda milliy g'oyamizning Bunyodkorlik g'oyasi va uning mehnatsevarlik, tashabbuskorlik hamda bag'rikenglik tamoyillariga suyaniladi.



E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning o'ziga xos asoslari mavjud. Milliy g'oyaga asoslangan boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirish bir necha muhitlarga tayanadi. Bunday muhitning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- 1) mikro muhit (ta'lim maskani va oila);
- 2) mezo muhit (turli to'garaklar va mahalla);
- 3) makro muhit (o'quvchilarning yirik guruhlar va jamoatchilik joylari).

Usmonxon Alimov (2006-2021-yillarda O'zbekiston musulmonlar idorasi muftiyi): ko'pdan

beri oilada farzand tarbiyasi to'g'risida asar yozishni dilimga tugib yurar edim. Chunki jamiyatning negizi bo'lmish oila, farzand tarbiyasi to'g'risida davralarda turli savollar berishadi. Shu savollarga javob berish asnosida ularni yon daftarimga ham qayd qilib borar edim. Odatimga muvofiq yon daftarimni varaqlab ko'rsam, kitobga mavzu bo'ladigan anchamuncha ma'lumotlar yig'ilib qolibdi. Alloh inoyati bilan, shular asosida «Oilada farzand tarbiyasi» nomli uch jilddan iborat kitoblar yozildi. Ular bilan yaqindan tanishib chiqqan o'quvchilarning fikr va takliflarini hisobga olib, yana muhimi, farzand tarbiyasining turli jihatlarini qamrab olish niyatida bir birining izchil davomi bo'lgan bu kitoblarni jamlab nashr etishni lozim ko'rdik. U.Alimovning ushbu kitobida jamiyatning eng muhim bo'lagi hisoblangan oila, oila mustahkamligi nikoh vositasida yuzaga keliishi, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz orasida rioya qilinib kelinayotgan shar'iy nikoh asli umuminsoniy qadriyatlar asosida oilani



mustahkamlashga qaratilgani, buning natijasida oilada barqarorlik va sog'lom turmush tarzi hukm surishi, bu esa o'z navbatida, jamiyat va davlat taraqqiyotining asosi ekaniga asosiy e'tibor qaratilgan. Shuningdek, nozik tarbiya hisoblangan axloqiy tavsiyalarni o'smirlarga o'z vaqtida berish kerakligi, aks holda farzand bu kabi masalalarni noto'g'ri yo'llar orqali o'rganib, o'ziga va boshqalarga zarar yetkazishi haqida zarur ma'lumotlar keltirilgan.

Hozirgi paytda dunyodagi mustamlakachi kuchlar ma'naviy bo'shliqdan foydalanib, yurtimiz yoshlari ongiga ma'naviyatimiz va axloqimizga butunlay yot bo'lgan eng xatarli illatlarni, "ommaviy madaniyat"ni singdirishi, agar oldi olinmasa, katta fitnalarga sabab bo'lishi aniq. Yoshlarni xudbin va loqayd kimsalarga aylantirish, axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlikni targ'ib qilish, bir jinslilar nikohi, giyohvandlik, buzuvchilik, nima qilib bo'lsa ham, qanday yo'l bilan bo'lsa ham faqat boylik orttirishga intilish, oilani tan olmaslik, ko'ngil istagan ishlarni qilish orqali "erkin bo'lish" kabi zararli illatlarni yoyishni asosiy maqsad qilib olgan bu jirkanch "madaniyat" jamiyat ma'naviy hayotini izdan chiqaradi, yoshlar axloqiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan bir asr muqaddam atoqli ma'rifatparvar olim Abdurauf Fitrat: "Kim badaxloq bolalarni tar-

biya etsa, insoniyatga katta dushmanlik qilgan bo'лади", - degan edi. Bugun insoniyat g'oyaviy urushlar, ma'naviy ziddiyatlar, zo'ravon g'oyalarning dunyoni qayta taqsimlashga qaratilgan o'yinlari avj olgan shiddatli zamonda yashayapti.

Hozir zulm, istibdod va buzg'unchilik, axloqsizlik va ma'naviy inqirozlar har qachongidan ham xatarli tus olmoqda.

Yoshlari-miz bunday sharoitlarda hamisha xushyor va ogoh bo'lishi, do'st kim, dushman kimligini yaxshi ajrata olishi, g'animlar fitnasiga uchmasligi,



yovuz kuchlar qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib, yurtdoshlari hayotiga zomin bo'lmasliklari zarur. Chunki har bir fitna va fasod ish ortida g'arazli maqsadlar, manfaatdor kuchlar turganini bir lahza ham unutishga haqimiz yo'q. Ushbu kitobda ana shunday g'alamislarning kirdikorlari va ularga qarshi kurash vositalari ham bayon qilingan.

Ezgu niyat bilan boshlangan harakatimiz yurtimiz yoshlarini oqil-u barkamol etib tarbiyalashda

manfaatli bo'lishini so'rab qolamiz.

Ushbu kitobni o'qib, ma'nan bir foyda ko'rsangiz, farzandlarimizni tarbiyalashda yaxshi niyatda kushgan hissamiz deb bilurmiz.

Islom ta'limotiga ko'ra, oila Yaratganning rozi-ligini topish, islomiy odob bilan ziynatlanish va pok yo'l bilan insoniyat naslini davom ettirish maqsa-dida quriladi. Shuning uchun dinimiz oilani nikoh asosida qurishga alohida ahamiyat beradi va nikoh-ni insoniy aloqalarning eng muhimi sifatida yuksak qadrlaydi. Zero oila katta jamiyatning kichik bir bo'lagi hisoblanadi. Jamiyat yomonlik va buzg'un-chilikning barcha turlaridan xoli tinch va obod bo'li-shi, avvalo, ushbu kichik jamiyatning tinchligiga bog'liq. Oila tinchlik xotirjamligi va saodatini ta'min-lash oiladagi har bir shaxsning o'z mas'uliyatini his qilishi va bajarishi bilan barqaror bo'ladi. Bunday mas'uliyatni esa, er va xotin o'rtasini bog'lab turuvchi nikohgina joriy qilishi va mustahkamlashi mumkin.

Demak, kishi oila qurishni paysalga solmay, uni nikoh asosida amalga oshirishi lozim. Nikoh tufayli inson o'z naslnasabining pokligini saqlaydi, iffatini asraydi.

«Nikoh» so'zi lug'atda «yaqinlik», «bog'lanish» ma'nolarini anglatadi. Nikoh ahdi (bitimi) bitim-larning eng yaxshisidir. Shar'iy istilohda esa, aqd

qilishlariga shar'iy to'siq bo'lmagan ayol bilan erkakning bir birlaridan lazzat olishlarini halol yo'lga soluvchi bitimdir.

Har bir inson oila kurishi zarur bulib, oilaviy ma'suliyatlarni ado eta olishiga kura uylanishning besh xil xukmi bulib:

Keyingi paytlarda oila mustahkamligi, kelin-kuyovning baxtli, tug'ilajak zurriyotlarning sog'lom bo'lishini o'ylab davlatimiz ko'plab xayrli tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ana shunday xayrli va manfaatli ishlardan biri oila va farzandlar iqbolini o'ylab, nikoh oldidan kelinkuyovni tibbiy ko'rikdan o'tkazishdir. Bu ishning yangi qurilgan oila duch kelishi ehtimol bo'lgan ko'ngilsiz voqealarning oldini olishda hamda dunyoga keladigan zurriyotga, qolaversa, ularning yaqinlariga ham juda katta foydasi bor.

Islomda oila va nikoh masalasiga juda jiddiy qaraladi. Oilaning mustahkam bo'lishi uchun nikohning qo'shimcha sharti sifatida kafoatga ham amal qilinadi. "Kafoat" deganda, nikohlanayotgan tomonlarning ijtimoiy, moddiy va ma'naviy jihatdan birbiriga teng, mos bo'lishi tushuniladi. Xalqimizning nikohdagi tenglik ikki tomonning naslnasabi, dini, boyligi, kasbhunari va e'tiqodi kabi narsalarda namoyon bo'ladi. Bugungi voqelikka

.. ————— ❦ ————— ..

e'tibor qaratadigan bo'lsak, necha asrlar oldin Islom huquqida joriy qilingan tenglik masalasi oila mustahkamligi uchun naqadar muhim omil ekaniga guvoh bo'lamiz. Zero otaonasi bag'ridan chiqib, o'zi uchun shu paytgacha mutlaqo begona sanalgan yangi oilaga ko'nikib ketishi uchun tushgan xonadoni bilan otaonasi xonadoni o'rtasida ijtimoiy va ma'naviy nuqtai nazardan tenglik bo'lsa, kelin-ning yangi hayotga moslashuvi osonroq kechadi.



Jamiyatning kelajagi porloq, katta imkoniyatlarga ega bo'lishi uchun, avvalo, uning ajralmas negizi oilalarning ma'nan sog'lomligi talab qilinadi. Bu esa quyidagi shartlarga rioya qilishga bog'liq:

1. Oilaning birbiriga munosib odamlardan tashkil topishi.
2. Erxotin orasidagi o'zaro hurmat va totuvlik.
3. Erkak kishi o'zining oila ustuni ekani hamda rahbarlik mas'uliyatini his etishi va bunga amal qilib

yashashi.

4. Ayol kishining oilaning ichki holatlariga mas'ulligi.

5. Otaona farzandlarining rioyasini qilib, ularga adolatli bo'lishi.

6. Farzandlarning otaonalariga yaxshilik qilishlari.

Ana shu shartlarga rioya qilinsa, oilada sog'lom muhit vujudga kelib, tarbiya topayotgan farzandlar odobaxloqli, elyurtga xizmat qiladigan insonlar bo'lib voyaga yetadi.

Ushbu kitobimiz omma uchun mo'ljallanganini inobatga olib, oilada sog'lom muhitni shakllantirishda zarur bo'lgan shartlarga batafsilroq to'xtalishni lozim topdik.

Oila birbiriga munosib odamlardan tashkil topishi kerak, chunki fiqh kitoblarida aytilgani kabi, nikohda tenglikning ahamiyati juda katta. Chunki er-xotin orasida boylik, ilm va sh.k.da katta farq bo'lsa, ular bir-birini tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Barcha mazhab ulamolari kafoat – tenglik borasidagi dalillarni o'rganib chiqib, uning yetishmasligi nikohga to'sqinlik qilmasada, nikohda bo'lishi lozim shartlardan ekaniga ittifoq qilgan.

Er va xotin bir-birini hurmat qilishi va oila ishlarida bir-biriga yordamchi bo'lishi lozim.

Ma'lumki, er kishining kuni ko'chada, ishxonada o'tadi. Ishlari yaxshi bo'lsa, kayfiyati ham shunga yarasha bo'ladi. Bordi-yu, ishlari yurishmay qolsa, tashvishlanadi, ruhan tushkunlikka tushadi. Bunday holatda ayol kishining donoligi ish berishi kerak, ya'ni erining kayfiyatini chiroyli so'zi, shirin muomala-si bilan ko'tarishi zarur. Ayol betoblanib yo boshqa biror sabab bilan uy ishlarini ado etolmay qolganida er kishi xotiniga uy yumushlarida yordamlashib yuborsa, oilada barqarorlik, totuvlik vujudga keladi. Inson – issiq jon, ba'zan kasal bo'lib qolishi bor. Shunday vaziyatda erxotin bir-biriga ko'mak berib, ko'nglini olishi lozim. Xotini kasal bo'lib qolganida unga e'tibor qaratmaslik yoki kasalligini gapirib, diliga ozor berish erkak kishiga munosib ish emas. Shuningdek, ayrim oilalarda kuzatiladigan, ayoli kasal bo'lib qolsa, otaonasinikiga olib borib qo'yib, tuzalganidan keyin uyga olib kelish holatlari erkak uchun mutlaqo isnod hisoblanib, bu narsa oqibatda oilaning mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi har qanday vaziyatda erxotin bir-birini qo'llab-quvvatlashi kerak. Shunda mehr-shafqat paydo bo'ladi. Farzandlari har bir ishni ulardan o'rganib boradi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan hikmat bekorga aytilmagan.



“Sizlarning yaxshilaringiz ahli ayoliga yaxshi muomalada boʻlganlaringizdir. Men hammangizdan koʻra ayol ahliga yaxshiroq muomala qiluvchingizman” (Imom atTermiziy).

Mana shunday oyat va hadislar orqali Islom ilk davrdanoq ayollarning oiladagi haququqlarini tiklash, hurmatini joyiga qoʻyish bilan ularning jamiyatdagi mavqeini yuksaltirgan. Ayol kishiga komil inson va chiroyli muomalaga munosib shaxs sifatida eʼtibor qaratgan.

Eng avvalo, ayollarga chiroyli muomala koʻrsatish, shirinsoʻz boʻlish va har tomonlama yaxshilik qilish lozim. Ikkinchidan, garchi ularning feʼlatvorida biror harakat yoqmagan taqdirda ham qoʻpollik qilmasdan, shirinsoʻzlik bilan kamchiliklarini aytish, uni tuzatishga koʻmaklashish kerak boʻladi. Chunki har narsada Alloh taoloning biz bilmagan, aqlimizga kelmagan hikmatlari bor. Ayollarning xulqlarida bir emas, bir necha yaxshilik borligi maʼlum. Oila saranjom sarishtaligi, kiyimkechak va uylarning ozodaligi, taom tayyorlash borasidagi xizmatlari va, eng muhimi, toʻgʻri tarbiya berilgan, koʻzlar quvonchi boʻlmish solih farzandni voyaga yetkazishlari shunday yaxshiliklar sirasiga kiradi.

Mehr-muhabbat, rahmat, mehrshafqat kabi xis-

latlar oilaning tayanchi. Bu tayanchlardan biriga arzimas narsa tufayli darz ketmasligi zarur. Hadisda: “Agar biron noxushlik bo’lsa, uning zamirida ko’p yaxshiliklar bo’lishi mumkin”, deb bejiz aytilmagan.

Bu haqda so’z yuritilar ekan, ayollarga munosabatda islomiy talablardan ancha chekinish holatlari uchrayotganini aytib o’tish kerak. Hozirgi paytda ba’zi erkaklar arzimas narsa tufayli xotini-ni so’kishi, urishi va kurakda turmaydigan so’zlar bilan haqoratlashi kabi ko’ngilsiz voqealar uchrab turadi. Ba’zi erkaklar orasida Islomda ayollarni urish orqali tarbiya qilish haqida ko’rsatma bor, degan noto’g’ri talqin borligiga guvoh bo’lamiz. Yo’q, aslo bunday emas. Alloh taolo insonni aziz-u mukarram qilib, unga boshqa mahluqotlariga bermagan aql-u idrok ne’matini berdi. Demak, inson uribso’kib emas, balki chiroyli muomala va go’zal xulq bilan tarbiya qilinadi.

Erkak kishi oilasiga nisbatan barcha mas’uliyatni his etishi va o’zining oilada ustun ekanini hech qachon unutmasligi kerak.

Er kishi, umuman, oilaning tinchligi to’g’risida qayg’urish bilan birga, eng muhim ta’minotlar bo’lgan ozuqa, kiyim-kechak, boshpana bilan ta’minlashga mas’uldir. Ushbu mas’ullik shariat nuqtai nazaridan vojib deb qaraladi.

Ma'lumki, nikoh munosabati bilan ziyofat uyushtirilib, to'y o'tkaziladi. Ushbu to'yning xarajatlari, imkoni bo'lsa, kuyovning o'zi, yaqin qarindoshlari yordamida qoplanadi. Ya'ni, qisqa qilib aytganda, to'yni kuyov tomon o'tkazadi. Er va xotin yashaydigan uyni turmush uchun zaruriy buyumlar bilan jihozlash ham erning zimmasida bo'ladi. Lekin, afsuski, bugungi kunda ko'p hollarda bularning aksi ko'zga tashlanmoqda. Xullas, erkak kishi oilaning hamma talablariga



javob bera oladigan boshliq bo'lishi lozim.

Ayol kishi oilasining ichki holatlariga mas'ul. Yuqorida ta'kidlanganidek, er kishi ko'proq vaqtini oilasini nafaqa bilan ta'minlash yo'lida harakat qilib o'tkazadi. Tabiiy, uy ishlari bilan shug'ullanishga kam vaqt ajratadi. Shu o'rinda nikohning foydasi yaqqol

ko'zga tashlanadi. Uy ishlarini ayol kishi qiladi, pok-likka, tinchlikka javob beradi. Shuningdek, boshqa muhim vazifasi ham bor, bu farzand ko'rish, unga tarbiya berishdir. Demak, ayol oilaning ichki ishlariga mas'uldir.

Otaona farzandlariga mas'ul bo'lib, ularga adolat qilishlari zarur. Otaona nechta farzandi bo'lsa, hammasiga teng qarashi, xatto muomala qilganida ham baravar ko'rish kerak.

Farzandlar otaonasiga yaxshilik qilishi, ularning



so'zlarini aslo yerda qoldirmasligi shart.

Farzand inson hayotining mazmuni, nasl-nasabni davom ettiruvchisi, oilaning mustahkam zanjiri. Solih farzand otaonaning baxtiqboli, ikki dunyo saodatiga yetkazuvchi dilbandi. Farzandlar «jannat rayhonlari» deb tavsiflanishi bejiz emas.

Ammo u odobli, yaxshi fazilatlar sohibi, itoatkor va qobil bo'lgandagina ota-onasiga rahmat va baxt, xursandchilik keltiradi. Buning aksi bo'lishidan Alloh saqlasin!

Oila qurish va solih farzandlar ko'rishni orzu qilmagan inson bo'lmasa kerak. Farzandingizning yaxshi, odobli, mehnatsevar, sog'lom bo'lib o'sishi ko'p jihatdan onasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun dinimiz ko'rsatmalarida bo'lg'usi kelinni tanlashga alohida e'tibor qilinadi. Kelajakda tug'ilajak farzandlarga munosib ona tanlash haqida farzand hali tug'ilmasidan qayg'uriladi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) "Farzandlarinigizga munosib onani ixtiyor qilinglar", deganlar. Biroq otaonaning vazifasi farzandini dunyoga keltirishdangina iborat degan fikrga borish ham to'g'ri emas. Ular o'z farzandlarini aqlli, es-hushli, jismonan sog'lom, diyonatli, e'tiqodli, jamiyat va millatga foydasi tegadigan insonlar qilib tarbiyalash haqida qayg'urishlari kerak. Avval aytganimizdek, odatda, otalar oilani boqish va moddiy jihatdan ta'minlash maqsadida ko'pincha ko'chada bo'lib, uy ishlari va farzand tarbiyasi bilan asosan onalar shug'ullanadilar. Shuning uchun farzand tarbiyasi faqat onaning vazifasidek tuyulib qolgan. Lekin, aslida, farzandlar tarbiyasida ota ona birdek

mas'uldir. Balki ota bu borada ham onadan mas'uli yatliroq hisoblanadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) otaning farzandiga qiladigan moddiy ta'minotidan ma'naviy ta'minoti ustun turishini ta'kidlab shunday marhamat qilganlar: "Hech bir ota o'z farzandiga go'zal odobdan ham ortiqroq hadya bera olmaydi" (Hadis. Termiziy rivoyati).

Ota onalar bolaning tabiati, xulqatvori shu oiladagi muhitga qarab shakllanishini esdan chiqarmasliklari zarur. Ularning vazifasi xuddi tajribali tabibning bemorga nisbatan munosabatiga o'xshash bo'lishi kerak. Ma'lumki, solih farzandlar osmondan tushmaydi. Balki ota ona nazoratida oila ichida tarbiyalanib, voyaga yetadi. Bolalar yosh vaqtlarida ularning tarbiyasiga beparvo bo'lish, yomon kishilarga aralashib yurishlariga yo'l qo'yish zararli oqibatlariga olib keladi. Sodda qilib aytsak, bola qalbi har turli yozuv yozish mumkin bo'lgan bir oq qog'ozga o'xshaydi. Unga mumkin qadar yaxshi yozuvlar yozish kerak.

Ular tarbiyasiga astoydil kirishish, yaxshi kishilar bo'lib yetishishlari uchun butun imkoniyatlarni ishga solish zarur. Donishmandlar bola tarbiyasiga u hali homila holida ekanidayoq kirishishni maslahat berishadi.



Bunga qanday erishish mumkin? Bo'lajak onaning yemishi halol, pok bo'lishi, u hamisha toza, pokiza urishi, ko'proq Qur'on o'qishi, duo va zikrni muntazam aytib turishi tug'ilajak farzandning kelgusida yaxshi tarbiyali, odobli, e'tiqodli, chin inson bo'lib kamolga yetishida

katta foydasi bor. Xatto zamonaviy tibbiyot ham ona homiladorlik chog'ida ko'proq qanday kayfiyatda bo'lsa, bularning hammasi bolaga ham ko'chishini isbotlagan. Masalan, homiladorlik chog'ida ko'p asabiylashgan, boshiga biror g'am, musibat tushgan ayollarning farzandlari injiq, serzarda, yig'loqi bo'lib tug'ilishi ko'p marta kuzatilgan.

Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, o'z onasi tarbiyasini olgan, uning g'amxo'rligi, shafqatini har qadamda his etib turgan bolalar o'zlarini butunlay jamoat ishiga bahshida qilib, farzandlaridan uzilib qolgan onalarning bolalariga qaraganda sog'lom, aqlli, tarbiyali va ko'ngilchan bo'lib ulg'ayishar ekan. AQSHda o'tkazilgan tadqiqotlarda qamalganlarning

yarmidan ko'pi ona mehriga to'ymagan yoshlar ekani aniqlangan. Darhaqiqat, farzand tarbiyasi borasida oilada onaning o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. Farzandga mehr degan ulug' tuyg'uni hech kim onadan ortiqroq bera olmaydi. Afsus, ba'zan onalar uchun bola tarbiyasi jamiyat va ro'zg'or yumushlari oldida e'tiborsiz narsa bo'lib qolmoqda. Ayollarga har qancha huquq berilmasin, ular qanchalik yuksak maqomlarga erishmasin, agar bolalariga yaxshi tarbiya bermasa, ularga o'zini, millatini, dinini, Vatani ni tanitmasa va sevdirmasa, onalik haqini ado etmagan bo'ladi. Zero olimlaridan biri aytganiday, "Avlodlarni voyaga yetkazish va munosib inson qilib tarbiyalash maqsad qilib olinmagan nikoh shuncha-ki bir aysh-ishrat va maishatdan bo'lak narsa emas. Bu nikohdan tug'ilgan bolalar ham o'tkinchi hirsning qurboni bo'lgan bechoralardir".



Muhammad ibn Muhammad Jomiy aytadi: "Har bir otaonaning farzand oldida burchi bor. Chunonchi, har bir ota o'z farzandi nomusli ayoldan tug'ilishiga harakat qilsin, toki tug'ilganidan keyin odamlar farzandga turli ta'nalar qilib yurmasin. Bolaga yaxshi va chiroyli ism qo'ysin. Unga ilm-u ma'rifat

o'rgatsin. Otaona farzandini hamisha halol ovqat bilan boqsin. Harom yo'lda topilgan taom bolaga yomon ta'sir ko'rsatadi va uni haromxo'rlikka o'rgatadi. Buning uchun otaonaning o'zi, avvalo, halol ovqat yeyishi kerak. Shundagina pushtidan bo'lgan bola halol va pokiza bo'lib tug'ildi. Ona homiladorlik paytida harom va noravo ovqatlardan, noshar'iy ishlardan tiyilishi kerak". "Farzandlaringizga suzish va kamon otishni, ot minishni, qizlarga ip yigirishni o'rgatinglar" (Hadis. Bayhaqiy rivoyati). Mamlakatimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. Ularning ulg'ayib, komil inson bo'lishi uchun davlatimiz barcha zarur moddiy va ma'naviy sharoitlarni muhayyo qildi, sport inshootlari, dam olish va istirohat maskanlarini barpo etib, yoshlar ixtiyoriga berib qo'ydi.




Ma'lumki, mamlakatimizning barcha hududlarida bolalar, ayniqsa, o'smirlarning sog'lom o'sibulg'ayishi, ilm olishi, kasbhunar egallashi uchun katta imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda. Oldin ham ta'kidlaganimizdek, bu borada jamoat tashkilotlarining ham o'rni kattadir. **Mahallarimizning asosiy qismida vorkaut maydonchalari tashkil etilgan.**



Shubhasiz, ota ona, oila, mahalla, maktablar bolalar tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Farzandlarimizni chiroyli odob ahloq, yaxshi ta'lim-tarbiya asoslarida voyaga yetkazish davlat miqyosidagi dolzarb masala ekani har birimizga yaxshi ma'lum.

Farzandlarni yoshlik chog'idan boshlab, ilm-u ma'rifatga qiziqtirib, o'rgatib borish lozim. Zero ilm-u fanning qaysi sohasiga bo'lsa ham qiziqib, o'qibo'rganib, ma'lumot hosil qilgan kishi, albatta, o'zi, oilasi, xalqi va Vatani uchun manfaat keltiradigan insonlar qatoridan joy oladi.

Ayniqsa, ta'lim muassasalarida o'qishni tugatib, yozgi ta'tilga chiqqan farzandlarimizga e'tiborli bo'lishimiz lozim. Ularning ilm o'rganishi, qiziqarli dam olishi uchun qulay sharoitlar yaratib beraylik.



Ota-onalar farzandlarini kucha-ko'ya behuda tentirab, bo'lmag'ur, nojo'ya xatti-harakatlar qilish, telefonda har xil tarbiyani buzadigan narsalar ko'rish-

dan saqlab, go'zal xulq egasi bo'lishga chaqirsin.

Odatda, onalar o'z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladi. "Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi" deb, yo'l qo'ygan xatolari, qo'l urgan maydachuyda jinoyatlarini otasiga aytmaydi, oqibatda, bola o'z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin borabora kattaroq jinoyatlarni ham qo'rqmasdan qilaverishi mumkin. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo'lib yetishuvida onaning xizmati juda zarur va muhimdir.

Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o'z otabobolari, o'z tarixi, Vatani, ona tili, millat ulug'lari, muqaddas Islom dini an'analariga sodiq bo'lib qolsin. Kitoblardan o'rganilgan ma'rifiy ilm qatorida oilada olingan hayot ilmi ham ularga suv va havodek zarur. Ilmli, odobli, farosatli odam hayotda o'zining munosib o'rnini albatta topadi.

Farzandlar ulg'aygan sari ular taqdiriga xushyorroq qarash, ularni yuksak qadriyatlarimizning asl va baquvvat ildizlaridan bahramand etish, bugungi turmush tarzimizga mos tarbiya berish ot-onalar zimmasidagi muhim vazifalardan sanaladi.



Kezi kelganida farzandlarimizning biriga aytilgan nasihat ayni chogʻda uning akaukalariga ham tegishli boʻlishi, xonadondagilarning barchasiga birday taʼsir qilishini oʻylab ish koʻrishimiz va farzandlarimizning ilm olishlari, kasbhunar egallashlariga hamkor va hamfikir boʻlishimiz zarur. Shuningdek, ularni tevarak atrofimizda boʻlayotgan voqea hodisalarga, oʻzgarishlarga daxldorlik ruhida tarbiyalashimiz kelajakka katta ishonch bilan boqishga oʻrgatishimiz kerak.



Xulosa qilib aytsak, yoshlarimizni har tomonlama komil, goʻzal xulqli, mustaqil fikr va dunyoqarashga ega, turli salbiy odat, illat va taʼsirlardan xoli qilib voyaga yetkazishda jamoat tashkilotlari, ota ona, mahalla faollari va ulamolarning oʻrni beqiyosdir.

BOLA BOSHIDAN

Ba'zilar bolasi hali ikkiuch yoshga kirmay turib, uning tarbiyasi "nobop"ligidan shikoyat qilishni boshlab yuborishadi. Norasida go'dakni xuddi kattalardan talab qilinadigan "qolip"larga solish, uning odob-ahloqini "o'nglash" harakatiga kirishadi.

Bu ham xato. Chunki hali suyagi qotmagan, yaxshi va yomon nimaligini anglamagan yosh bolani hadeb tergayverish, uni turli qoliplarga solishga urinish, kuchi va iqtidori yetmaydigan mashg'ulotlarga majburlash irodasini sindirishi, ruhiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, keyinchalik hamma narsaga befarq va loqayd qaraydigan qilib qo'yishi mumkin.

Buyuk vatandoshimiz shayxur rais Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo'lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: "Yosh bola boshlang'ich ta'lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg'ul bo'lishi mumkin bo'lgan kasbhunar va san'atga

.. ————— ————— ————— ————— ————— ————— ..
moyilligiga qarab, uni shunga yoʻllaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq soʻzlash va odamlar bilan muomala qilish kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu oʻrinda, bolaning mayli ahamiyatga ega”.



Mutaxassislar tavsiyasiga koʻra, bola maktabga borgunicha uni podshoh bilib muomala qilindi, yaʼni risoladagi barcha iltimoslari soʻzsiz bajariladi, shoʻxlik va erkaliklardan qaytarilmaydi. Shundan soʻng unga astasekin tushuntirish, kattalarning oʻzi ibrat boʻlishi orqali tarbiya beriladi. Tarbiya bir necha tomondan olib boriladi. Bola aqlan rivojlanishi uchun unga turli kitoblar oʻqib beriladi, rivoyat va ibratli hikoyatlar soʻzlanadi yoki aqlzakovatini oʻstiradigan oʻyinlar, mashgʻulotlarga jalb qilinadi. Ruhiy tarbiyasini yaxshilash uchun hayot va oʻlim, yaxshilik va yomonlik, axloq va odob kabi boqiy mavzularda sodda, bola ruhiyatiga mos suhbat va tushuntirish olib boriladi. Jismoniy tarbiya berish uchun esa biror foydali mehnatga

jalb qilish, suzish, merganlik, chavandozlik kabi mashg'ulotlarni o'rgatish mumkin.



Bolalarga yoshligidan boshlab, xalq ertaklari va dostonlari, topishmoqlar, maqol va matallar o'qib berish, so'zlash yoki ularning o'zlariga o'qitish, shaxmat va boshka sport tuliriga qiziqtirish ham kerak. Bu bilan bolalarning zehni o'sadi, fikri kengayadi, dunyoqarashi boyiydi, xotirasi kuchayadi.



Eng asosiysi, bola eshitganlaridan ibrat olib, yaxshi odamlarga ergashishga intiladi, ularning xulq-u odobidan bahramand bo'ladi. Masalan, Toshkent shahrining Shoxantohur tumani "Aloqa" mahallasida "Ibratli oila", "Odobli qiz" kabi ko'rik-tanlovlar o'tkazib boriladi.

o'sishi, aqlidrokli, fikrlovchi bo'lib ulg'ayishini istagan otaonalar ularga kichikligidan turli ibratli hikoyalar, ulug'larimizning hayot yo'llari va fazilatlari haqidagi rivoyatlar, ramziy ma'nodagi yaxshilikka, chiroyli axloq va odobga chorlovchi ertaklarni so'zlab bersa, ular ma'naviyatini yuksaltirishda katta tarbiyaviy

Tarbiya haqida

Imom G'azzoliyning "Ihyou ulumuddin" kitobida bunday deyiladi: "Bola otaona qo'lida bir omonatdir. Qalbi turli naqsh va rasmlardan pok, nima naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo'laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o'rgatilsa, uning ustida o'saveradi, dunyo va oxiratda saodatli bo'ladi, ota onasi hamda odob, ta'limtarbiya berganlar barchasi savobiga sherik bo'lishadi. Agar yomonlikka undalsa va hayvon kabi bo'sh qo'yilsa, yomonlikka uchraydi, halok bo'ladi va unga qarab turgan kishi zimmasiga gunohkorlik tushadi".



Muhtaram Prezidentimiz: “Biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to‘plagan hadislar, Naqshbandiy ta’limoti, Termiziy o‘gitalari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilmoqdamiz”, deb ta’kidlaganlar.

Tarbiya bir necha xilga bo‘linadi: badan tarbiyasi, ruhiy tarbiya, aql va fikr tarbiyasi, ahloqiy tarbiya, iroda tarbiyasi, so‘zlashuv tarbiyasi, mehnat



tarbiyasi va boshqalar.

Badan tarbiyasi bolani jismonan baquvvat qilib tarbiyalash, tozalik va poklikka o‘rgatish (zamona tili bilan aytganda sanitariyagigiena), sport va badantarbiya mashqlariga ko‘niktirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bolasining sog‘lom bo‘lishini orzu qilgan otaonalar ular bilan ko‘proq ochiq havoda sayr qilishlari, suzish, chavandozlik, kurash o‘yinlari, merganlik kabi mashg‘ulotlarga safarbar qilishlari lozim.



Inson hayotining faqat ruhiy, ma'naviy kamolotiga emas, ayni vaqtda uning jismoniy jihatlari ham jiddiy e'tibor qaratadi. Ulamolar ruhiy va moddiy hayotni xuddi narvonning ikki zinapoyasiga o'xshatadi. Ya'ni ikki taraf baravar teng bo'lishi uchun harakat qilish lozimligi uqtiriladi. Insonning e'tiqodi kuchli bo'lishi bilan birga badani, jismi ham sog', chiniqqan, har qanday mashaqqatlarga bardoshli bo'lmog'i lozim.



Avval qayd qilganimizdek, yurtimiz yoshlari o'rtasida sport turlari bo'yicha turli musobaqalar o'tkazish an'ana tusiga kirgan. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Universiada",

oʻrta maxsus va kasb hunar taʼlimi maskanlari talabalari orasida “Barkamol avlod” oʻyinlari hamda oʻrta maktablarning oʻquvchilari orasida “Umid nihollari” musobaqalari oʻtkazilishi anʼanaga aylangani va ular yoshlarimizning sogʻlom voyaga yetishlarida nechogʻli ahamiyatga ega ekanini koʻrishimiz mumkin.

Farzandlarimizni goʻdaklik davridan toza havoda har xil sport oʻyinlarini oʻynatishimiz, onalar ularga vaqt ajratishlari zarur.



Farzandlarimizni yoshligidanoq xarakterini hisobga olgan holda qaysi sport toʻgʻaragiga berishni aniqlab olishimiz kerak.

Ruhiy tarbiyaning vazifasi bolaning maqsadi, eʼtiqodi, diyonati, imonini shakllantirish, uning chin insoniy fazilatlarini kamol toptirish; hissiyotga beriluvchan va taʼsirchan bolalarda haqiqatni koʻra bilish, jasurlik, matonat kabi xislatlarni



shakllantirish, aksincha, diydasi qattiq bolalarning qalbini yumshatadigan omillar yordamida ularni mayin hissiyotli qilib tarbiyalashdan iborat. Bolani ruhiy tushkunlikka tushishdan, qiyinchiliklar oldida esankirab qolishdan himoyalashda bunday tarbiyaning ahamiyati katta.



Aql va fikr tarbiyasini yaxshilash uchun bolaning fikrlashi, zakovti, xotirasi va mushohada qobiliyatini takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlar o'tkaziladi, unga turli ibratli ertak va hikoyalar so'zlab beriladi, zarur bilim va ma'lumotlar yodlatiladi. Odatda, bolalar kichik yoshda har bir ko'rgan narsasi haqida so'raydigan, ularni tekshirib, sinab ko'radigan, tinimsiz savollar beradigan bo'ladi. Bunday paytda ularning savollariga erinmay, hafsala bilan, tushunarli, sodda qilib javob qaytarish kerak.



Axloqiy tarbiya berish uchun, eng avvalo, otaona farzandiga ahloq va odob bobida oʻrnak koʻrsatishi, odobdan muntazam saboq berib boriishi kerak boʻladi. Chunki odob oxirat neʼmatlariga yetkazuvchi asosiy vositalardan hisoblanadi.

“Bolalaringizga odob beringlar va odoblari-
ni chiroyli qilinglar”, deb marhamat qil-
ganlar (Hadis. Imom Muslim rivoyati).

Kishi oʻgʻilqizini kichik yoshdan tarbiyalab, odob bermogʻi kerak. Bola maʼlum yoshga yetgach, unga baʼzi narsalarni qabul qildirish qiyin kechadi. Bunda oila raisi oila aʼzolarining baʼzi ayb-
larini kechirishi kerak boʻladi. Zaif va kichiklar ayb qilishlari mumkin. Shuning uchun ular-
ni qoʻrqitishdan koʻra kechirish yaxshiroqdir.

Shuningdek, bolalarni kamsitmaslik, ularn-
ing odoblilarini ibrat oʻlaroq misol qilib keltirish, kattalarning bola oldida oʻzlarini yaxshi, odobli

tutishi, soʻkinmasligri va urishmasligi juda muhimdir. Ota ona oʻzlari odobsiz boʻlsa, bolalarini odobli qilib tarbiyalashga urinishlari aslo samara bermaydi.



Oilada asosan tarbiyani bolaga buva bilan buvi beradi.

Iroda tarbiyasidan maqsad farzandni irodasi kuchli shaxs qilib kamol toptirishdir. Bunda bolaga oʻz nafsini bilan kurashish, shaxsiy orzu va ehtiyojlarini jilovlash yoki zarur boʻlsa, ulardan voz kecha olish, oʻz manfaatlarini boshqalar va jamiyat manfaatlaridan ustun qoʻymaslik kabilar oʻrgatiladi. Taomilda, bolaning qaysarlik davrida (toʻrt yoshdan oʻn olti yoshgacha) olib boriladigan iroda tarbiyasida biroz qattiqqoʻllik, chidam kerak boʻladi, ammo ayni damda u sevgi, mehribonlik, samimiylkni ham his etib tursin.



Soʻzlashuv tarbiyasi ham bola kamolotida muhim oʻrin tutadi. Odatda, oʻgʻilqizlar bir yarim-ikki yoshdan gapira boshlaydi. Ularga kichikligidan soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish, fasohatli gapirish, kattalarga murojaat qilish odobini oʻrgatish, soʻkish

ish va behayo soʻzlarni ishlatishning yomonligini tushuntirish lozim. Bolalarda kattalarga taqlid qilish kuchli boʻlgani uchun ular oldida fahsh, haqoratli soʻzlarni aytish, soʻkinish, qoʻpol gapirish, mahmadonalik kabi illatlardan tiyilish zarur. Inson oʻz farzandini tarbiya qilishda juda ehtiyot boʻlishi lozim. Chunki, yuqorida aytganimizdek, ular kattalarga juda tez taqlid qilishadi. Avvalo, bolalarga toʻgʻri gapirmogʻimiz darkor. Endi tili chiqqan vaqtida farzandimiz ogʻzidan chiqayotgan nobop soʻzlarga befarq boʻlmasdan, bunday soʻzlar yaxshi emasligini darhol uqtirishimiz lozim. Aks holda, bir kun kelib oʻsha soʻzlar farzandimiz tarbiyasiga salbiy taʼsir koʻrsatishi oqibatida oʻzimizga nisbatan ham aytilishi mumkin.

MEHNAT TARBIYASI


Mehnat tarbiyasini berish uchun bolaga halol kasb bilan kun ko'rish haqida nasihatlar qilinadi, mehnatga muhabbat uyg'otish uchun bolaligidan unga turli mayda yumushlar buyurib turiladi. Turli kasbhunarlar o'rgatiladi, agar bunga o'zi qodir bo'lmasa, biror ustozga beriladi.

Yurtboshimiz «Biz farzandlarimizni Imom Buxoriy hadislari, Yassaviy hikmatlari, Termiziy o'gitlari, Naqshband ta'limoti asosida tarbiyalashimiz kerak», deganlaridek, farzandimizni Allohdan qo'rqadigan, jamiyatga foyda keltiradigan, xalqiga xizmat qiladigan diyonatli inson etib tarbiyalashimiz kelajakda uning komil inson bo'lib ulg'ayishiga zamin bo'ladi.

Ota onalar farzandlari bilan muomala qilishda adolatli bo'lishi, birini boshqasidan, o'g'illarni qizlardan yoki aksincha, ajratmasligi kerak. Sovg'a berishda, lutf va mehribonchiliklar ko'rsatishda, erkalash va iltimoslarini bajarishda barcha farzandlarni teng ko'rish lozim. Chunki ular orasida sovg'asalomda tenglik yo'qolsa yoki birini koyib, uning yonidagi ikkinchisi maqtalib erkalatilsa, akauka yoki opasingillar orasida birbiriga hasad qilish va ko'rolmaslik kelib chiqadi.

Tadqiqotlar natijasida bolalarda hasad, ko'rolmaslik va birovga nisbatan dushmanlik hissi-ni tuyish kabi yomon tuyg'ular shakllanishiga oilada farzandlar o'rtasidagi adolatning yo'qolishi ko'proq ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Agar bolalarga atab biror narsa olib kelsangiz, tarqatishni eng oldin qizlardan boshlang. Chunki qiz bola ta'sirchan, ko'ngli nozik, salga xafa bo'lib qoladigan bo'ladi. Farzandlarga mehr shafqatli bo'lish, ularni suyub erkalash, hamisha ochiq chehra bilan muloyim muomala qilish, zaruriy ehtiyojlarini qondirish, har jabhada ularga shaxsiy ibrat ko'rsatish, Alloh taolo bergan omonat bo'limish o'g'il qiz farzandlarni gunoh va yomon ishlardan qaytarib turish ota onaning muhim vazifalaridandir. Har bir otaona farzandlari turli buzuvq aqida va nojo'ya oqimlarga kirib qolmasligi uchun ularga Ahli sunnat val jamoa aqidasi, Imomi



„..
A'zam mazhabī ta'limoti asosida tarbiya berishi zarur.

«Tarbiyani qachon boshlash kerak?» degan savol azaldan yosh otaonalarni o'ylantirib keladi. Bu savolga esa bir rivoyat bilan javob qaytarish to'g'riroq bo'lur edi. Bir kishi donishmand huzuriga kelib: «Farzandimga necha yoshidan tarbiya berishni boshlashim kerak?» deb so'rabdi. Donishmand: «Farzandingiz necha yoshda?» debdi. «Ikki yoshga kirdi», javob qilibdi boyagi kishi. Shunda donishmand: «Siz tarbiya berishda ikki yilga kechikibsiz», degan ekan.

Ammo bolaga tarbiya va odob berishda shoshqaloqlik yaramaydi. Bitta daraxtni parvarishlab, hosilga kiritish uchun bir necha yil kutish kerak bo'lganiday, bir farzandni komil tarbiya va axloq



bilan ziynatlash uchun ham ko'p yillar kerak. Tarbiya otaonadan va murabbiy ustozlardan uzoq vaqt chidam, bardosh, sabr va fidoyilikni talab etadi.

Har bir davrning o'ziga xos tabiati va sharofati bo'lganidek, fan va texnika jadal taraqqiy etib borayotgan asrimizda yoshlar tarbiyasi ham alohida o'ziga xoslik kasb etadi.



Farzandlarimizning ilmiy saviyasi, kasb-u hunari bilan bir qatorda axloqiy fazilatlari ham ko'payib borishi zarur. Yosh avlodning ta'lim va tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilish faqat hukumatimizning yoki maktablarning emas, birinchi navbatda, har bir ota onaning muqaddas burchi hisoblanadi.

Har bir inson o'z farzandi yaxshi, barkamol nasl bo'lib yetishishini orzu qiladi. Katta bo'lgach, jamiyatda o'ziga munosib o'rin egallab, Vataniga sodiq, el-u xalqining xizmatiga tayyor, vijdonli va diyonatli bo'lishini niyat qiladi.

Lekin hamma ota onaning ham o'z farzandlariga mehroqibati va tarbiyaviy munosabati bir xil

bo'lavermas ekan. Ayrimlar bola tarbiyasi xususida juda beparvolik qilishadi. Ular uchun bu dunyoda faqat o'z shaxsiy yumushlari, moddiy mablag' to'plash yo'lidagi tashvishlari birinchi o'rindagi vazifa-yu, oila a'zolarining axloqiy tarbiyasi bilan shug'ullanish ikkinchi darajali ish ko'rinadi.

Farzand tarbiyasi haqida oldinlari ham juda ko'p gapirilgan. Lekin bugun mavzuga yana bir bor qaytib, bu sohada onalarning farzand tarbiyasidagi burchlari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Onaning burchlaridan yana biri farzandga mehribonlik ko'rsatib, uni aziyat beradigan turli narsalardan saqlagan holda, vaqtida oziqlantirib, yuvibtarab, toza kiyintirib, kasal bo'lishiga yo'l qo'ymay, parvarishlashda erinchoqlik yoki dangasalik qilmay, doimo xushyor va xabardor bo'lishdir. Lekin, afsuski, barcha onalar ham o'z farzandlariga onalik mehrini bahsh etavermaydi. Shunday ayollar ham bor, ular o'z farzandlarini bolalar uylariga topshirib yuboradi.

“Ma'naviy ziyofat” kitobida keltirilgan bola tarbiyasidagi eng muhim jihatlarni esga olsak, foydadan xoli bo'lmas.

Farzandlarga mehribonlik, rahm shafqat ko'rsating, ular bilan yumshoq muomalada bo'ling, sababsiz tergamang. Teztez ularni quchoqlab, bosh-



ko'zini mehr bilan silab turing.

Ular bilan muntazam birga bo'lish-ga harakat qiling: mashg'ulotlar o'tkaz-ing, o'yinlariga aralashib turing, hazil mutoy-iba qiling, nutqini o'stirish bilan shug'ullaning.

Bolasini kaltak vositasida tarbiya qilish-ni o'ylaganlar qattiq adashadi. Chunki farzand yaxshi so'zning gadosi, yomon gapirish, kaltaklash bolani oiladan, otaonadan bezdiradi, xolos.

Bolalaringizga ularning qurbi yetmaydigan xizmat va topshiriqlarni aslo bera ko'rmang. Chun-ki buni bajara olmay, yolg'on gapirishlari, hiyla izlashlari, xatto otaonaga osiy bo'lib qolishlar imomkin.

Bolalarga tozalikka rioya qilish, tirnoqlarini olish, kiyimlarini toza pok saqlash, tartiblaridan ta'lim bering. Bolalarga kichikligidanok uy mexnatiga urgatish va chiniktirish kerak ularga uy xavli va mexnat kurollarini tugri foydalanishni hamda ularni ozoda saqlash odatini shakllantirish zarur. Bu esa bolaning aqliy faoliyatini rivojlantira-di, tabiatga atrof muhitga muhabbatini oshiradi.

Farzandlarga xoli holda, uyaltirmay, boshqalar oldida sharmanda qilmay nasihat qilish lozim. Ba'zan sho'xlik qilib, gapingizga quloq solishmasa yoki biror ishda xato qilishsa, ularni urmay-so'kmay, tushuntirishingiz zarur. Juda iloji bo'lmay qolganida

ikki uch kun gaplashmay qo'ysangiz, kifoya.

Farzandlaringizning kimlar bilan do'st va ham-suhbat bo'lishlariga e'tiborli bo'ling, ko'chada sababsiz, bemaqsad turish va yurishlariga, sizdan so'ramay, uzoq vaqt biror mashg'ulot bilan shug'ullanishlariga yoki olis joyga ravona bo'lishlariga ruxsat bermang.

Farzandlarni uyda va ko'chadagi tanishnotanish odamlarga «Assalomu alaykum» deb salom berishga, qo'niqo'shnilarga yaxshilik va yordam ko'rsatishga, aziyat yetkazmaslikka, uyingizga kelgan mehmonga hurmat ko'rsatish va xizmat qilishga odatlantiring.

Farzandlaringizni sigaret chekish va aroq ichish kabi salbiy odatlardan qaytarib, bu illatlarning inson sog'lig'i va iqtisodiga qanchalar zarar keltirishini, kulfatga boshlashini erinmay tushuntiring. Buning o'rniga meva va shirinliklar iste'mol qilishga targ'ib eting.

O'g'ilqizlarimizni har holatda ham rost so'zlashga, yolg'onni xatto hazil tariqasida ham gapirmaslik, va'daga albatta vafo qilishga o'rgatishimiz lozim. Chunki yosh bolalar odatda o'ta ta'sirchan va taqlid qilishga o'ch buladilar. Yolg'onni atrofidagi muhitdan o'rganib, otaonasi yoki aka-



ukalaridan biror manfaatga erishish uchun yolgʻon ishlatishlari mumkin. Toʻgʻrilik har bir yaxshilikning asosi, yolgʻon esa har qanday yomonlikning onasi va boshlanishidir. Oʻzimiz ham ularga biror narsa vaʼda qilsak, olib berishimiz, bordiyu, buning imkoni topilmay qolsa, ularga tushuntirib, muddatini uzaytirishimiz kerak. Ota ona farzandini “Bolam, bu yoqqa kel, bir narsa beraman”, deb chaqirsayu, ammo bermasa, u yolgʻonchidir. Farzandlarni halol topgan molimizdan yedirib ichirishimiz, sudxoʻrlilik, pora, oʻgʻrilik, aldamchilik, zulm bilan topiladigan narsalardan ehtiyotlashimiz lozim. Zero bunday mablagʻlar bilan oziqlangan bola badbaxt, itoatsiz, qoʻrs qoʻpol va yovuz boʻlib ulgʻayadi. Farzandlarimizni tarbiyalashda urish, soʻkish va qattiq cheklovlardan oldin ularni toʻgʻri bilan notoʻgʻrini, foyda bilan zararni ajratishga oʻrgatishimiz kerak. Chunki biz qanchalik cheklovlar qoʻymaylik, nima foyda-yu nima befoyda ekanini tushuntira bilmasak, ular bu ishlarni yashirin holda ham qilishlari mumkin.

Maʼlumki, har qanday kasbni puxta egallash, oʻz kasbining mohir ustasi boʻlish uchun ana shu kasbga taalluqli ilmni mukammal oʻzlashtirmoq kerak. Kasbiga muhabbatli inson oʻz mehnatidan charchamaydi, balki rohatlanadi. Kasbi tufayli atrofida qilargana

yordami tegsa, inson o'zini baxtli hisoblaydi. Shuning barobarida Alloh taolo tomonidan ulug' ajr-u hasanotlar berilishiga munosib ekanini his qilish bilan ruhiyati yengil tortadi, imoni quvvat oladi.

Istiqlol sharofati bilan bugun ona zaminizda sertarovat, jahon andozalariga to'la mos keladigan yuzlab kasbhunar kollejlari bunyod etildi. O'sib kelayotgan yosh avlod bugunning eng ilg'or texnika va texnologiyalarini mukammal egallashini ta'minlash maqsadida ushbu ta'lim muassasalari yuqori sifatli anjomlar bilan jihozlanib, talabalarga taqdim etil di. Bu yoshlarga bo'lgan e'tibor va ishonch timsolidir.

Mana shunday yuksak e'tiborning qadriga yetib, o'z vaqtida chuqur ilm egallab, men albatta kelajakda elimga, yurtimga xizmat qilaman, deb harakat qilish har bir o'quvchining asosiy maqsadi bo'lmog'i lozim.



Siz bilan biz, otaonalar, murg'ak chaqaloqlarimizni erkalab, ardoqlab o'stirar ekanmiz, faqat ularning jismoniy sog'lig'i, moddiy ta'minoti to'g'risida emas, balki ma'naviy boyliklarini, insoniy fazilatlarini barkamol qilish to'g'risida ham qayg'urishimiz kerak bo'ladi.

Zero o'zida ilmu fanning qaysi sohasiga bo'lsa ham qiziqish uyg'otib, o'qib, o'rganib, ma'lumot hosil qilgan har qanday inson, albatta, ma'lum miqdorda odamiylik xususiyatlariga ham ega bo'ladi.

Ilm o'rganishga intilish har bir mo'min-musulmon zimmasidagi farzdir. Qur'oni karimning ilk nozil bo'lgan oyati «O'qi!» degan amr bo'lgan edi. Payg'ambar (alayhissalom): "Beshikdan qabrgacha ilm izla", deb ta'lim berganlar.

Alloh taolo musulmon bandalariga ilm izlashni,



ilm o'rganishni buyurgan.

Olimlar bilan ilmsiz kishilarning farqi katta ekanini zikr etib, "Ilm Xitoyda bo'lsa ham, uni izlab topib, egallangiz. Zero ilmni talab qilish har bir musulmonga farzdir", deyilgan.

Imom Buxoriy va Muslimning "Sahih"larida quyidagi hadis Muoviya ibn Sufyondan rivoyat etilgan bo'lib, unda Muoviya aytadilar: "Men Rasulullohning "Alloh kimga yaxshilikni iroda etsa, uni din ishida faqih (teran anglovchi) qilib qo'yadi", deganlarini eshitdim". Ilm haqida Avaz O'tar shunday degan:

Har murod-u maqsadingga yetmoq istarsan murod,

Ko'z ochib bedor bo'l, darkor ilm, darkor ilm.

Ilm farzi ayn va farzi kifoyaga bo'linadi. Farzi ayn har bir kishi o'rganishi shart bo'lgan ilmlar. Farzi kifoya bir guruh kishilarning o'rganishi bilan boshqalardan soqit bo'ladigan ilmlar. Insonning dunyo hayotidagi ishlarini bajarishda kerak bo'ladigan barcha ilmlar farzi kifoyadir. Masalan, tib ilmini olaylik. Bu ilm inson jismining sog'salomat bo'lishida zarur sanaladi. Yana hisob ilmi ham xuddi shu kabi, meros va vasiyatlarni taqsimlashda hamda dunyo taraqqiyotiga sabab bo'ladigan boshqa ilmlarni o'rganishda nihoyat darajada

kerakli ilmlardandir.

Ushbu ilmlarni jamiyatdagi ma'lum toifa insonlar o'qib o'rganib, ular bilan shug'ullanishmasa, boshqa barcha insonlar to'g'ri yo'ldan adashishadi, qiyinchilikka tushib qolishadi. Agar bir yurtida tabib bo'lmasa, fuqarolari kasallikka chalinishlari, xatto o'lib ketishlari mumkin. Hisob ilmini biladigan kishilar bo'lmasa, bu yurt taraqqiyotdan orqada qoladi, kishilar o'rtasidagi savdo sotiq va iqtisodiy munosabatlar izdan chiqadi, meros ilmi bilan shug'ullanish imkoni ham yo'qoladi.

Xuddi shuningdek, iqtisodiyotning, kasb-hunarning boshqa turli yo'nalishlari haqidagi ilmlar, masalan, dehqonchilik, tikuvchilik, xatto hijomat, ya'ni qon olish ham farzi kifoyadir. Agar biron-bir yerda qon oluvchi topilmay qolsa, o'sha joy ahli halokat yoqasiga kelib qoladi. Zero dardni bergan Parvardigor davosini ham berib, uning yo'lini ham ko'rsatgan. Demak, hozirgi zamonda musulmonlar fan-texnika sohasidagi barcha daqiq ilmlar: kibernetika, daqiq hisoblar majmuasi, zarrashunoslik, irsiyatshunoslik va shu kabi ilmlarni ham farzi kifoya darajasida bilishlari zarur bo'ladi.



Ba'zi ilmlarni o'rganish muboh hisoblana-
di. Masalan, she'riyat, tarix ilmlarini o'rganish-
ga hech bir monelik yo'q. Lekin ba'zi bir ilmlar,
masalan, sehrjodu, ko'zboylash, gipnoz, bashorat-
go'ylik kabilar bilan shug'ullanish nomaqbuldir.

“Ilm moldan yaxshidir, u seni himoya qila-
di, molni esa sen qo'riqlashga majbursan, ilm
hokim, mol mahkumdir, ehsonnafaqa qil-
ish bilan mol kamaysa, ilmni tarqatganing sa-
yin ko'payib boradi”, deganlar xazrati Ali.

Luqmoni hakim o'g'liga bunday nasihat qilgan
ekan:

“Ey o'g'lim, olimlar bilan o'tir, ular orasiga kir,
chunki Alloh yerni osmon suvi bilan tiriltirgani
kabi qalblarni ham ilmhikmat nuri bilan tiriltiradi”.

Bir kuni Fath Musaliy: “Kasalga suv, ovqat ber-
ilmasa, u o'ladimi?” deb so'rabdilar. Atrofidagilar:
«Ha, o'ladi», deyishibdi. Shunda Fath: “Qalbga ham
uch kun ilm berilmasa, u o'ladi», - degan ekanlar.

Demak, har bir inson farzandi ajdodlarning
o'gitlariga, ulamolarning tavsiyalariga amal qilib, ilm
o'rganishga bor kuchg'ayratini sarflashi, o'rgangan
ilmiga amal qilish payida bo'lishi zarur. Shun-
dagina u Alloh roziligini topadi, imonini mustah-
kamlaydi, ikki dunyo saodatini qo'lga kiritadi.

Shuning uchun otaonaning farzand oldidagi



eng muhim burchlaridan biri uning yoshligidan boshlab, ilm olishiga qulay sharoit yaratib berishlari, ulgʻaygan sari oʻziga munosib biror kasbu hunar tanlashga yoʻl koʻrsatib borishlaridir. Hammasidan ham muhimi ilmu hunar oʻrganish bilan birga axloq va odob fazilatlarini tobora koʻproq egallab borishlarida barchamiz oʻz farzand va nabiralarimizga yaqindan koʻmaklashishimiz lozim boʻladi. yurtimizda ilm maʼrifat va kasbhunar oʻrganish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.





Muhammad ibn Hasan aytadi: “Ilmni talab qilish farz boʻlganidek, kasbhunarni talab qilish va uni egallash ham farzdir”. Kasb hunar egallash va shu asosda hayot kechirish haqida Islom olamida birinchi boʻlib Imomi Aʼzamning shogirdi Imom Muhammad “Kitob al iktisob» («Kasb hunar kitobi») asarini yozib, bu boradagi dinimiz taʼlimoti asoslarini mukammal bayon qilib berdi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki vaqtlardanoq taʼlimtarbiya tizimida yoshlarga kasb-hunar oʻrgatish yoʻllarini yanada takomillashtirish va ularning moddiy maʼnaviy asoslarini vujudga keltirish sohalarida katta ishlar amalga oshirildi. Barcha viloyat va shaharlarimizda ochilgan kasb hunar kollejlari diyorimizning minglab oʻgʻil-qizlari mehnat, kasb hunar malakalarini izchil oʻrganmoqdalar. Hozir respublikamizda 1025ta kasb hunar kolleji 300ta texnikum, 238 ta litsey faoliyat olib bormoqda.



Jamiyatga tabib, quruvchi, to'quvchi, muallim,



Vatan himoyachisi, qurol yasovchi usta, mashina haydovchi, novvoy kabi kasb egalari hamisha zarur. Tarixdan ma'lumki, qaysi jamiyat zamonaviy ilmlardan orqada qolgan bo'lsa, albatta inqirozga uchragan, kelgindi bosqinchilarga qaram bo'lgan. Shuning uchun hadisda ummatga: "Farzandlaringizni suvda suzishga, otda chopishga, kamon otishga va qurol ishlatishga o'rgatinglar", - deb buyurganlar. Faxri koinotning o'zlari askarlarning mashqlarini kuzatganlar, farzandlarini boshqa xalqlar tilini o'rganishga undaganlar.



OT MINISH



SUVDA SUZISH



KAMONDAN
OTISH


Dinimiz insonlarni halol mehnat, kasbhunar bilan turmush kechirishga chaqirgan. Dangasalik, ishyoqmaslik, bekorchilik, nopok yo'llar bilan tirikchilik qilish xalqimizda qattiq qoralangan. O'tmishda momolarimiz erlarini pul topib kelishga jo'natib, faqat halol yo'l bilan, mehnat orqali rizq nasiba topishni tayinlashgan va: "Biz yo'qchilik va ochlikka chidaymiz, ammo do'zax otashiga chiday olmaymiz", - deb nasihat qilishgan.

Bolalarga yoshligidan biror kasbhunar o'rgatish otaonaning muhim vazifasidir.

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy bir dostonining qahramoni tilidan: «Hunarni asrabon netkumdir oxir, Olib tufroqqamu ketkumdir oxir», deb bejiz yozmagan.

Atoqli sharq shoiri Nizomiy Ganjaviy: «O'qib-o'rganilgan har bitta hunar hunar mandga bir kun foyda keltirar», deb yozganida ming bora haq edi.

Hikmatlardan yana birida: "Har kimning zari bo'lmasada, ammo hunari bo'lsa, dunyoda hech bir xavf xatari bo'lmaydi. Shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog'i kerak", - deyilgan.





Xalqimiz mehnatsevarligi, g'ayrat shijoati, hunarmandligi bilan nom chiqargan. Ota onalar farzandlarini kichikligidanoq biror mashg'ulot bilan shug'ullantiradilar yoki hunar o'rgatish uchun biror hunarmand ustaga shogird qilib berishadi. Qizlarimizga ham yoshligidan chevarlik, pazandalik, uy tutish, bola tarbiyalash, o'ziga oro berish kabi yumushlar erinmay o'rgatiladi. Toki borgan yerlarida eplishudli ekanliklarini ko'rsatsinlar, yangi ro'zg'orlarida qiynalib qolmasinlar, hayotlari farovon, oilalari to'kin bo'lsin, degan niyatda shunday yo'l tutiladi. Momolarimiz azalazaldan chevarlik, to'quvchilik, mazali taomlar tayyorlash, zardo'zlik, kashtachilik va boshqa hunarlar bobida nom chiqarishgan. Qizlarini ham turmushga uzatish oldidan bir necha hunar egasi qilib tarbiyalashgan.



XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab o'tgan taniqli olim va ma'rifatparvar Aliy Nazimoning Markaziy Osiyoda katta shuhrat qozongan va maktab madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan "Ta'limi banot" ("Qizlar tarbiyasi") kitobida quyidagi jum-lalarni o'qiymiz: "Yosh qizlarga ta'limtarbiya berishda ular uchun nihoyatda kerakli, o'rganmaslikning aslo iloji bo'lmagan fan qo'l hunarlari fanidir. Eng yuqori bilim va ma'lumot ham bu fanning o'rnini bosa olmagan bo's yosh xonimqizlar bu fanni o'rganish-ga tirishishlari lozim. Qo'l ishlariga usta bo'lgan ayol qo'llarining mohirligi, chapdastligi sababli adabu iffat ichida tirikchiligini qila oladi. Boy oilalarning xonimlari qo'l hunari orqasida xush va huzurli vaqt o'tkazishadi hamda muhtojlarga yordamlar ko'rsatib, odamiylikda bo'lurlar. Igna bir to'g'ri va chin do'st

bo'lib, ko'p vaqtda yurt xalqining yordamchisi va eng qimmatli qurollaridan biridir. U yolg'iz vaqtlarda yupanch bo'lib, g'amqayg'uni daf qiladi, yaxshi ishlarni ro'yobga chiqaradi, kerak bo'lganda faqirlik va muhtojlikka qarshi kurashadi. Qo'l hunarlarini kichkina yoshdan boshlab tartibi ila o'rgatish lozim”.



FARZAND BURCHI VA VAZIFALARI

Ma'lumki, ota onalar o'z farzandlarini cheksiz muhabbat va mehrshafqat, kuch g'ayrat va mablag'larini darig' tutmay tarbiya qilib o'stiradi. Binobarin, har bir farzand zimmasiga ham aqlan, ham shar'an o'z ota onasiga nisbatan behisob burch va vazifalar yuklanadi. Har qaysi otaona o'z farzandiga aqlini tanishi bilan kattalar, xususan, o'zining dunyoga kelishiga va ulg'ayishiga, tarbiya topishi va ilmu odob o'rganishiga sabab chi bo'lgan ota onasi haqini ado etishni tushuntirib borishi kerak.

Foydali ilm. Buning ma'nosi din-u diyonatga yoki ilm-u hikmatga doir kitoblar yozib ketishdir. Diniy va dunyoviy ilmlardan dars berib, shogirdlar qoldirib ketish ham shunga kiradi. Mana, hozirgacha foydalanib kelinayotgan minglab diniy kitoblarimizni yoki Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiyning asarlarini olaylik, bularning hammasi necha asrlar oldin yozilgan bo'lsa-da,

hanuzgacha o'z qimmat va e'tiborini yo'qotmay, butun insoniyat



Solih farzand. Solih va qobil farzandning to'g'ri yo'lda xayrli ishlarni qilib yurishining savobidan, albatta, o'tib ketgan ota onalari bahramand bo'lishlari ma'lum qilinadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Islomda farzandlar burchlari bilan bir qatorda ularning haqlari ham mavjud. Bu haqlar ularning otaonalari yoki yaqin qarindoshlari, yashayotgan jamiyatlariга vazifa qilib yuklatilgandir. Bu haqlarni ado etish vojib bo'lib, unga amal qilmoqlik majburiydir.

Onalar ana shunday ulug' va mukarram zotlardir.

“Jannat onalar oyog'i ostidadir” degan hadisi sharifga muvofiq, farzandlarimizga kichikligidanoq onalarni hurmatlashni, aytganlarini so'zsiz bajarishni, yaxshi muomalada bo'lishni o'rgatish lozim.

Oilaning muallimasi ona bo'lsa, uning posboni va ustuni otadir. Farzandga otaday mehribon, otaday g'amxo'r kishi yo'q. Farzandning dunyoga kelib, hayotda o'z o'rnini topishida uning alohida xizmatlari bor. Ota oilani moddiy jihatdan ta'min-



laydi: oilasi, farzandlari yashashi uchun uyjoy hozirlaydi, ustlariga libos topadi, yemakichmagi payidan bo'ladi. Ta'limtarbiyasi bilan shug'ullanadi, uylab joylaydi. Boringki, har bir oilaning ravnaqi va kamoli yo'lida eng ko'p jon kuydiradigan kishi otadir.

Otalar farzandlarining chin inson bo'lib ulg'ayishi, ta'limtarbiya olishi, kasb-u hunar o'rganishi yo'lida jonini, molini, kuchg'ayratini sarflaydi. O'g'il-qizlarining axloqodobi, ilmi, salohiyatini o'nglaydi. Farzandga kelgan balo-qazolarga ko'ksini qalqon qiladi. Shuning uchun ularning bu xizmatlarini bilish va qadriga yetish, buning shukronasi uchun ularga itoatda bo'lish, farzandlik burchini o'tashga hamisha shay turish lozim. Chunki adolat mezonini ularning g'amxo'rlik va xizmatlarini munosib taqdirlashni taqozo etadi.

Bir kuni kelib kechagina navqironlik va baquv-
vatlikdan masrur yurgan ota keksayib, qaddi dol
bo'ladi. Sog'lig'iga putur yetadi, ko'zlaridan nur
ketadi, har ishda boshqalar yordamiga muhtoj
bo'lib qoladi. Hayot qonuniga ko'ra, kechagi ojiz
farzand bugun ulg'ayib, kuchquvvatga to'ladi, aqli,
fikri, iqtidori yuksaladi. Ana shunday paytlarda
farzandlar otalaridan insonlik qarzlarini uzi-
shi, ya'ni chiroyli muomala qilishi, ular sha'niga
dog' tushirmaydigan, munosib insonlar bo'li-
shi, qo'llaridan kelganicha yordam berishi kerak.

Avlodlarimiz asrlar davomida ota onalarga
yaxshilik qilishni buyurgan. Ammo ayrim yosh-
larimiz bu ilohiy amrni unutib qo'yishyapti.
Yashirib nima qilaylik, oramizda otalariga qo'pol,
yomon muomalada bo'ladiganlar, iltimoslarini ba-
jarishni «esdan chiqarib» qo'yadiganlar ham bor.
Ularning dilini og'ritadigan, o'zining yomon xulqi
bilan el orasida otasini sharmanda qiladigan, otaga
xatto qo'l ko'tarishgacha boradigan nobakor
farzandlar ham uchrab turishi sir emas. Eng
achinarlisi, ba'zi noqobil o'g'ilqizlar boylik va im-
koniyatlari bo'lgani holda, otalari keksayib, madad
va daldaga muhtoj bo'lib qolganlarida ularni
e'zozlab parvarishlash o'rniga yo qarovsiz tashlab
qo'yishadi, yo qariyalar uyiga jo'natishadi. Keksaygan

otalarining xonadonga keltiradigan barakotlaridan manfaatlanish, duolarini olish o'rniga, aksincha, diydoriga zor qilib, xo'rlashadi. Bu borada; «Otalarigizni hurmatlab, ularga yaxshilik qilinglar, farzandlaringiz ham sizlarga yaxshilik qilishadi».


Dono xalqimizda "Ota bo'lish oson, otalik qilish qiyin", "Nima eksang, shuni o'rasan", "Ota rozi – Xudo rozi" kabi ajoyib hikmatlar bor. Otalar ko'nglini topish, hamisha xizmatiga shay bo'lish, hadyalar berib, xursand qilish, har jabhada ular roziligini topish farzandning asosiy burchlaridandir.

Farzand otaonaga qancha yaxshilik qilmasin, o'zining dunyoga kelishiga sababchi bo'lgan zotlar mukofotini hech vaqt ado eta olmaydi.

Solih ajdodlarimiz otalarga hurmat ehtirom ko'rsatishda, ularni rozi qilib, farzandlik burchlarini sharaf bilan o'tashda avlodlarga ibrat va namuna bo'lishgan. Umar ibn Zar aytadi: "Agar kunduzi yursam, o'g'lim odob yuzasidan ortimda kelar, kechasi esa menga biron ozor yetishidan qo'rqib oldimda borar, mendan yuqorida bo'lmaslik uchun xatto men turgan uy tomiga ham chiqmas edi".

Ota onaning, ayniqsa, otalarning farzand zimmasidagi haqlari o'ta muhim va e'tiborga loyiqdir. Shuning uchun har bir farzand hamisha ota ko'nglini olish, duolariga sazovor bo'lish, xizmatlarida

kamarbasta turish, yaxshi ishlari, hadyolari bilan xursand qilish payida bo'lishi lozim. Yaxshi farzandlar esa bunday yaxshiliklarni ota vafotidan keyin ham davom ettirishadi, duo va istig'forda bardavom bo'lishadi, uning do'st va aqrabolarini yo'qlab turishadi, solih amallari bilan sha'nini pok saqlashadi.



ODOB BOLALIKDAN

Bolalik chogʻimizda kattalar soʻzlab bergan ertaklarning qahramonlari dev, yalmogʻiz yoki alvas-ti kabi qoʻrqinchli mahluqlar oldiga kirganda salom berishar, bunga oʻsha mahluqlar: “Agar saloming boʻlmaganida, ikki yamlab, bir yutar edim”, deb javob qaytarardi. Oʻsha ertaklarda bir joyga albatta salom bilan kirish zarurligiga nega bunchalik urgʻu berilganining sabablarini ulgʻaygachgina tushund-ik. Shuning uchun bola esini tanishi bilan uchragan tanish notanishga salom berishini talab qiling.

Chunki salomlashish insonlar odobining boshi, tanishuv muqaddimasi, axloqining asosiy shartlaridan biridir.

Har bir ota ona farzandiga tarbiya odob berar ekan, eng avvalo salomlashishni oʻrgatsin.

Ota-bobolarimiz azaldan oʻgʻil qizlarning chiroyli xulqli, odobli boʻlishiga katta ahamiyat berganlar.

Hamma zamonlarda, hamma oʻlkalarda yaxshi xulqli, olijanob, shirinsoʻz, halim insonlar jamiyatning koʻrki, odamlarning aʼlosi boʻlib

kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Ayniqsa, Sharq olami bu borada butun insoniyatga ibrat namuna bo'lgan.

“Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin! Kichikni hurmat qilmagan, keksaning qadriga yetmagan bizdan emas”.

“Odamlarga taom beringlar va shirinso'z bo'linglar”.

“Yaxshilikni chehralari ochiq, xushro'y odamlardan kutinglar”.

“Din chiroyli xulq va g'azab qilmaslikdir”.

“Sizlarning eng yaxshilaringiz xulqatvori yaxshi bo'lgani va xotinlariga yaxshi muomala qilganidir”.

“Do'st birodarlariga qovog'ini solib qaraydigan kishilarni Alloh yoqtirmaydi, U har ishda muloyimlikni yaxshi ko'radi”.

“Odamlar bilan xush muomalada bo'linglar, ularga qattiqqo'llik qilib, behayo so'zlamanglar”.

“O'zini kamtarin olib yuruvchi, halol kasb qiluvchi, qalbi pok, ko'rinishi yoqimli, odamlarga zarar yetkazmaydigan, xayr ehson qiladigan, behuda gapdan o'zini tiyadiganlar insonlarning eng yaxshilaridir”. Bu kabi hadis va hikmatlarni yana ko'plab keltirish mumkin. Har bir otaona ana shu ko'rsatmalarga binoan bolasini chiroyli xulq egasi

qilib tarbiyalasin, unga odob o'rgatsin. Chunki yaxshi xulq insonlarni birbiriga ulfat qiladi, yomon xulq ularni ajratib tashlaydi. Yaxshi xulq muhabbatni, hamkorlik va murosani taqozo etsa, yomon xulq nafrat, hasad va kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi.

Umar ibn Xattob: "Insonlarga chiroyli xulqlar bilan aralashinglar. Ulardan yaxshi amallar bilan ajralib turinglar", - deb aytganlar. Ali ibn Abu Tolib: "Husni xulq uch xislatda bo'ladi: haromlardan saqlanishda, halolni istashda va oilani farovon qilib qo'yishda", - deganlar.

Hasan Basriyning bunday so'zlari bor: "Husni xulq ochiq yuzli bo'lish, molni sarflash va aziyat berishdan o'zini tiyishdir".

Sahl Tustariy aytadiki: "Husni xulqning eng ozi aziyatlarni ko'tarish, tovon (puli)ni tark etish, zolimga ham rahm qilish va unga istig'for aytishdir".

Yoshlar tarbiyasi haqida so'z borar ekan, ularga tegishli umumiy odobxloqlar haqida Imom G'azzoliy aytgan so'zlarni naql etishni lozim topdik: "Yoshlar tilla taqinchoq va turli zebu ziynat taqmasliklari lozim. Ular o'tirish, turish, salom berish odoblariga rioya etishlari, o'zlaridan kattalar huzurida oyoqlarini chalishtirib o'tirmasliklari, sergap va so'kuvchi bo'lmasliklari, behayo so'zlarni aytmassliklari, xususan,

yomon xulqli tengdoshlariga aralashishdan ehtiyot bo'lishlari kerak.

Inson insofli bo'lish, boshqa odamdan ayb qidirmaslik, nojo'ya harakat qilayotganni to'g'ri yo'lga boshlash, aybiga iqrор bo'lganning uzrini qabul qilish, o'zgalar mashaqqatini zim-maga olish, faqat o'z manfaatini ko'zlamaslik, ochiq yuzli va shirin so'zli bo'lish, muhtojlar hojatini chiqarish, muloyim va tavozeli bo'lish".

Luqmoni hakimdan: "Sen o'zing ko'rgan illatlar va ayblardan qay biriga davo topa olmading?" deb so'rashibdi. U: "Men barcha illatlarga hikmat yuzasidan davo topdim, ammo davolay olmaganim badfe'llik bo'ldi", - deya javob qaytargan ekan.

Suqrot hakimning bunday so'zlari bor: "Halol mehnat, muhtojlarga yordam, g'azab vaqtida yomon so'zlardan tilni va birovga ozor berishdan qo'lni tiyish, kamchilikni bitirib hamda yomon xulq atvorni tuzatib, go'zal axloq sohibi bo'lish eng yaxshi fazilatlardir".

"To'g'ri yo'ldan og'ishmaslik, insofli, adolatli bo'lish, nafs orzusiga qarshi borish, olim fozillar bilan suhbat qurish, kattalarga hurmat va kichiklarga shafqat qilish, samimiy do'stlar maslahati bilan ish tutish, muhtojlarga yordam ko'rsatish ezgulikning ma'danidir",

- degan ulug' hakimimiz Abu Ali ibn Sino.

Yusuf ibn Asbotning aytishicha, "Husni xulqning alomati o'n xislatdadir: o'zgalar bilan ixtilofga bormaslik, chiroyli insof, birovlarining to'yilib ketishini istamaslik, boshqalarning bilingan kamchiligini yaxshilikka yo'yish, uzr so'ray olish, aziyatlarga chidash, nafsini tergov qilib turish, o'zganing emas, o'z aybini bilish, katta-yu kichikka birday ochiq yuzli bo'lish, o'zidan yuqori yoki past kishiga ham muloyim so'zlash".

Farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota ona uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo'lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borsinlar:

farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso'z, muloyim, bosiq, halim va kamtar bo'lishga harakat qilishiga e'tibor qarating. Bolangizni kichiklarni izzat-ikrom, kattalarni hurmatehtirom qilishga o'rgating.

U odamlar bilan yaxshi munosabat o'rnatsin, qo'pol va behayolarcha so'zlab, dillarni og'ritmasin. Chunki insonlarning eng yaxshisi murosaga oson keladigan, qalbi pok, ortiqcha gapso'zlardan o'zini tiyadigan kishilardir.

Odamlar xursandchiligini baham ko'rish, g'amanduhidan qayg'urish, molmulkiga xiyonat

qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga bolalikdan ana shu xislatlarni singdirish payida bo'ling.

Farzandingizga o'zgalar bilan muomala chog'ida boshqalarni g'iybat qilish, hasadgo'ylik, suhbatdoshini kamsitish, kamchiligini yuziga solish, o'zgalarni mensimay past nazar bilan qarash, obro'yi, boyligi yoki mansabiga qarab muomala qilish ham odobsizlik ekanini yaxshilab tushuntiring.

Shuningdek, yoshi ulug' kishilar, ustozlar, ilm ahllari bilan muomalada ularning ko'ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, amrlarini so'zsiz bajarish, xizmatlariga shay turish ham yoshlarga yarashqli odobdandir. Shu bois ularni bolalikdanoq ana shu odoblarga o'rgatib boring.

Hozirgi paytda dunyoning ko'p mamlakatlari aholisi oila inqirozga uchragani, farzandlar tarbiyasi batamom izdan chiqqani, kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar asliy o'zanidan chetga chiqib ketgani azobini chekyapti. "Otalar va bolalar ixtilofi" degan soxta muammolar o'ylab topilib, tarbiya sohasidagi xatolarni xaspo'shlashga harakat qilinyapti. Bu ahvolni tuzatish borasida qanchalab tadqiqotchilar, olimlar va siyosatchilarning boshlari qotgan.

Sharq oilalarida esa bu muammoning bo'lishi mumkin emas. Chunki bizda bolalar kichikligida-noq kattalarni hurmat qilish, ularning aytganiga quloq solish, gap qaytarmaslik, har bir ishda maslahat so'rash ruhida tarbiya qilinadi. Odobimizda otaona chaqirganda har qanday ishni tashlab, "labbay" deb borish, nima buyu rishsa ham "uf" tortmay bajarish, qarib yordamga muhtoj bo'lishganida har tomonlama mehru muhabbat ko'rsatish, xatto davrada ulardan yuqoriga chiqmaslik, beruxsat so'zlamaslik, ko'chada oldilariga tushib yurmaslik talab etiladi.



Yaxshi, odobli farzandlar otaonalarini hamisha boshga ko'tarishadi, aytganlarini muhayyo etishadi, izzatikrom qilib, duolarini olishadi. Chunki bu "qaytar dunyo" ekanini yaxshi bilishadi otaonaga qilgan yaxshiliklari ertaga o'n chandon bo'lib farzandlaridan o'zlariga qaytishidan umid qilishadi, yomonlik qaytib qolmasligi choralarini ko'rishadi.

Ba'zan yig'in va davralarda suhbatdoshlarning bola tarbiyasiga oid bahs- munozaralarini eshitishga

to'g'ri kelib qoladi. Farzandlar tarbiyasi yaxshi bo'lishining omillarini har kim o'zicha sharhlaydi. Kimdir ulug' muallimlar tajribasiga ko'ra tarbiya berishni tavsiya etadi. Boshqasi ota ona, avvalo, o'z ibrati bilan tarbiyalashi lozim, deb hisoblaydi. Birov bog'cha va maktabdagi tarbiya tizimini foydali sanasa, yana kimdir bolani yomon ulfat va muhitdan himoya qilishni asosiy masala, deb biladi. Lekin ko'pchilik bolaning solih, eshushli, tarbiyali, itoatgo'y bo'lib ulg'ayishi-ning bosh sabablari haqida o'ylab ham ko'rmaydi.

Hadisda aytilishicha, rostgo'ylik insonni doimo yaxshilikka chorlaydi. Ongida rostgo'ylik, vafodorlik, fidoyilik kabi tushunchalar o'rnashgan yoshlardan kelajakda ko'plab xayrli ishlar kutish mumkin. Hasan Basriy bir kuni yoshlar tarbiyasiga e'tiborni jalb qilish maqsadida hamsuhbatlariga: "Ey keksalar! Ekin pishib yetilganidan so'ng nima qilinadi?" - deb savol berdilar. "Hosili yig'ib olinadi", - deyishdi. Shunda Hasan Basriy: "Ey yigitlar! Shuni bilinglar, gohida ekin pishib yetilmasidan oldin unga ofat (kasallik) yetishi mumkin", deb kishining o'spirinlik davrini qanday o'tkazishi uning kelajakda kim bo'lib yetishuvida muhim o'rin tutishiga ishora qildilar.

Ma'lumki, yoshlik insonning aqliy va jismoniy rivojlanish davri bo'lib, ayni shu pallada farzandla-



ringizni ilmga va kasbhunarga targ'ib qilishimiz lozim.

Yoshlikda o'rganilgan ilm toshga o'yilgan naqsh kabidir, keksalikda o'rganilgan ilm esa suvga yozilgan kabidir, olimlarga ham ilm asosan yoshlik chog'larida berilgan.



Hayotda kattalar va bolalar o'rtasida ma'lum kelishmovchiliklar, birbirini tushunmaslik, birbiriga "g'ayrilik" kabi holatlarning bo'lishi tabiiy. Chunki ko'p hollarda ularning yoshi va hayotiy tajribasi borasidagi keskin farq "o'z hukmini o'tkazadi". Ota hayotda erishgan tajribasi, mavqei, bilimi doirasida fikr yuritib, bolasidan ham shunga munosib bo'lishni talab qiladi.

Bola esa hali g'or, tajribasiz bo'lganidan otaning nashatini o'z erkiga tajovuz sifatida qabul qiladi. Ota o'rgatganlarining aksini bajargisi keladi. Fitratidan kelib chiqib, otaning xatosini u ham o'zi bilmagan va xohlamagan tarzda takrorlashga majbur bo'ladi. Otaning o'z farzandi "bu xatolarni takrorlamasligi uchun" jon kuydirishi samarasiz ketadi. Bunda uning jig'ibiyron bo'lgani ham, boshini changallagani, yuragini siypagani ham ish bermaydi.

Yosh va zamon orasidagi farq bois kattalar va bolalarning dunyoqarashi, qiziqishlari, qadriyatlari, turmushga munosabatlari ham turlicha bo'lishi tabiiy. Xatto kiyinish, muomala, ovqatlanish kabi oddiy holatlarda ham ikki tomon keskin farqlanishi mumkin. Bir qarashda arziyas ko'ringan bu holatlar ham ba'zan to'qnashuvlar omiliga aylanib ketadi.

Hech e'tibor berganmisiz, farzandingiz siz istaganday kiyinmasligi, siz yoqtirgan ovqatni yemasligi, siz berilib eshitib turgan musiqani xohlamay, "boshqa sho'xrog'iga olaylik", deb iltimos qilishi mumkin. Bu bolaning injiqligi yoki "buzilib ketayotgani", yoxud qaysarligi va itoatsizligi belgisi emas, balki uning yoshi va u yashayotgan davr bilan bog'liq o'ziga xos ehtiyojidir.

Ko'pni ko'rgan qariyalar, tajribali kishilar bilan suhbatlashsangiz, bir narsani takror va takror

eslatishadi: hamma davrda ham kattalar yoshlarning “buzilib ketayotgani”dan, hayotni tushunmasligidan, yoshi ulugʻlar bilan munosabatlarda betgachoparlik, qaysarlik qilishidan nolib oʻtadi. Gap, albatta, “ha, bizning davrimiz boshqacha edi, yoshlar odobli boʻlardi, kattalardan hayiqib turar edi” degan nadomat toʻla ohanglarda yakunlanadi. Yoshlarga quloq solsangiz, ular ham, oʻz navbatida, kattalarni qoloqlikda, davrni va yoshlarni tushunmaslikda, oʻz hukmini oʻtkazishga urinishda ayblashadi. Ular ham gapni “hozirgi yoshlarga qiyin boʻlayotgani” haqidagi taassuflar bilan yakunlashadi.

Tajribalardan maʼlumki, farzand uchun ota-onadan sadoqatliroq, ulardan fidoyiroq, mehribonroq doʻst topish qiyin. Oʻgʻil yoki qizning boshiga bir musibat yoki balo kelganida hamma undan voz kechib, tashlab ketishi mumkin. Faqat otaona bunday qilolmaydi: farzandi bilan babbaravar qaygʻuradi, figʻon chekadi, yarasiga malham qoʻyadi. Ammo bu sadoqat va fidokorlik ham ayrim farzandlarga koʻp hollarda yoqmaydi, ularning ortiqcha mehribonchiligidan jahli chiqadi. Goʻyo uni yosh bola sanab, ortiqcha iltifot koʻrsatishayotgandek tuyuladi. Boshidan musibati arishi bilanoq yana eski “doʻst”larini izlashga tushadi. Ota ona esa farzandining bu qiligʻidan zarracha xafa boʻlmay, ilgarigidan

ham zo'rroq sadoqat va iltifot ko'rsataveradi.

Ota onalar o'z farzandlari bilan murosa qilish, ularning ko'nglini topishda yana bir jihatga ahamiyat berishlari kerak.

Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o'z otabobolari, tarixi, Vatani, ona tili, o'z millatini ulug'lagan siymolarga sodiq bo'lishsin.

Farzandlari ulg'aygan sari ota bolalariga va ular taqdiriga yanada xushyorroq qarashi lozim, ularni yuksak qadriyatlarimizning asl va baquvvat ildizlaridan



bahramand etish, bugungi turmush tarzimizga mos tarbiya berish, albatta, otaonalar zimmasidagi muhim vazifalardan sanaladi. Kezi kelganida, kitobimizning oldingi boblarida aytib o'tganimizdek, farzandlarimizning biriga aytilgan nasihat ayni chog'da uning akaukala riga ham tegishli bo'lishi, xonadondagilarning barchasiga birday ta'sir qilishini nazarga olgan holda ish tutishimiz va bolalarimizning ilm olishlari va kasbhunar egallashlariga maslahatchi va hamfikir bo'lishimiz kerak. Ularni tevarakatrofimizda bo'layotgan voqea-hodisalar, o'zgarishlarga befarqlik emas, balki daxldorlik ruhida tarbiyalashimiz, kelajakka katta ishonch bilan boqishga

o'rgatishimiz kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytsak, yoshlarimizning har tomonlama komil, go'zal xulqli, mustaqil fikr va dunyoqarashga ega, turli salbiy odat, illat va ta'sirlardan xoli qilib voyaga yetkazishda, albatta, jamoat tashkilotlari, ota ona, mahalla va ulamolarning o'rne beqiyosdir. Odob va husni xulq sohibi bo'lgan yoshlarga ilm va kasbhunarda yuqori darajalarga erishadilar. Bugungi texnika asrida bizning farzandlarimiz har tomonlama yetuk, sog'lom, aql farosatli va baxtli bo'lishlari kerak. Dunyoviy bilimlar bilan birga diniy bilimlarni yoki diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlarni ham puxta egallashlari kerak. Mana shunday yoshlar mustaqil O'zbekistoni-mizning kelajagi, ishonchi va davomchisi bo'la oladi.

Alloh taolo yoshlarimizni husni xulq va chiroyli odob axloq bilan ziynatlantirib, otaonalariga faxr, ko'z quvonchi bo'lishlarini nasib aylasin!

Shogird ustoziga: "ustoz", "muallim", "janob muallim", "janob domla" deb murojaat qilsin. Ustozining ismini ustoz borligida ham, yo'qligida ham aytmasin. Agarda aytish juda kerak bo'lsa, "fazilatli ustozim bunday dedilar" yoki "ustozim falonchi bunday dedilar", yoki "yo'lboshchim faloniy bunday dedilar", deb aytsin.

"Agar birontadan bir hadis eshitsam, unga qul

bo'lardim va uning huzuriga teztez borib turardim", dedi.

Ta'lim oluvchi bola ustozni tirik vaqtida haqiga duo qilishi, ustoz vafot etganidan so'ng avlodlari, qarindoshlari va do'stlaridan xabar olishi, qabri-ni ziyorat qilishi, ustozga istig'for aytishi, uning nomidan ehson qilishi, dinda, ilmida, xulqda un-ing o'rgatganlariga rioya qilishi, ilmiga ergashishi (iqtido qilishi), odobi bilan odoblanishi lozimdir.

Shogird ustozidan yetayotgan ba'zi aziyatlarga sabr qilmog'i, bu hol ustozdan ilm olishiga monelik qilmasligi kerak. Albatta, ustoz shogirdini bekordan bekor koyimaydi. Shogird bunday paytda o'zini taftish qilsin, ustozidan uzr so'rasin. Shunday qilsa, ustoz va shogird uzoqlashmaydi, qaytaga yaqin-lashadi. Shogird xato qilsa, ustoz uni yo'lga soladi.

Ulug' salaflarimiz aytadilar: "Kim ilm olishda sabr qilmasa, nodonligicha qoladi. Sabr qilsa, dunyo va oxirat saodatiga erishadi". Ibn Abbos: "Tolib bo'lib xorlandim va matlub bo'lib aziz bo'ldim", - dedi.

Shofi'iy (rahmahulloh) aytadi: «Sufyon ibn Uyaynaga: "Sizga odamlar yerning turli burchagidan ta'lim olgani keladilar, siz ularga qattiq gapirasiz. Ular sizdan ketib qolishlari va sizni tark etishlaridan qo'rqmaysizmi?" deyilganida, u kishi: "Shuning uchun ular meni tark etsalar, ular ahmoqdir", - dedilar.

Yana u kishi dedilar:

Ustoz va tabib har ikkisi agar hurmatlanmasa, nasihat qilmas. Dardingga chidar agar tabibga jafo qilsang, nodonligingga chidar agar ustozga jafo qilsang.

Shogird ustozi huzurida odob, tavoze bilan o'tirishi, chalg'imasligi, butun e'tiborini u kishiga qaratiishi lozim. O'tirganida barmoqlarni qircillatish, huda-behuda yo'talish, tomoq qirish, burin tortish, pishillab nafas olish, u yer bu yerini qashish, yonidagi bilan gaplashish kabilar ustozga hurmatsizlik sanaladi. Chunki ustoz ro'parasida qancha tolibi ilm o'tirsa, barini ko'rib, nima bilan mashg'ulligini bilib tura-di. Shogirdning bitta noo'rin harakati uni ranjitishi, fikridan chalg'itishi maromiga yetmay qoladi. mumkin. Natijada, dars Olimning shogird ustidagi haqlarini bayon qilishda hazrat Ali bunday dedilar: "Olim (ustoz)ning sendagi haqi: hammaga umumiy salom bersang, ustozga salomni xos qil, uning huzurida qo'ling va ko'zing bilan ishoralar qilma, "falonchi bu so'zning aksini aytdi" dema, birovni



g'iybat qilma, uning xatosini qidirma, agar adashsa, uzrini qabul qil, uni Alloh uchun ulug'la, agar ishi (hojati) bo'lsa, uni qilishga shoshil, huzurida biron kishi bilan shivirlab gaplashma, kiyimidan ushlama, agar dars berishni kechiktiradigan bo'lsa, undan talab qilma, suhbatidan to'yib qolma, chunki u xurmo daraxtiga o'xshaydi, undan qachon bir narsa tushadi deb kutgin (intizor bo'l).

Shogird ustozi o'tirgan sinfga yoki xos joyga kirishda izn so'raydi, ustoz bir o'zi bo'ladimi yoki boshqalar bilan bo'ladimi, baribir. Agar ruxsat bermasa, qayta so'ramaslik kerak. Ustoz huzurida chiroyli kiyinmoq, o'ziga qaramoq, xushbo'yliklar surmoq kerak.

Ovqatlanayotgan idishingiz qancha chiroyli, pokiza bo'lsa, ishtaha ham shuncha yaxshi, nonushta ko'ngilli bo'ladi. Ustoz huzurida ham shogirdning qalbi chiroyli, pokiza bo'lishi kerak. Bunday qalbg'a ilm o'tiradi, samarasi kutilganidek bo'ladi.

Shogird ustozidan bir hukmni yoki qimmatli fikrni, yoki bir hikoya, she'rni eshitsa, uni yod olsin yoki esda saqlab qolsin. Tinglayotganida hayrati yuzko'zlaridan sezilib tursin.

“Men hadisni bir kishidan eshitaman, vaholanki, men bu hadisni undan yaxshiroq bilaman, shunday bo'lsa ham, o'zimni bilmagandek tutaman”, degan.

Men bir hadisni biron bir yosh yigitdan avval eshitmaganimdek eshitaman, vaholanki, men utug'ilmasidan oldin hadisni eshitganman", degan.



Shogird dars paytida hafsalasizlik qilmasin, balki zehnini o'tkirlasin, savollarga javob berish bilan mashg'ul bo'lsin. Ustoz aytgan darsni albatta tayyorlasin. Agar ustozning so'zini anglamay qolsa, uzr aytib, so'rab bilib olsin. Bunday holatdan ustoz ranjimaydi, balki shogirdining talabchanligidan, loqaydemasligidan xursand bo'ladi. "So'rab o'rgangan olim, orlanib so'raman o'ziga zolim", - dedilar hazrat Navoiy. Albatta, biz aytayotgan talablar bola maktabga yoki madrasaga borganida o'z o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. U o'quv dargohiga borguncha, ustozga ro'para bo'lguncha, oila davrasida bu haqda tushuncha shakllanishi kerak. Bu ishga xususan otana, bobo va buvilar, amma xolalar mas'uldirlar.

.. ————— —————
Toki bola maktab, ustoz haqidagi tushunchalarga oldinroq ega bo'lsin, birdaniga notanish olamga tushib qolgandek bo'lmasin. Albatta, bola o'qishga qatnayotgan akaopalarini ko'rib ilk ko'nikmani oladi. Lekin bu ko'nikma otaonaning, kattalarning ta'kidlashi, tushuntirishi bilan mukammal bo'ladi.

Habib ibn Shahid: "Ey o'g'lim, faqihlarga va olimlarga ergash, ulardan ilm o'rgan va odoblaridan olgin, chunki bu menga ko'p hadisdan mahbubroq", - dedi.

Muxallad ibn Husayn bir kuni Ibn Muborakka: "Biz ko'p hadisdan ko'ra ko'p odobga muhtojroqmiz", dedi. Ba'zi salaflar farzandlariga: "Odobdan bir bob o'rganish yetmish bob ilm o'rganishdan yaxshiroqdir", deb ta'lim bergan.

Albatta, biz zikr etayotgan odoblar ustozlar haqini ado qilish, taqvoli bo'lish, Islomga sodiq qolish, Alloh uchun viqorni umid qilish, Islomni aqida va shariat deb, Qur'oni karimni dastur deb imon keltirishni talab qiladi.

Do'st kasal bo'lganda borib ko'rish.

Imom Buxoriy Abu Musodan rivoyat qiladi: "Bemorni borib ko'ringlar, ochga taom beringlar va



qullarni ozod qilinglar”.

Oshnolar bemorning, u qanday kasallikka: ko‘z og‘rig‘i, tish og‘rig‘i va boshqa dardga yo‘liqqan bo‘lishidan qat’inazar, undan hol-ahvol so‘rash kerak.

Kasal kishi garchi g‘ayridin bo‘lsa-da, uni ziyorat qilish lozim. Kasalning oldiga kirilganda, ochiqyuzlilik, tabassum va shafqat bilan muomala qilish kerak. Bemorning oldiga yangi kiyimlar bilan kirilmaydi. Tabassum bilan kirilib, bemorning bosh tarafida o‘tiriladi. Bemorning yuziga tez-tez qaramaslik, ko‘p va baland ovozda gapirmaslik zarur. Qo‘lini kasalning peshonasiga yoki qo‘liga qo‘yib, undan ahvolini so‘rash lozim.

Bemordan ko‘nglingiz nimani tusaydi, deb so‘rash kerak. Agar bemorning ko‘ngli tusagan narsa unga zarar bo‘lmasa, uni keltirib berish yoki yaqinlariga keltirib berishni aytish zarur.

Bemorning oldida ko‘p o‘tirmaydi va tez turish darkor. Illo, bemorning o‘zi buni talab qilsa, uning ko‘nglini ko‘tarish uchun ko‘p o‘tirish joiz. Bemor bilan suhbatlashish asnosida uning ko‘nglini ko‘taradigan so‘zlarni va hikoyalarni aytib berish kerak.

YAXSHILIKKA CHORLASH

Farzandga turmushning, tarbiyaning muhim qoidalarini yoshligidan o'rgatish, uning qalbiga bunyodkorlik tuyg'ularini singdirish ota ona va murabbiylarning hamisha dolzarb vazifasi bo'lib kelgan. Farzand Islom dinimizning asosiy qoidalaridan biri bo'lgan yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarishni odat qilishi lozim.

Har bir inson hayotda ma'lum maqsad sari intilib yashaydi. Jamiyatning odobaxloq bilan ziynatlanishi uchun harakat qilish va odamlarning turli muam-molariga dardkash bo'lib, o'zini ezgu ishlarga mas'uliyatli his etish shaxsning maqsadi bo'lishi lozim. Shundagina mo'min kishi o'z manfaati uchun emas, butun jamiyat farovonligiga kuchg'ayrat sarflagan bo'ladi. Bunday inson to'g'ri yo'ldagilarni qo'llab-quvvatlab, adashganlarni hidoyatga chaqiradi. Zero jamiyatning gullabyashnashi ham, falokati ham har bir kishining taqdiri bilan bog'liq. Chunki kema suvga cho'kkan payt, garchi uni kema ostidagilar

teshgan bo'lsa ham, kema ustidagi bu ishga umuman aloqasiz sayyohlar ham suvga g'arq bo'ladi.

Demak, hayotda ba'zi bir xatolarga yo'l qo'ygani kishini to'g'ri yo'lga solish mo'minga xos bo'lgan xislatdir. Shuning uchun kishiga xatosini o'z vaqtida anglatish ham muhim. kishining xatosini yuziga solmasdan, uni to'g'rilash yo'llarini shaxsiyatiga tegmagan holda shirinsuxanlik bilan tushuntirish kerak buladi.

Murabbiylar farzand qalbiga jasurlik, shijoatlilik va to'g'ri so'zli bo'lishni ham singdirishi, Islomning ezgu tushunchalarini diliga joylab, Alloh yo'lida xayrli va savobli ishlarni ko'p qilishni o'rgatishi lozimdir.

Yurtboshimiz tashabbuslari bilan har yili 31-avgust kuni Toshkent shahridagi "Shahidlar xotirasi" maydonida nuroniy otaxonlar, mehnat faxriylari va mahalla oqsoqollariga dasturxon yozish, ularning ko'ngillarini shod qilish yaxshi an'anaga aylandi.

Keksalikning kasallik, ko'z xiralanishi, oyoqbel og'rishi, kuchdan qolish, avvalgi kuchquvvatning susayishi, qadamning mayda bo'lib qolishi kabi muayyan mushkulotlari va murakkab-



liklari bor. Lekin qarilik pallasida kishilar hayotga o'zgacha nigoh bilan boqadi. So'zlar salmoqli, nigohlar vazminlik kasb etadi. Hayotda ko'p tajriba orttirgan kishilar yuvosh va muloyim bo'lib qoladilar. Keksa odam zaiflashib, o'zi va o'zgalarga muloyimlik istaydi. Ularga nisbatan asosan uch holatda muloyimlik zarur: shirin muomalada, tansiq taom tayyorlashda va yumshoq o'rin to'shashda.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda ko'plab masjidlarda namozxonlar toat-ibodatlarini erkin ado etmoqdalar. Ammo bunday ulug' ne'matlar qadrini to'la anglamagan ba'zi g'or yoshlar ham uchrab turadi. Bir mo'ysafid bunday hikoya qiladi: "Keksalikning o'ziga yarasha gashti, huzurhalovati bor, albatta. Farzand-u nabiralar qo'llarini ko'ksiga qo'yib "Labbay, bobojon" deya xizmatga shay turi-shi, kelin-qizlarning tansiq taomlari, hovlijoylarni ozoda tutishi, yoshlarning hurmate'tibori va e'zozlashini ko'rib, shunday farovon kunlarda keksalik ne'matini bergan Yaratganga cheksiz shukronalar aytaman. Qalbim surgaga to'lib, yoshlarimiz haqiga duolar, Parvardigorga ibodat qilish maqsadida doim masjidga qatnayman. Lekin ba'zi holatlar meni ran-jitadi. Qariyalar jismonan zaif va qalbi nozik bo'la-di. Ayrim yoshlar esa ularning holatini his qilmay, o'tirganingizda orqadan turtib o'tsa, xafa bo'lasan

.. ————— ❦ ————— ..

kishi. Imomdomla bir necha bor: “Qariyalarni oldingi safga oʻtqizaylik”, deya ta’kidlasa ham, keksalarga e’tibor bermaydigan ayrim yoshlarni koʻrib achinaman. Ammo koʻplar yoshi ulugʻlarga ehtirom koʻrsatib, yuksak odob bilan: “Hoji ota, haqimizga bir duo qiling, biz ham yurtimiz va xalqimizga xizmat qilib, elning hurmatiga musharraf boʻlib, sizdek nuroniy boʻlib yuraylik”, deganlarida koʻzlarimda yosh qalqiydi”.



HURMAT KO‘RSATISH



Yoshlar keksalarga nisbatan yuksak odob, cheksiz hurmat va shirinso‘z ila munosabatda bo‘lishi lozim. Abu Umomadan rivoyat qilingan hadisi sharifda bunday deyiladi: “Uch toifa kishilarni: musulmon qariya, olim va odil podshohni faqat munofiq inson hurmat qilmaydi” (Hadis. Imom Tabaroniy rivoyati). Ushbu hadisi sharifdan yoshi kattalarni hurmatlash, ehtirom qilish fazilat ekani tushuniladi. Murabbiylar yoshlar qalbida yaxshi xulqlarga muhabbat uyg‘otishlari va ularni shunday fazilatlar sohibi bo‘lishga undashlari lozim. Quyida chiroyli odobning ko‘rinishlari haqida bayon qilamiz.

— — — — —
Mehmon yoki katta yoshli kishi kelganida boshqalarning o'rnidan turib kutib olishi odobdandir. Bu fazilat haqida farzandlarga ta'lim berish va shunga odatlantirish lozim.

Yoshligidan kattalarni hurmatlashga o'rgangan odam ilm, fazilat va maqom jihatidan o'zidan yuqori bo'lganlarni e'zozlaydi.

Murabbiy farzandga boshqalarni hurmatlash va ularga yaxshilik qilishni o'rgatsa, farzand hayoti davomida fazilatli kishilarni ulug'lashga va mo'ysafidlarni hurmatlashga intiladi. Keksalikka yetganlar bor, yetma ganlar bor. Qariyalarning ko'nglini chog' etib, ularning duosini olganlar aslo kam bo'lmaydi, niyatiga yetadi.

Diyorimizning ko'p hududlarida sovchilar yoki kuyovning otaonalari qiz, ya'ni kelin bo'lmishning oilasida yoshi ulug' kishilar borligini surishtirishadi. Agar oilada keksalar bo'lsa, qiz yaxshi tarbiya topgan, deb hisoblashadi. Albatta, bu hayotda ko'p sinalgan holatdir.

Darhaqiqat, bu bir ulkan ilm edi. Bu borada keltirilgan hadislar dengizdan bir tomchi, xolos. Murabbiylar farzandlarni shunday aziz xulq va yuqori odobga odatlantirishlari lozimdir. To farzandlarimiz katta yoshlilarni hurmatlash, olimlarni ulug'lash hamda boshqalar bilan muomalada to'liq tavoze'

va yuksak xulqli bo'lib ulg'aysinlar.

Murabbiylar farzandning o'rindan turib kutib olish odobi bilan xulqlantirishda ikki muhim jihatga e'tibor berishlari lozim.

Murabbiylar farzandlarni shu qoida asosida tarbiyalab, ularni bu chiroyli amallarga odatlantirmoqlari uchun avvalo o'zlari amallari bilan ko'rsatib bermoqlari lozim.

Farzand hatto keksalarni hurmat qilish va mo'ysafidlarni e'zozlashda pog'onama pog'ona ko'tarilib bora-



di. Yoshligidanoq Yoshligidanoq o'zidan katta yoshdagilarning haqlarini tushunadi hamda ilm, fazl va o'rin jihatidan o'zidan yuqori bo'lganlarni izzat-hurmat etish odoblarini ham fahmlaydi.

Shubhasiz, murabbiy boshqalarni hurmatlash va ularga yaxshilik qilish sabablarini va bu ezgu odat xosiyatidan keladigan yaxshiliklarni o'rgatsa va eng asosiysi, singdira olsa, farzand majburan yoki zarurat yuzasidan emas, balki chin qalbidan bu ziynatli amalni bajaradi. Fazilatli kishilarni ulug'lashga va mo'ysafidlarni hurmatlashga astoydil harakat qiladi.

Bu odob insonni ulug'lash va ehtirom qilishning eng yuksak pog'onasidir.

Ajdodlarimiz bu ulug'vor xislatlarni qalblariga mustahkam joylab, kattayu kichikka o'z o'rnida qo'llay bilganlar. Bu borada sobitqadamliklari bois Islom ummatlari ichra ma'naviyat va ma'rifatning yuqori cho'qqilarini zabt etganlar.

Bugungi yoshlarimizga tarbiya xususiyatlarini tushuntiradigan, sanab o'tilgan odoblarni ularning ong-u qalblariga nozik yo'l ila yetkaza oladigan darajadagi ota onalar va murabbiylar juda zarur. Ana shunday ruhda voyaga yetgan farzanddan, avvalo, otaona va butun jamiyat manfaat ko'radi.



Yurtimizdan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi jahonga dong'i ketgan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Yoshlarimiz ana shunday buyuk zotlarning avlodlari ekanlarini unutmagan holda, bobolar boshlagan qutlug' ishlarning davomchisi, Vatanimizga munosib farzandlar bo'lishi lozim. Shuningdek, hayotda ko'pni ko'rgan, mehnatda suyagi qotgan, hozir esa piru badavlat bo'lib yashayotgan otaxonlari onaxonlarimizdan o'rnak olishi kerak.

Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalar ham go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini keng targ'ib qilishgan. Jumladan, Imom Buxoriyning "Aladab almufrad" hadis-



lar to'plami, Abu Lays Samarqandiyni "Tanbeh-ul g'ofilin", Imom G'azzoliyni "Mukoshafat-ul qulub", Ahmad Yugnakiyni "Hibat-ul haqoyiq" asarlarida yuksak insoniy fazilatlar tarannum etilgan. Bundan tashqari, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Najmiddin Kubro, Muhammad Porso, Abdurahmon

Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkir allomalarimizning o'nlab asarlarida odob ahloqning go'zal namunalari badiiyfalsafiy talqin qilingan. Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy" asarini ham ana shunday hikmatlar bo'stoni sirasiga kiritish mumkin.

Asarda chiroyli axloq namunalarini bayon etishda ibratli rivoyatlardan ham juda o'rinli foydalanilgan.

Farzand ulg'ayib, insonlar bilan o'zaro muomalaga kirishadi. O'zaro muomala ham

da munosabat odoblariга amal qilganlar imon, taqvo, aqidasida hamda do'stlik, mehribonlik, o'zidan boshqani afzal ko'rishda qoim bo'ladi.



Jamoada o'zini tutish odoblari

Jamoat orasida insonni hurmatga sazovor qiladigan umumiy odoblar quyidagilar:

1. Ovqatlanish odobi.
2. Salomlashish odobi.
3. Ruxsat so'rash odobi.
4. Majlis odobi.

- 
- 
5. Soʻzlashish odobi.
 6. Hazilmutoyiba odobi.
 7. Tabriklash odobi.
 8. Kasal koʻrish odobi.
 9. Taʼziya bildirish odobi.
 10. Aksa urish va esnash odobi.

Sanab oʻtilgan odoblardan ayrimlari haqida imkon qadar batafsil bayon qilamiz.

Ovqatlanish odobi. Abu Dovud va Imom Termiziy Salmon Forsiydan rivoyat qilgan hadisda: “Taomning barakasi taomlanishdan oldin va keyin qoʻlni yuvishdadir”, deyiladi.

Bu odatning foydali tomonlari koʻp. Masalan, taomlanishga qadar qoʻl bilan turli narsabuyumlarni ushlab va xatti-harakat natijasida qoʻlga turli chang gʻubor hamda zararli mikroblar oʻrnashgan boʻlishi mumkin. Qoʻlni yuvish orqali ulardan tozalanadi, bu salomatlik uchun juda muhimdir.

- chaqirilmagan joyga bormang;
- taklif etilgan joyga kechikmang;
- mezbonlar taklif etmaguncha, dasturxon atrofiga oʻtirmang;
- dasturxonga uzoq ham, yaqin ham oʻtirmang;
- sochiqcha bilan oldingizni toʻsmang;
- ovqatlanayotganingizda taomni odob bilan tanovul qiling;

- 
- og‘izni to‘ldirib ovqatlanmang;
 - shoshmasdan ovqatlaning;
 - tirsaklaringizga tayanmang va keng qo‘ymang;
 - kim bilandir so‘zlashmoqchi bo‘lsangiz ham, yoningizdagi mehmonga orqa qilib o‘girmang;
 - og‘izda ovqat bilan gaplashmang;
 - kattalar o‘rnidan turganida, dasturxon yonidan chetlanib, ular xonadan chiqib ketganidan keyingina o‘rningizga o‘tiring;
 - stulda yastanib, yalpayib o‘tirmang;
 - dasturxon atrofida o‘z xastaliklaringizni so‘zlamang;
 - mezbon ovqatlanishni mehmonlardan so‘ng tugatishi lozim;
 - dasturxon atrofida baland ovoz bilan gaplashmang;
 - hamma ovqatlanib bo‘lmasidan o‘rningizdan turib ketmang.

Muhtaram otaonalar va aziz murabbiylar bu odoblarni tarbiyaning poydevori deb bilishlari va farzandlarga har kuni sabr bilan o‘rgatishlari, o‘zlari ibrat ko‘rsatishlari lozim bo‘ladi. Zero bu fazilatli amallar insonni aziz qiladi, ular odamlar bilan o‘zaro muomala munosabatda juda muhimdir.

Salomlashish odobi. Salomlashish tufayli kishilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, samimiyat va bir-biriga

nisbatan mehrmuhabbat paydo boʻladi. Bir-birimizning yonimizdan indamay oʻtgandan koʻra, birodaridagi haqi boʻlgan salomlashish, alik olishni odat qilsak, nur ustiga nur boʻladi.

Paygʻambarimiz (s.a.v.) “Birbiringiz bilan salomlashib yuringlar, shunda oʻrtalaringizda mehrmuhabbat uygʻonadi”, deyamarhamat qilganlar. Mana shu birgina salom soʻzi kishini ezgulikka, mehr shafqat va poklikka, haqiqiy insoniylikka chorlaydi.



“Assalomu alaykum” – “Sizga tinchlik tilayman”, “Va alaykum assalom” – “Sizga ham tinchlik boʻlsin” soʻzlarida ulkan maʼno, ezgu tilak mujassam.

Farzandlarimizga chiroyli tarbiya berib, koʻcha-koʻyda tanigan va tanimagan kishilarga ham salom berishni oʻrgatsak, albatta, ularning murgʻak qalbida mehru oqibatning ilk kurtaklari uygʻonadi. Ulugʻ yoshdagi qariya yonidan salom berib oʻtgan bola bilan salom bermasdan oʻtgan bola barobar emas.

“Sizga tinchlik tilayman” degan insonning qalbida hamisha mehroqibat tuygʻusi ufurib tura-di. Aksincha, bezrayib oʻtib ketadigan, kibr-havoga berilganning yuragi tosh kabi qattiqdir.

Kattalarning oldin salom berishi farzandga

salom berish ta'limini singdirishning yaxshi yo'lidir.

Chiroyli odoblardan yana biri ohista so'zlashdir. To eshituvchilar uni yaxshi tushunishsin va davrada o'tirganlar gapirayotgan kishining maqsadini aniq anglab, idrok etsinlar.

Tabassum fazilati. Yuzlab odamlar o'tib qaytayotgan gavjum ko'chadan boryapsiz. Demak, manzilga yetguncha tanishu notanish chehralarga ko'zingiz tushadi. Ana shunda siz ularga ochiq yuz bilan jilmayib boqing. Ko'rasizki, shu beozor tabassumingiz tufayli yuzlab odamlarning kayfiyati ko'tariladi, ruhi tetiklashadi. Kayfiyatingiz chog', yuzlaringiz kulgudan charaqlab turgan kezlarda uz-zukun omad sizga yor bo'lganini eslang. Axir o'sha kunda yonveringizdagi kishilar ham mehr bilan boqishgani rostku.

Donishmandlardan biri: "Hayotimiz qanday bo'lishi sizni biz unga qanday ma'no bahsh etishimizga bog'liq", deydi. O'ylab qarasak, endilikda bizning tabassumlarimiz naqadar qimmat turadi!



Tabassum bir lahzada paydo boʻladi. Inson yuzidagi iliq tabassum bilan har qanday davraning aziz mehmoniga aylanadi.

Siz qanday davrada boʻlmang, yoningizdagilardan tabassumingizni darigʻ tutmang. Ularga jilmayib nigoh tashlang. Toki, tabassumingiz chehralarda qotgan muzlar ni eritib yuborsin. U mehrdan tuzilgan gulshodalar yangligʻ koʻngillarga sochilib ketsin.

Tabriklash odobi. Farzand odobini kamolga yetkazadigan tarbiyaviy ishlardan yana biri kerakli oʻrinlarda samimiy tabriklashga odatlantirishdir.

Shunda bola bilan jamiyat oʻrtasida oʻzaro doʻstlik, qadrdonlik, mehru muhabbat ziyoda boʻladi.

Tabriklashning turli shakllari bor. Avvalo, murabbiylar farzandning ruhiyatini koʻtarish maqsadida kichkina yutugʻi bilan



ham tabriklab, munosib baholashi kerak. Bayramlar va shunga oʻxshash saodatli kunlarida tabriklash ayni muddaodir. Bunday eʼtibor, samimiy tilaklar ularning xotiralarida muhrlanib qoladi. Zero aytgan gapiga avval oʻzi amal qilib ibrat koʻrsatish tarbiyaning taʼsirchan, samarali usulidir.

AQLIY TARBIYA MAS'ULIYATI

Aqliy tarbiyadan maqsad bola ongida shariat ilmlarini ham, zamonaviy ilmlarni ham shakllantirishdir. Shundagina u teran fikrli, o'tkir fahmli bo'lib yetishadi. Imon e'tiqod sabog'i bola tarbiyasida eng asosiy o'rinda turadi. Imonli bola hayoli bo'ladi, birovga zulm qilmaydi. Haromdan, nopok narsalardan tiyiladi. Mehr-u oqibatli, sabrli bo'ladi. Bu borada murabbiylar zimmasida bir qancha mas'uliyatli ishlar bor. Albatta, bolalarimiz birdaniga aqlli bo'lib qolishmaydi. Buning uchun ma'lum darajada aqliy rivojlanish jarayonini bosib o'tishlari kerak. Bu sohadagi vazifalarni uchta bosqichda o'rganamiz:

- majburuy ta'lim.
- fikrni rivojlantirish.
- sog'lom aql.

Ha, azizlar, bola tarbiyasi ana shunday muhim ijtimoiy, hayotiy masaladir.

Ota onalar va murabbiylar farzandlarning tortinchoqlik, qo'rqqoqlik, o'zini sababsiz aybdor his

qilish, hasad, gʻazab kabi salbiy xislatlariga ham eʼtibor qaratishlari muhim.

Tortinchoqlik. Bu holat barcha bolalarning tabiatida kuzatiladi. U bola toʻrt oyligidayoq sezila boshlaydi. Bir yoshga toʻlganida aniq ravshan boʻladi: notanish odamni koʻrsa, yuzini buradi, koʻzlarini yumib, qoʻllari bilan yashirinishga urinadi.

Bolaning tortinchoq, oʻta uyatchan boʻlishida irsiyatning ham oʻrni bor. Shuningdek, uni oʻrab turgan muhitning taʼsirini ham inkor qilib boʻlmaydi. Koʻpchilik ora sida oʻsgan bola bilan yakkayolgʻiz oʻsgan bola oʻrtasida katta farq boʻladi. Yolgʻiz bolalar odamovi, tortinchoq boʻlib qolmasliklari uchun koʻpchilikka qoʻshish kerak. Tengdoshlari bilan tez-tez oʻynashi yoki bolani koʻproq qarindoshurugʻlar ziyoratiga olib borish ham yaxshi natijalar beradi.

Qavmning ilmsiz keksasi yoshdir, Garchi hamma atrofida jam boʻlsa ham.

Kimning bolasi boʻlsang ham oʻrgangin odobni, odobning maqtovi nasabdan behojat qiladi seni.



Mana shu menman, degan yigit haqiqiy yigitdir, Otam falonchi bo'lgan, degan yigit yigit emasdir.

Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarimiz yuksak maqsadlarga – Vatanimizning ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlash, milliy o'zlikni anglash, jamiyatni yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, komil insonni tarbiyalash, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi olijanob g'oyalar atrofida birlashish uchun, mam-lakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlarni, pirovard maqsadimiz bo'lgan erkin va farovon xayot mohiyatini keng targ'ib qilishga qaratilgan. Bunda har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalash bugun jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Jamiyatimizda ruy berayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar yoshlar ongiga ta'sir qilmasdan qolmaydi.

Hozirda maktab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga yetkazadigan vorislarimizdir. Shunday ekan, yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanish nafakat pedagoglar, ota onalar balki keng jamoatchilikning kelgusi avlod barkamolligi, o'g'il-qizlarimizning ulug' ajdodlarimiz merosiga xos oqil inson, bo'lib tarbiyalanishlari

uchun ham mas'uldirlar. Har qanday xuquqning buzilishi zamirida axloqiy tarbiyadagi nuqson yotadi, bu esa yosh avlodning tarbiyasida voyaga yetmaganlarning xuquq buzishiga sabab bo'ladigan omil hisoblanadi.

Ma'lumki, uzoq va boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosiga ega. Bu meros bugungi avlodni insonparvarlik, mehr-muhabbat, oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mardlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'zbek xalqining mana shunday boy tarixiy ma'naviy merosidan ulug' xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham muntazam va to'laqonli bahramand bo'lishlari, buyuk g'oyalarni yosh avlod qalbidan va yuragidan ham joy olishi, ularning mana shunday ma'naviy muhitda kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.



Inson dunyoga kelar ekan, o'sib, ulg'ayib kamol topadi. Uning insoniyligi, ahloq-odobi, xulq-atvori, dastavval, o'z oilasida shakllanadi. Demak, oila tarbiya maskanidir. Shuning uchun dono xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deydi. Demak, insoniylikning ilk xislatlari ota-ona bergan tarbiya orqali shakllanadi. Oila – tarbiya maskani. Dunyoga kelgan farzand ota-onadan axloq-odob qoidalarini, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlarni o'rganadi. Oilada bo'sh vaqtni faol tashkil etish; madaniyat, san'at maskanlari, tarixiy obidalar, qadamjolarga sayohatlar uyushtirish; farzandlar bilan sport maydonchalarida birgalikda mashg'ulotlar olib borish, qishloq sharoitida farzandlarning ota onaga tomorqadagi ishlarda yordam berishi oila barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Inson ma'naviyati dastavval oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma'naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi. Oilada farzandning ota ona oldidagi burchi nihoyatda muhimdir. Noqobil farzand ota onaning qaddini bukadi, el-yurt oldida ularning boshini ham qiladi.

Tarbiya ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun avvalo tarbiyalanishi zarur.

TARBIYA KO'P QIRRAL

Tarbiya ko'p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muhitning hammasi odamlar, narsalar, hodisalar ularning ongida, hulq-atvoridama'lumiz qoldiradi, uni o'zgartiradi va o'stiradi.

Har bir ota ona tarbiyaning o'ziga xos nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarini o'zlashtirib, ularga amal qilishi lozim. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik, murakkab masala bo'lib, ota onadan pedagogik bilim, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi.

Ajdodlarimiz tajribasi ko'rsatadiki, o'g'il-qizlarni yoshligidan mehnatsevar, har bir topshirikni katta yoki kichikligidan qat'i nazar o'z vaqtida, aniq



bajaradigan, umrining har bir daqiqasini qadrlaydigan qilib tarbiyalash lozim. U yoki bu oiladagi tarbiyaning samaradorligi, albatta, ota onaning qanchalik bilimli, madaniyatli bo'lishi, bola tarbiyasiga mas'uliyat bilan qarashlari, farzandlari kelajagini chuqur his etishlari, tajribada sinalgan milliy urf-odat va an'analardan unumli foydalanishlariga bog'lik. Tarbiyada talabchanlik, ota-ona va katta yoshdagi

kishilarning o'zaro ahilliklari, kichiklarga g'amxo'rlik, osuda turmush va halol mehnat faoliyatlari oilaviy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Bundan tashqari, har bir oilada farzand tarbiyasida aniq bir maqsad bo'lishi kerak. Eng muhimi farzandlarimizni nafaqat bo'la-jak ota ona yoki aka uka, opa singil sifatida, balki jamiyatning haqiqiy fuqarosi, kelajagiga ishonu-vchi, unga sadoqat bilan xizmat qiluvchi inson, vatanparvar, posbon sifatida ham tarbiyalash-ga e'tibor berishimiz lozim. Oilaviy omillar o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Ijobiy sifatlarni qaror toptirish uchun yoshlar bilan, ayniqsa yuqori sinf o'quvchilari bilan muntazam shug'ullanish lozim.

Lekin jamiyatimizda yoshlar tarbiyasida ay-rim bo'shliqlar vujudga kelayotgani, dunyo-qarashi past, bilimi zaif, yosh bo'lsada, jinoyat-ga qo'l urgan, giyohvandlikka moyil, ichkilik va chekishga ruju qo'ygan, o'qishga qiziqmaydigan, tarbiyasi og'ir bolalarning borligi tashvishli holdir.

Kun sayin taraqqiy etib, ravnaq topayotgan jami-yatimizda yuqoridagiga o'xshagan tarbiyasi og'ir, jinoyatga qo'l urayotgan o'smirlar qayerdan paydo bo'layapti? Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qituv-chilarimiz yetarli bilim berishmayaptimi? Tur-mush tashvishlari bilan o'ralashib, oilada farzand

tarbiyasiga e'tiborsiz qarayotgan ota onalar aybdormi, yoki farzandlarimiz o'zlari loqayd, beparvo, sovuqqon bo'lib qolayotganlari tufaylimi bu? O'quvchi-yoshlarni "tarbiyali bo'ling" degan bilan tarbiyalab bo'lmaydi. Buning uchun avvalo ota ona shaxsiy na'muna ko'rsatmog'i lozim. Bola



insoniy xislatlarini, ezgulikni, odamiylikni, yaxshilikni ham, yomonlikni ham, eng avvalo, oiladagi kattalarni ing hatti-harakatlaridan o'rganadi. Ota-onaga o'z hulq-atvori bilan farzand hurmatiga sazovor bo'lishlari, uning xayot yo'lida o'rnak bo'lishlari lozim. Bu odat ularning ongiga singishi lozim.

Shunday oilada o'sgan bolagina ota onani, qolaversa, o'z ustozlarini, kattalarni hurmatlash, mahalla-ko'yda o'zidan kichikni izzat qilishni o'z o'rniga qo'yadigan, xalqparvar bo'lib yetishadi. Har bir tarbiyachi tarbiya san'atkori bo'lmog'i lozim.

MUNDARIJA

Tarbiya	8
Kitobxonlik orqali tarbiya	16
O'quvchi yoshlar tarbiyasida mahallanining o'рни	43
O'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda musiqa madaniyati va sanat	70
Oila muqaddas.....	86
Sport maydonchalari (vorkout).....	129
Bola boshidan	133
Jismoniy tarbiya.....	138
Oilada tarbiyani asosan kim beradi	143
Mexnat va tarbiya	145
Farzandlarga mehribonlik	149
Ilim o'rganish va kasb hunar	155
Farzand burchi va vazifalari	167
Odob bolalikdan	173
Yaxshilikka chorlash	192
Hurmat ko'rsatish	196
Jamoadi o'zini tutish odoblari	201
Aqliy tarbiya mas'uliyati	207
Tarbiya ko'p qirrali	212

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori Toshkent sh., 2024-yil 21-iyun, PQ-232-son. Sh. Mirziyoyev

2. Ota ona murabbiy X.I.Ibragimov

3. Umumiy pedagogika X.Ibragimov, M.Quronov darslik

4. Pedagogika nazariyasi va tarixi X.Ibragimov, M.Quronov va D.Ibragimova darslik

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida. PF-209-son. 2023-yil 21-dekabr.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-402-son. 2023-yil 21-dekabr.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida. 334-son. 2024-yil 13-iyun.

8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. –B.17-18.

9. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir. – T.: "Tasvir". 2021.

10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". 1-jild. –T.:

O'zbekiston, 2019. 504-505- betlar.

11. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni xalq, millatimizni millatni millat qilishga xizmat etsin. "Tafakkur" jurnali, 1998, 2-son.

12. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. 130-b.

13. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – B. 8.

14. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. 5-j. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 364-365.

15. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B. 616.

16. Manaviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – B. 247.

17. Qodirov P. Til va el. – T.: Ma'naviyat, 2010. – B.100.

18. Raximov S., Hayitov I., Abdullayev G. Saboq mahalladan boshlanadi. – Toshkent, 2018. – 102 b.

19. Raximov S., Ziyayev F. Tarbiyada keksalarning o'рни. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 79 b.

20. Raximov S., Hayitov I., Umarov S. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda mahallaning o'рни. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'рни. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Toshkent, 2019. –B. 123-124.

21. G'affarova G. Tarkibiy o'zgarishlarning bifurkatsion asosi // Academic Research in Educational Sciencies, 2021. 2(1) (yanvar), –P. 244-250.6.

22. G'affarova G.G., Abdullaeva M.N. Falsafada konstruktivizm muammosi. Imom Buxoriy saboqlari. 2018. №3, –B.96-98

23. Qahhorov N.B. Vokal ijrochiligi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot-moliya, 2008. 28-36 betlar.

24. Xamidov X. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. –T. O'qituvchi, 1966, 46-bet.

25. Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvistik talqini. –T: Fan, 2004. 35-36 betlar.

26. Морозов В. Вокальный слух и голос. –Москва, 2006. –С. 19-20.

27. Дмитриев Л.В. Основы вокальной методики. –С. 377, 388.

28. Гарсия. Школа пения. –Москва, 1967. –С. 44.

29. Muhitdinova M.S. Pedagogika oliy musiqa ta'limida bakalavrlarni tayyorlashda uchrab turadigan muammolar va ularni yechish yo'llari. Sciynce and Education, 2020. –R. 241-243.

30. Maxkamova Sh.R. Hazrat Navoiyning musiqiy tafakkuri. Sciynce and Education, 2020. –R. 215-217.

31. Фатхуллаева М. Музыкальное образование в Германии. Yeuropean research: innovation in sciynce, yeducation, 2020. –P. 73-74.

32. Quronov M. Milliy tarbiya. –T.: Manaviyat, 2007.

33. Umarova Z.A. Boshlang'ich ta'lim didaktikasi // Academic research in yeducational sciences volume 2 | ISSUE 2 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. 556-562-bet.

34. Abdunazarov, Z. Processes of the Student's Work on the Word. International journal of inclusive and sustainable Education, 2(6), 2023. 108-110-bet.

35. Davirbek, A., Davlatalievi D.R. The yemergence and

Development of European and US Theaters. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2023. 1(4), 51-52.

36. Davrbek, A., & Davlatalievi D.R. The Art Of Directing, Puppet Theater And Stages Of Its Development. in on-line-conferences platform. 2022, December. –P. 96-98.

37. Zununov, R. Issues of Education of Artistic Taste and Ethical Culture in the Actor. International Journal Of Inclusive And Sustainable Education, 2(5), 2023. –P. 68-70.

38. Madaliyev, A.R. Qo'g'irchoq teatri san'atiga zamoniyl yondashuv masalalari. Oriental Art and Culture, 2023. 4(6). –P. 33-37.

39. Yuldashev, K., Juraeva, M.A. The Most Important Terms Of Dramaturgy. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics, 2023, May. –P. 206-208.

40. Yuldashev, K., Juraeva, M. A. Issues of the Fate of Children in the Works of G. Ghulam. International Journal Of Inclusive And Sustainable Education, 2023. 2(2). –P. 25-30.

41. Mamatqulov, B. Qo'g'irchoq teatri aktyorlik ijodiga xos bo'lgan xususiyatlar. Oriental Art and Culture, 2023. 4(6). –P. 87-89.

42. Umarova, K. Processes of Working on a Performance with Students of the Acting Group. International Journal Of Inclusive And Sustainable Education, 1(5), 2022. –P. 234-236.

43. Umarova, X. Musiqiy teatr aktyorining rol ustida ishlashi. Oriental Art and Culture, 2022. 3(4), –P. 475-478.

44. Dehqonov, R. D. (2022). Dramaturgy of Staged Performances for Children. International Journal Of Inclusive And Sustainable Education, 1(4), –P. 224-228.

45. Ahmedov, Z. Ijodkor yoshlarimizni tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning o'rni. Oriental Art and Culture,

2023. 4(6), –B. 579-582.

46. Quronov M., Bazarov O. Oilam mustahkam bo'lsin, desangiz. –T.: Sano-standart. 2012. 9-bet.

47. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: O'qituvchi, 2019, 36-37, 105-107 betlar.

48. Melikuziev K.P., Abdurashidov T. M. Reforms in the judicial system as a topical direction in the appeal. international journal of discourse on innovation, integration and education, 2021. 2(2), 177-182.

49. Melikuziyev K.P., Abdurashidov T.M. International Peace As A Universal Value. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2021. 1(02), 73-78.

50. Kulmatov, P.M., Tajibayev, M.A. Interaction of moral, aesthetic and ecological education. Scientific progress, 2021. 2(1), 1149-1154

53. Mahkamova, S.R., Obidova, S.P. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni musiqiy tarbiyalash va ta'lim berish. Scientific progress, 2021. 1(3).

54. <https://arboblar.uz/uzkr/people/abu-ali-ibn-sina>

.

